



**Artikova Yulduz
Akmalovna**

filologiya fanlari doktori, dotsent

“Interaktiv jurnalistika”, “Sport jurnalistikasi”, “Jurnalistikada kreativ fikrlash”, “Rejissura, tasvirga olish va montaj amaliyoti” nomli o’quv qo’llanmalari hamda “Interaktiv telejurnalistikaning nazariy asoslari va taraqqiyot tendensiyalari” nomdagi monografiyaning muallifidir. U 2004–2020 yillari “Sport” telekanalida katta muharrir sifatida mualliflik ko’rsatuvlar tayyorlab, dasturlari “MTRK sovrini”, “Yilning faol sport jurnalisti” kabi tanlovlar g’olbi bo’lgan.

“Sport jurnalistikasi zamonaviy trend sifatida” nomli mazkur monografiya muallifning bu yo’nalishdagi ilmiy izlanishlarining davomidir.

7178



9 789910 635175

ARTIKOVA
YULDUZ AKMALOVNA

SPORT JURNALISTIKASI ZAMONAVIY
TREND SIFATIDA

ARTIKOVA YULDUZ AKMALOVNA

SPORT JURNALISTIKASI ZAMONAVIY TREND SIFATIDA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETI**

ARTIKOVA YULDUZ AKMALOVNA

**SPORT JURNALISTIKASI
ZAMONAVIY TREND SIFATIDA**

Monografiya

Toshkent – 2025

UO'K: 796.5

KBK: 56.4.9

A17

Artikova Yulduz Akmalovna

Sport jurnalistikasi zamonaviy trend sifatida. [Matn].
Monografiya. Y.A. Artikova. – T.: “Publishing High Future” OK
nashriyoti, 2025. – 156 b.

Jurnalistikaning taraqqiy etib, ixtisoslashib kelayotgan yo'nalishlaridan biri - sport jurnalistikasidir. Axborot tezkorligi dolzarb bo'layotgan davrda sport mavzusida material tayyorlashga talab katta. Sport jurnalistikasining shakllanishi, uning vazifalari, sport jurnalistining mas'uliyati, bu sohada material tayyorlash texnologiyalari kabi mavzularni o'zida qamlab olgan mazkur monografiya nazariy tahlillar qatorida amaliy kuzatuvlarga asoslangan. Mazkur tadqiqot mutaxassislar, ilmiy izlanuvchilar va talabalar qatorida amaliyotchilar uchun ham qiziqarli bo'ladi.

Mas'ul muharrir

M.K. Sabirova,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Taqrizchilar:

A.A. Karimov,

filologiya fanlari doktori, professor;

E.T. Boborajabov,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Monografiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi 6-sonli yig'ilishi Qarori
bilan nashrga tavsiya etilgan.

Monografiya AL-662204328-sonli “Sport atamalarining
o'zbek tilidagi izohli lug'ati”ni tuzish va nashr qilish” nomli
amaliy loyiha doirasida chop etilgan.

ISBN 978-9910-635-17-5

© Y.A. Artikova, 2025

© “Publishing High Future” OK, 2025

MUNDARIJA

KIRISH	4
--------------	---

I BOB. SPORT VA JURNALISTIKA

1.1. Sport jurnalistikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi	7
1.2. Sport jurnalistikasining vazifalari.....	27
1.3. Olimpiya harakati va sohani rivojlanishida tutgan o'rni	41

II BOB. MEDIADA SPORT MAVZUSI

2.1. Sportga ixtisoslashgan nashrlar spesifikasi ...	60
2.2. OAVda bolalar sporti mavzusining yoritilish xususiyatlari.....	75
2.3. Sport mavzusida mediamahsulot tayyorlash texnologiyasi.....	84

III BOB SPORT JURNALISTINING KASBIY MAHORAT MASALALARI

3.1. Sport jurnalistikasida malaka talablari.	110
3.2. Sport jurnalistining mas'uliyati.....	122
Xulosa	141
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	145
Ilovalar	153

KIRISH

Yoshi ulug'lar duoga qo'l ochganlarida: "Tinchlik hotirjamlik, sihat-salamatlik bo'lsin",- deya niyat qiladilar. Jamiyat, oila, shaxs taraqqiyotida tinchlik, tan-sihatlikning alohida o'rni bor. Ta'lim, tibbiyot kabi ijtimoiy yo'nalishlardan biri sportdir. Tarixdan ma'lumki, sport-tinchlik elchisi, salomatlik garovidir. Salomat bo'lishda esa jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishning ahamiyati kattadir.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, yuqorida aytib o'tilgan soha rivoji yo'lida qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so'nggi yillar sport va jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor qilinmoqda. Buning natijasida yetakchi sportchilarimizning jahon arenalarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari yildan-yilga yaxshilanmoqda. Davlatimiz rahbarining terma jamoa a'zolariga qarata aytgan mana bu so'zlari sportchilarimizga bildirilayotgan yuksak ishonchning namunasidir: "Hamma qilayotgan ishlarimizdan maqsad - xalqimizni rozi qilish, yoshlarimizni barkamol etib tarbiyalash. Sizlarning g'alabangiz har bir sohada adolat bo'lsa, uzoq-uzoq qishloqlardagi iste'dodlar ham o'z o'rnini topsa, albatta natija bo'lishidan yana bir dalolat. Bu barcha yoshlarimizni marrani baland olib, o'z ustida ishlashga, ulkan muvaffaqiyatlarga erishishga ruhlantiradi"¹.

Jamiyatda taniqli sportchilar yetishtirib chiqarish barobarida aholining umumiy

¹ <https://olamsport.com/uz/news/shavkat-mirziyoev-bokschilarimiz-bilan-uchrashdi>

salomatligini yaxshilashga qaratilgan jismoniy madaniyatni kuchaytirish bo'yicha ham yurtimizda samarali ishlar hayotga tatbiq etilmoqda. Xususan, 2024 yilda yoshlarni sportga keng jalb qilishga qaratilgan davlat dasturi ishlab chiqildi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi hamda Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili bo'yicha davlat dasturi doirasida navqiron avlodga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. 10 milliondan ziyod aholi ommaviy sport bilan shug'ullanmoqda. Barcha hududlarda, ta'lim va mehnat jamoalarida turli musobaqalar o'tkazilmoqda. Yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish masalalariga ham e'tibor qaratildi. Taklifga ko'ra, haftaning har payshanbasi jismoniy tarbiya va sport kuni sifatida belgilanadi. Prezident sport sohasi yoshlarga oid davlat siyosatining katta yo'nalishi ekanini ta'kidlab, joylarda bu boradagi qulayliklarni kengaytirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk etib tarbiyalash bo'yicha fikrlarini bildirdi"². Sportni rivojlantirish, sohani ommalashtirishda esa OAVning o'rni beqiyosdir.

Tarixdan ma'lumki, jismoniy tarbiyani ommalashishi, uning jamiyatdagi o'rni va nufuzining yuqori bo'lishi ko'p jihatdan shu yo'nalishdagi jurnalistikasining taraqqiy etganligiga bog'liq bo'lgan. Jurnalistika ixtisosligida asosiy mavqega ega bo'lib kelayotgan ijtimoiy - siyosiy

² <https://daryo.uz/2024/11/21/ozbekistonda-haftaning-har-payshanba-kuni-jismoniy-tarbiya-va-sport-kuni-sifatida-belgilanadi>

yoki iqtisodiy sohalar qatorida sport jurnalistikasi ham bugungi kunda o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyot yoki siyosat olamida qalam tebratish uchun jurnalistning ma'lum bilim va ko'nikmalari kerak bo'lgani kabi, mazkur yo'nalishda ijod qilish uchun sport turini bilishi ham talab etiladi. Shu bilan birga uning tibbiyot va psixologiyadan xabardor bo'lish ham zarurdir. Ahamiyatlisi, bugungi kunda sport meditsinasi, sport psixologiyasi kabi fan yo'nalishlari ham rivojlanib, taraqqiy etmoqda. Demak, sport jurnalistlari oldida yanada katta vazifalar, tadqiqotlar uchun izlanish yo'nalishlari ochilmoqda. Mumtoz jurnalistika an'analaridan chiqib sport jurnalistlari oldida zamonaviy media talablariga ko'ra ishlash zarurati mavjud. Yangilanayotgan sport qoidalarini o'zlashtirish barobarida sport atmlarini o'zbekcha muqobilini topish ham dolzarb masalaga aylangan. Endilikda sport nashrlari konvergentlashib, multimediamiy shaklda faoliyat olib borilmoqda. Sportning ta'limiy, tarbiyaviy vazifalari qatorida rekreativ funksiyasini e'tiborga olishga talab etiladi. Bu va boshqa dolzarb masalalar mazkur izlanish doirasida yurtimiz hamda xorij medialari misolida o'rganilgan.

I BOB. SPORT VA JURNALISTIKA

1.1. Sport jurnalistikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi

Globallashuv davrida ommaviy axborot vositalari ommaviy kommunikatsiya vositalari maqomini olar ekan, konvergentlashuv, multimedaviylikning ustuvorligini kuzatish mumkin. Bu jarayonda jurnalistikaning nazariya va amaliyoti janr, yo'nalish, tipologik xususiyatlariga ko'ra emas, ixtisoslashuv nuqtayi nazaridan taraqqiy etayotganligini kuzatish mumkin. Nazariyotchilar zamonaviy jurnalistika taraqqiyotini multimedaviylik, interaktivlik va gipertekstuallik yo'nalishlaridan borayotganligini ta'kidlashadi. Amaliy jurnalistikada esa, aksincha ixtisoslashuv kuzatilayotganligini ta'kidlash kerak. Harbiy mavzuni yoritadigan harbiy jurnalistika, biznesni o'rganadigan iqtisodiy jurnalistika, sayohatlarni yoritadigan trevel jurnalistika shular jumlasidan. Bular qatoriga huquqiy, siyosiy, art jurnalistikalarni ham kiritish mumkin. Shu jumladan o'tgan davr mobaynida ham nazariyada, ham amaliyotda o'z o'rniga ega bo'lib kelayotgan bu sport jurnalistikasidir.

Jurnalistikada ixtisoslashuv nima sababdan, qanday talablar asosida paydo bo'lib, rivojlanyapti? Avvalambor, tahririyatlarda konvergentlashuv jarayoni rivojlangan sari, jurnalistlar matbuot, radio, televideniyeining o'ziga xosligidan xabardor

bo'lishlari talab etilyapti. Bu- raqamlashuv davrining talabidir. Zamonaviy jurnalist matn, ovoz, tasvir bilan bir xil salohiyatda ishlay olishi: ham matn yozishi, ham audio tayyorlay bilishi(masalan, podcast), shu bilan birga qisqa video(masalan, short reels)larni ham tasvirga tushirib, montaj qilishi kerak. Ya'ni jurnalist tushunchasi o'tgan vaqt mobaynida universallashtirdi. Ammo mavzu, yo'nalish va sohaga yo'naltirish nuqtayi nazaridan o'ziga xoslik paydo qildi. Zamonaviy jurnalist faqat ma'lum bir yo'nalishda ijod qiladi, "o'zi"ning mavzusida yozadi. Bu jarayon jurnalistning tor soha bilimdoni bo'lishligini taqozo qilyapti. Sport jurnalistikasi chuqur ilmiy tadqiq etish, o'rganish, nazariy asoslarini tizimlashtirishga ehtiyojni paydo qilyapti.

Ixtisoslashgan jurnalistika rivojlanishining yana bir talabi bu media biznes kategoriyasidir. Ya'ni, tayyorlangan material - axborot mahsuloti sifatida o'z qiymati va haridoriga ega bo'ladi. Axborotning targeti, ya'ni maqsadli auditoriyasi mavjud. Ma'lum target auditoriya uchun mahsulotini reklama qilishga tayyor bo'lgan homiylar ham topiladi. Auditoriya ko'lami qanchalik ko'p bo'lsa, tayyorlangan axborotning "narxi" ham shuncha oshadi. Demak, jurnalistika ixtisoslashuvi mediabozor talabi bo'lib, uning taraqqiyoti jamiyatning nechog'liq iqtisodiy rivojlanganligi, turmushining farovonligi bilan bevosita bog'liq. Iqtisodiy jihatdan o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan jurnalistika yo'nalishlaridan biri sport jurnalistikasi ekan, sportning rivojlanishi bevosita sport

jurnalistikasining taraqqiyotiga bog'liqligini vaqtning o'zi isbotladi.

Sport jurnalistikasining o'z maqsadi, vazifasi, auditoriyasi, o'zini- o'zi moddiy qoplay bilish xususiyatlari qatori rivojlanish yo'li ham bor. Sport jurnalistikasining predmetini anglash uchun "sport" so'zining lug'aviy ma'nosini tushunish talab etiladi. Ko'pchilikda hozirda "sport" so'zi - "harakat", "musobaqa", "natija", "yutuq" kabi tushunchalarini tasavvurda paydo qilsa ham, bu so'zning etimologiyasi boshqa hisoblanadi. Sport atamalarini tadqiq etgan N.N.Gafforov "sport" so'ziga shunday ta'rif beradi: "Etimologik jihatdan "sport" so'zi qadimgi lotincha disportare - "mazza qilish"ga borib taqaladi. Qadimgi fransuz tilida desporter fe'li "ko'ngil ochish, ishdan chalg'itish"ga aylandi, keyin so'z ingliz tiliga "disport" - "o'yin-kulgi" ma'nosida kirdi, bu yerda qisqartirish orqali yangi sport otlari paydo bo'ldi"³. Mazkur ta'rifda sportning aniq va o'ziga xos maqsadi namoyon bo'ladi.

Barcha sport turlari harakat bilan bog'liq emas. Masalan, shaxmat. Deyarli harakatsiz bo'lgan bu sport turi aql va idrokning uyg'unligi sifatida falsafa va mantiq kabi ijtimoiy fanlarga nisbatan yaqinroqdek tuyuladi. Ammo sport bilan shaxmatni musobaqa ruhiyati birlashtiradi. Shaxmatda yakkakurash turlarida bo'lganidek, "raqib", "g'alaba va mag'lubiyat" kabi tushunchalar mavjud. Bu tushunchalar uni barcha sport turlari bilan yaqinlashtiradi. Shu bilan birga shaxmat bo'sh

³ Гуреева Е. Спортивная терминология в лингвокогнитивном аспекте. Дисс.канд.фил.наук. Челябинск - 2007. - С. 64.

vaqtni mazmunli o'tkazish uchun o'ynaladigan o'ziga xos o'yindir. Havaskorlar shug'ullanadigan jismoniy madaniyat negizida ham shaxmat "o'ynash", futbol "o'ynash" kabi tushunchalar mavjud. Ya'ni, sport ko'ngilochish tushunchasi bilan birga "o'yin"ga yaqin. "Ko'rib turganingizdek, nom tahlil qilingan konsepsiyaning "o'yin" tushunchasi bilan bog'liqligini belgilaydi, bu unchalik murakkab bo'lmagan ramka. Ushbu tushunchalar uchun umumiy bo'lgan ma'lum qoidalar g'oyasi, "natija"ning shartli tabiati, zavq bilan bog'liqligi bor"⁴.

Demak, sport- "jismoniy tarbiya", "jismoniy madaniyat"dan kengroq tushuncha bo'lib, insoniyatning doimiy ko'ngilxushlik, zavq va rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyoji uning tub mohiyatini tashkil etadi. So'nggi yillar auditoriyaning rekreativ materialga bo'lgan ehtiyojining oshganligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi. Bunga asosiy sabab sifatida, globallashuv davridagi axborot oqimining ko'pligi tufayli individlardagi zavqlanishga, ko'ngilochishga bo'lgan ehtiyojining ortganligini ta'kidlashadi. Jurnalistikada rekreativlikning o'rni bo'yicha izlanish qilgan A.A.Karimov mavzuni shunday tahlil etadi: "Nima uchun keyingi yillarda rekreativ ko'rsatuvlarga keng e'tibor qaratilmoqda? Buning asosiy sababi sifatida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim. Bu

⁴ Гаффоров Н.Н. Спорт терминларининг лисоний тадқиқи: когнитив - прагматик ва лексикографик хусусиятлари. Фил. фанл. докт. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.. Т.: 2022. – Б.25

paytda axborot oqimi ko'paydi, tezkor sur'at inson hayotining ko'p sohalariga kirib keldi, odamlarda stress holatlardan tezroq chiqishga bo'lgan xohish-istak kuchaydi, tashqi axborot oqimining kishilar ongiga ta'siri kengaydi, aholiga axborotning shiddatli bosimi ostida yashash muayyan qiyinchiliklar tug'dira boshladi"⁵.

Zavqlanishga, muammolardan chalg'ishga bo'lgan ehtiyoj odamlarni sportga qiziqishini oshiradi. Fiziologik jihatdan sport va jismoniy tarbiya mashqlari odamning asab tizimlarini mo'tadillashtiruvchi vosita ekanligini tibbiyot xodimlari ham aytib o'tishadi. Demak, sport va jismoniy madaniyat odamlarning ham ruhiy, ham jismoniy, hamda ijtimoiy ehtiyojlaridan biri ekan. Sportni ommalashtirish, targ'ib qilish va tahlil etishda esa sport jurnalistikasining o'rni bo'lakcha.

"Sport ko'p funksiyali hodisadir. Shu sababli siyosiy, ijtimoiy madaniy va axloqiy nazariyalarni aks ettiruvchi sport jurnalistikasi hozirgi davrga xos bo'lgan fikrlash uslublari, estetik ideallari va qadriyatlarga asoslanishi kerak"⁶. Shunga qaramay, ba'zi OAV tahririyatlarida sport mavzusiga jiddiy e'tibor qaratilmaydi. Sport jurnalistikasi moddiy foyda keltiradigan soha sifatida so'nggi yillari keng taraqqiy etganligi bois, zamonaviy OAVning asosiy

⁵ Каримов А.А. Рекреативлик – замонавий тележурналистиканинг глобал қонунияти сифатида: миллий ва халқаро тажриба. Фил. фанл. докт. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: – 2023. - Б. 67

⁶ Шарков Ф. И., Силкин В. В. Спортивная журналистика : учебник / ; под общ. ред. Ф. И. Шаркова. — М.: Издательско - торговая корпорация «Дашков и К», 2021 —С. 9

rivojlanish trendi bo'lmish "infoteyment" xususiyatining sportga uyg'unligini ta'kidlash lozim. Media biznes sharoitidagi yetakchi xususiyat bo'lgan ko'ngilocharlik va marketologik jihatdan foyda keltiruvchi aspektlar - sport jurnalistikasining taraqqiyotini belgilovchi omilga aylangan. Shu bilan birga, Olimpiya harakati, havaskor sportning rivojlanishi, odamlarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishining ortishi, jismoniy tarbiya targ'ibotiga qaratilgan milliy dasturlar sport jurnalistikasining eng taraqqiy etgan sohalardan biriga aylantirmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida sportning o'rni va ahamiyati. Sport bugun yurtimiz ta'lim-tarbiya tizimining ajralmas qismiga aylangani alohida tahsinga loyiq. Yoshlar orasida futbol, boks, dzyudo, badiiy gimnastika, og'ir atletika, kurash, yengil atletika singari sport turlariga qiziqish tobora ortmoqda. 2024 yil Parijda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarida terma jamoamiz a'zolarining qo'lga kiritgan yutuqlari, umumjamoaa hisobda O'zbekiston jahon miqyosida o'n uchinchi o'rinni egallashi - sportni jamiyatda, ijtimoiy hayotda nufuzi yanada ortishi uchun zamin hozirladi. Olimpiada bahslarida o'zbek dzyudochi ayollari orasida ilk oltin medalni qo'lga kiritgan Diyora Keldiyorova, boks bo'yicha ikki karra Olimpiya o'yinlari g'olibi bo'lgan Bahodir Jalolovlar haqiqiy millat qahramonlariga aylanishdi.

Ha, sport xalqning g'ururi, milliy iftixoriga aylanishi mumkinligi ana shu Olimpiyada natijalaridan so'ng yaqqol namoyon bo'ldi. Bunday

yutuqlar zamirida yurtimizning o'tgan yillar davomida sportni rivojlantirish borasida ulkan tajriba to'planganligini ta'kidlash kerak. Eng chekka hududlarda ham qad rostlayotgan sport inshootlari xalqaro talablarga to'la javob beradi. Sport majmualarining deyarli barchasi yurtimizda ishlab chiqarilgan sport inventarlari bilan jihozlanmoqda. Hozirda ham ma'nan, ham jismonan barkamollikka intilish - qaysidir oliy tabaqaga mansub kishilarning shohona imkoniyati va imtiyozi emas, balki - har bir shaxs, har bir fuqaroning burchi va vazifasiga aylandi.

Tarixga nazar solsak, Yevropada, aynan, XIX asrning oxiriga kelib, Qadimgi Yunoniston diniy marosimlaridan biri bo'lgan Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi hamda uning dunyo bo'ylab tarqalishi sport, ya'ni jismoniy tarbiya madaniyatiga bo'lgan yangicha qarashlarga asos soldi.⁷ Bunda hammabop sport turlari qatori oliy tabaqa kishilarigina xos sport turlarining ommalashishi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar - har qanday odam o'zining kuchi va qobiliyatini namoyish qilib, jamiyatlardagi o'rni va obro'siga ega bo'la olishiga imkoniyat yaratdi. Shu bilan birga, avom xalqning ko'ngilxushligi deb hisoblangan ba'zi bellashuvlar sport turi sifatida tan olinib boshladi. Jismoniy madaniyatga berilayotgan e'tibor natijasida, aynan shu davrda, sport jurnalistikasi shakllandi, ommalashdi va taraqqiy etib bordi.

⁷ www.olympic.org

Tarixni ko'zdan kechirar ekansiz, sportning rivojlanishi sport jurnalistikasining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rishingiz mumkin. Sportni ma'lum bir moddiy manfaat maqsadida targ'ib qilish emas, balki sog'lom turmush tarzi garovi sifatida ommalashtirishda chuqur insoniy, falsafiy, axloqiy mazmun mujassamdir. Yurtimiz tarixida sportning alohida o'rni bor: "O'zbekiston sporti milliy madaniyatimizning uzviy qismi hisoblanadi. U keng xalq ommasini yuksak axloqiy ruhda tarbiyalash va salomatligini mustahkamlashda muhim vositalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda yashovchi xalqlar asrlar davomida xilma-xil jismoniy mashqlar va milliy musobaqalar turlarini yaratdiki, bu o'z navbatida yoshlarning jismoniy va ma'naviy tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Sport O'zbekistonda ming yillar osha shakllanib kelgan qadimiy madaniyatning bir ko'rinishidir"⁸.

Bugungi kunda sportchilarning natija uchun bellashadigan Olimpiya o'yinlarini qayta tiklagan Pyer de Kuberten ham, dunyo hamjamiyatini tinchlik va hamjihatlikka chorlagan, yosh avlodning jismoniy tarbiyasi, aholining umumiy salomatligi haqida qayg'urgan edi.⁹ Hozirgi kunga kelib Olimpiya o'yinlari qatoridan joy olish - u yoki bu sport turining nufuzini belgilab, uning dunyo bo'ylab tarqalishiga zamin hozirlaydi. Olimpiya o'yinlarini yoritish, shu mavzuni tahlil qilish ham,

⁸ Каримов А.А. Спорт журналистикасида рекреативлик. – Т.: "ADABIYOT". 2024. –Б. 11

⁹ www.olimpic.org

barcha OAV xodimlari uchun g'oyatda obro'li, tajriba va mahorat talab qiladigan soha sifatida tan olinmoqda.

Yurtimizda sport jurnalistikasi -jurnalistikaning o'ziga xos yo'nalishi sifatida yigirmanchi asrning boshlaridan taraqqiy eta boshladi. 1932- yildan beri chop etiladigan "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetasi – 1993- yildan boshlab o'zbek va rus tillarida "Sport" nashri sifatida keng ommaga havola qilinadi. 2004- yilda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tasarrufida «Sport» telekanalining tashkil etilishi o'zbek sport jurnalistikasini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi.¹⁰ Bugungi kunga kelib 24 soat, ya'ni tun-u kun faoliyat ko'rsatayotgan bu telekanal yurtimiz hamda dunyoda sodir bo'layotgan barcha sport voqealarni yoritish, tahlil qilish imkoniyatiga egadir. Kanalda sportni ommalashtirishga qaratilgan bir qator turkum ko'rsatuvlar sport jurnalistikasining o'ziga xos janrlari, rukn va yo'nalishlarini shakllanishi uchun poydevor yaratdi. Yurtimizda sohada amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni targ'ib qilish va ommalashtirish borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlar sport jurnalistikasi qay darajada rivojlanganligini ko'rsatib kelmoqda.

"Sport jurnalistikasi kengroq qaralganda, sport bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy jarayonlar holatini

¹⁰ Рўзиев Ф. Жўраева Х. Тележурналистга тавсиялар. –Т.: «SHARQ», 2013. - Б. 7

nazariy va uslubiy tahlil qilishni o'z ichiga oladi"¹¹. Shu o'rinda sportning ommalashishi, sport jurnalistikasining taraqqiyoti bugungi kunda qanday ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi borasidagi savolga javob berish o'rinli. O'tgan asrda sport muayyan bir soha, yo'nalish sifatida tan olindi. Sport tibbiyoti, sport psixologiyalarining rivojlanishini, sport anjomlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona va tashkilotlarning faoliyati bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bularning bari - sportning jamiyatda o'z o'rne borligini isbotlaydi. Sport jurnalistlari musobaqa natijalaridan tashqari jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan maqsadlarni nazarda tutishlariga to'g'ri keladi.

Sportda sog'lom turmush tarzi targ'iboti. "Axborot asri", "globalashuv davri" deb nom olgan bugungi kunga kelib giyohvandlik kabi muammolar o'z yechimini kutar ekan, ularning oldini olishga qaratilgan chora -tadbirlari muhim bo'lmoqda. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish, sport bilan shug'ullanish bu masalaning eng sodda va hammaobop yechimlaridan biridir.

Kamharakatlik, undan kelib chiqadigan turli salbiy oqibatlar ham, aynan, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish yordamida bartaraf etiladi. Sport mashg'ulotlari yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazish bilan saralanmagan axborot oqimidan himoya qilish, turli siyosiy guruhlariga, zararli

¹¹ Спортивная журналистика : учебник / Ф. И. Шарков, В. В. Силкин ; под общ. ред. Ф. И. Шаркова. — М.: Издательско - торговая корпорация «Дашков и К°», 2021. —С. 9

oqimlarga qo'shilishdan saqlab qolish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda tibbiyot va sportning o'zaro uyg'unligidagi sohalar rivojlanyapti. Sport tibbiyoti, sport psixologiyasi kabi ikki fan sinergiyasidagi kasblarga ehtiyoj ortmoqda. Masalan, avvallari sport tibbiyoti jarohatlarni davolash borasida faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirda sportchilar salomatligini tiklash barobarida - jismoniy mashqlar orqali turli kasalliklarning reabilitatsiyasi tibbiy amaliyotga kiritildi. Bolalarda ko'p uchraydigan, ba'zan jarrohlik yo'li bilan shifo topiladigan kasalliklar ham, aynan, jismoniy mashqlar yordamida bartaraf etilayotgani bugungi kunda uning nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi. Kinezeterapiya bilan kasalliklarni davolash usullari tibbiyotda o'z tasdiqini topmoqda. Bu kabi masalalarni yoritish, tahlil qilish va auditoriyaga ta'sirchan yetkazish - malakali sport jurnalistlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sportda imkoniyati cheklangan insonlarning ishtiroki. Texnika taraqqiy etgan bugungi davr nafaqat jismonan sog'lom, balki imkoniyati cheklangan odamlarning sport bilan shug'ullanishi hamda turli musobaqalarda qatnashishlari uchun sharoit hozirlamoqda. Ular ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topishga, kimgadir qaram bo'lmay jamiyatimizning teng huquqli a'zosi sifatida umr kechirishga intilmoqdalar. Sportda imkoniyati cheklanganlar qatnashadigan musobaqalar, maxsus Paralimpiya o'yinlari mavjud. Odatda yozgi Olimpiya o'yinlaridan keyin o'tkaziladigan

bahslarda jahonning turli burchaklaridan kelgan imkoniyati cheklangan sportchilar mahoratlarini namoyish qiladilar. Buning uchun ularga maxsus ishlab chiqilgan sport anjomlari, mutaxassislar ko'maklashadilar. Jismoniy jihatdan boshqalardan farq qiladigan insonlar sport bilan mashq qilib, kasbi- korga ega bo'lib, sog'lom insonlarga- hayotda yashash, umid qilish va irodasini mustahkamlash uchun motivatsiya berishadi.

Yurtimiz paralimpiyachilari to'rt yillikning muhim bahslarida ishtirok etib, g'olib va sovrindorlar qatoridan joy olib kelishmoqda. Parij-2024 yozgi Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etgan O'zbekiston jamoasi "10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza medalini (jami 26 ta) qo'lga kiritib, medallar jadvalida 13-o'rindan joy oldi, Osiyoda esa Xitoy va Yaponiyadan keyin uchinchi bo'ldi. Bu — mamlakat tarixidagi eng yaxshi natija"¹². Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari Ko'ksaroyda o'tkazilgan atletlarimiz bilan uchrashuvda Paralimpiya sportiga ta'rif berib, g'olib va sovrindor paralimpiyachilarimizni yuksak e'tirof etdi: "Paralimpiya o'yinlari – bu chinakam iroda, jasorat va matonat, ezgulik va gumanizm namoyishi, desak, to'g'ri bo'ladi. Siz, azmu shijoatli farzandlarimiz g'oyat keskin bellashuvlarda yuksak marralarni egallab, musobaqalarning haqiqiy qahramonlariga aylandingiz... Bir so'z bilan aytganda, sizlar O'zbekiston Paralimpiya harakatining oltin avlodi

¹² [https:// www.gazeta.uz / uz / 2024 / 09 / 09 / sport /](https://www.gazeta.uz/uz/2024/09/09/sport/)

sifatida maydonga chiqib, mamlakatimizga mislsiz ulkan yutuqlar olib keldingiz.”¹³.

Sportda gender tenglik masalasi. Asrlar davomida sport bilan asosan erkaklar shug'ullangan. Ayol atletlarning ishtiroki nazarda tutilmagan. Xotin-qizlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari milliy mentalitetga to'g'ri kelmagan. Vaqt otishi bilan jamiyat taraqqiyoti yo'lida ayollarning sportga jalb qilinishi alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Ular o'rtasidagi bellashuvlar ham asta-sekin tashkillashtirila borildi. To'rt yillikning muhim bahslari gender tenglik ko'rsatkichlarini yaxshilash ustida ish olib borilib, “2024 yili Parijda o'tkazilgan Olimpiada gender tenglikka erishgan ilk Olimpiada sifatida tarixga kirdi. Dunyodagi eng yirik sport musobaqasida teng miqdordagi erkak va ayol sportchilar ishtirok etishdi. Bunda albatta Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, milliy federatsiyalar hamda OAV hamokrlkdagi tashabbuslari mujassam ¹⁴ ligini mutaxassislar ta'kidlashdi.

Sportdagi gender tenglik haqida so'z yuritilganda, o'tgan davr mobaynida faqat xotin-qizlar ishtirok etadigan sport turlarining ham rivojlanganligini ta'kidlash kerak. Bular jumlasiga asosan badiiy gimnastika, sinxron suzish kabi estetik sport turlari kiradi. Ammo o'tgan davr mobaynida bu yo'nalishlarning juftlik chiqishlarida

¹³ <https://kun.uz/kr/news/2024/09/13/ozbekiston-paralimpiya-harakatining-oltin-avlodisiz-shavkat-mirziyoyev>

¹⁴ <https://olympics.com/en/news/paris-2024-first-games-to-achieve-full-gender-parity>

erkak atletning hamkorligi amaliyotga kirib kelgan. Kuch, bardoshlilik kabi jismoniy xususiyatlar qatorida ayollik nafosati, nazokati mujassam bo'lgan badiiy gimnastika hamda sinxron suzishlar sport va san'atning uyg'un ko'rinishi sifatida alohida e'tirofga loyiq bo'lib kelyapti.

So'nggi yillarda yurtimizda ham bu sport turiga qiziquvchilar soni ortib bordi. Xotin - qizlar sportini rivojlantirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan qator normativ hujjatlar imzolanadi. Ayollarning sport bilan shug'ullanishlari jamiyatda xotin-qizlar nufuzini oshirish, gender tenglik borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning bir bo'lagi sifatida e'tirofga sazovor bo'lib kelyapti. Bu ishlarni amalga oshirishda esa, albatta sport jurnalistlarining alohida o'rni borligini ta'kidlash kerak.

Ba'zilar katta sport deganda, professional sportning salbiy oqibatlarini: sportchilarning jarohatlaridan tortib musobaqalarning shou-biznesga aylanib ketganligini nazarda tutadilar. Professional sport ma'lum bir shaxs yoki tadbirkorning pul tikish va undan daromad olish manbayiga aylanganligi, atletlar qo'lga kiritgan imkoniyatlaridan moddiy manfaatlari yo'lida foydalanishlari - sportning noxush jixatlari sifatida ko'riladi. Aslida esa, bu kabi illatlar sport jurnalistikasining yetarlicha rivojlanmaganligi, chuqur tahliliy materiallar tayyorlanmasligi, ma'lumotlar toliq yoritib berilmasligidadir. Demak, bugungi kunda sport jurnalistikasining rivojlanishi -

uning taraqqiyotida paydo bo'ladigan kamchiliklarni bartaraf etish, oldini olishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Sport jurnalistikasining rivojlanish jarayonlari. Sport jurnalistikasi atamasi - "sports journalism" - ingliz tilidan olingan bo'lib, sport mavzusidagi axborotni yig'ish, saqlash, tahlil qilish, dasturlash vazifalarini bajaradigan jurnalistika shakl(tip)i, yo'nalishlaridan biridir. Sport jurnalistika tizimini tashkil etadigan subyektlar quyidagilardir:

- *sport olamidagi voqealarni yaratuvchilari:* sport tashkilotlari, sport harakatining ishtirokchilari, ya'ni sportchilar, murabbiylar, hakamlar va h.k.

- *sport axborotini ishlab chiqaruvchilari:* tahririyatlar, jurnalistlar, ijodkorlar va rahbarlar;

- *sport xabarlarining foydalanuvchilari,* ya'ni, sportga qiziquvchilar, ishqibozlar va muxlislar.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda sport yo'nalishidagi OAV daromad keltiradigan, auditoriyani jalb qilishda siyosiy, ijtimoiy mavzuda butun dunyoga material tayyorlaydigan yetakchi tashkilotlardan qolishmaydi. Ammo doimo ham shunday bo'lmagan. AQSH tarixiga murojaat qilsak. AQSHdagi ilk sport jurnali 1820- yili chop etilgan. 1835- yilgacha 7 tagacha jurnal nashrdan chiqqan. 1835- yilga kelib ularning ikkitasigina faoliyatini davom ettirgan.¹⁵

¹⁵ Мак Чесни Роберт. История спортивной журналистики в США. http://en.wikipedia.org/wiki/Robert_W_Mc_Chesney

O'sha paytlarda aksariyat ziyolilar o'rtasida sport bilan shug'ullanish beobro' mashg'ulot hisoblangan. Ot poygasiga ishqibozlik qilish, zotdor nasllarni yetishtirish yuqori tabaqa kishilariga xos mashg'ulot bo'lib, past tabaqadagi odamlar orasida boks bellashuvlari taraqqalangan. Sport nashrlariga material tayyorlaydigan mualliflar ismlarini yashirgan holda, taxallusda ijod qilishgan. Chunki bu turdagi OAVda ishlash ularning obro'siga putur yetkazishi mumkin edi.

AQSHda 1850- yilga kelib "Spirit of the Times" nashrining adadi 100 000 tagacha yetgan.¹⁶ Jurnal boks sport turini ommalashtirib, kriketni milliy sport turi sifatida yoritmoqchi bo'lgan. Bu g'oya parokandalikka uchragach, beysbol sport turining qoidalari, atamashunosligini tartiblashga kirishdi. 1830-1840 yillarda gazetalar paydo bo'lib, reklamalar ma'lum foyda keltirishi sport jurnalistikasini daromadli sohalardan biriga aylantiradi.

Bu davrda jurnalistika kasb sifatida shakllanmagan edi. Nashrlar sonining oshishi, ishlab chiqarish narxining pasayishi gazetalar bozorining kengayishiga olib keladi. Shunda kamdaromad kishilarga mo'ljallangan "chaqalik matbuot" paydo bo'ldi. Arzon gazetalar asosan boks va ot poygalari haqida yoza boshlaydilar. Nufuzli nashrlar esa, bu paytda sport mavzusi gazeta uchun munosibligi borasida ikkilanishayotgan edilar.

¹⁶ Мак Чесни Роберт. История спортивной журналистики в США. http://en.wikipedia.org/wiki/Robert_W_Mc_Chesney

1840-1870 yillarda gazetalar mavsumiy hamda mintaqaviy tarzda poyga va boks mavzularini yoritishgan.

AQSHdagi fuqarolar urushi beysbolni milliy sport turi sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan. 1869-yilda beysbol bo'yicha birinchi professional liga tuzildi.¹⁷ OAVda sportni yoritish kengaya boshladi. Beysbol bo'yicha natijalar hamda boshqa maxsus statistik ma'lumotlar beriladi. Gazetalar sportchilar salomatligi bilan bog'liq huquqiy mavzularni yoritishni boshlaydilar. OAV sportni sog'lom turmush tarzi garovi sifatida targ'ib qilishga kirishadi.

Amerika jamiyatida sportning obro'si oshib boradi. Matbuot bu paytda sportni madaniy institut sifatida targ'ib etish ustida ishlaydi. 1880-1890 yillarga kelib sportga qiziqish yanada ortib bordi. Tomoshabinlar nazdida beysbol birinchi raqamli yetakchi sport turiga aylandi. Boks bo'yicha bellashuvlar esa, oddiy ko'ngilochar mashg'ulotdan - yaxshi tashkil etilgan professional jang sifatida shakllanadi. Shu bilan birga golf va velosportning ommaviyligi, obro'si oshib bordi. Sport mavzusiga matbuot e'tibori kuchayib, nashrlarga daromadli reklama beruvchilarni jalb qildi.

1883- yilga kelib Pulitser NY Worldda birinchi sport bo'limini ochadi. "New York Journal"da 1895-yilda Xyorst ilk sport ruknini tashkil etadi. Sport jurnalistikasi alohida yo'nalish sifatida ajralib chiqadi. Texnologiyalarning rivojlanishi,

¹⁷ Донской Д. Роль и место спортивной журналистики в системе СМИ США. Дисс. к.ф.н. М. : 2008.

telegrafning paydo bo'lishi sport natijalarini butun mamlakat bo'ylab tezda tarqalishiga yordam beradi. 1880-1890 yillarda sport bo'limlari hamda doimiy ruknlar sportga ommaviy qiziqishni oshirib beradi. Muxlislik qilish uchun shu sport turi bilan shug'ullanish shart bo'lmay qoldi.

XX asrning boshida AQSHda sport jurnalistikasining rivojlanishi davom etib boradi. 1900-1918 yillarda sport jurnalistikasi sohada o'z o'rnini, mavqei borligini isbotlashga erishadi. 1910-yilda barcha gazetalar yirik sport voqealariga katta e'tibor qaratishadi. 1903- yilda beysbol bo'yicha birinchi musobaqalar start oladi. Birinchi jahon urushi paytida sport askarlar o'rtasida ommalashadi.

Tarixda 1920- yillar sport jurnalistikasining oltin davri deb e'tirof etildi. O'sha kezlarda jismoniy tarbiya va sport - ko'ngilochar, vaqtni mazmunli o'tkazuvchi mashg'ulotga aylandi. Tahlil qiladigan bo'lsak, 1880- yilda 0,4% auditoriya sport mavzusiga qiziqqan bo'lsa, 1990- yilda bu ko'rsatkich 4 %ga, 1920- yillarda 12-20% ga yetadi. Sport mavzusini yoritishda jurnalistlar Gratlend Rays, Pol Galliko, Deyman Ranyonning mahorati alohida e'tirofga loyiqdir. Gazetalar sportni targ'ib etish, daromad olish va auditoriyani jalb qilishda tengsiz ekanligini isbotlashadi ¹⁸.

Zamonaviy Olimpiada o'yinlari tiklanganidan keyin sport jurnalistikasining nufuzi butun dunyoda ortib bordi. Bugungi kunda ham, sport

¹⁸ Мак Чесни Роберт. История спортивной журналистики в США
http://en.wikipedia.org/wiki/Robert_W_Mc_Chesney

jurnalistikasida yozgi va qishki Olimpiadalarni yoritish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, futbol, yengil atletika, velosport, figurali uchish, xokkey kabi ommabop sport turlarini yoritishda sport jurnalistlaridan alohida mahorat talab etiladi.

“Sport jurnalistikasi XX asrda o‘z mavqeini tiklab olib, jahonning nufuzli kunlik gazetalari sport mavzusida material berishni boshlaydilar. Italiyadagi “La Gazzetta Dello Sport” gazetasi, Ispaniyani “Marca”, Fransuz “L’Equipe”, AQSH dagi “Sports Illustrated” hamda “Sporting News” bosma nashrlarining yil sayin o‘quvchilar soni ortib bordi. AQSH jurnalistikasi tarixida Jozef Pulitser esa, bosma nashrda sport sahifasini tashkil etgan jurnalist sifatida tarixga kirgan”¹⁹.

Texnika taraqqiyoti sportning rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, radio - tovushning ta’sirchan kuchi orqali sportning yaxshi targ‘ibotchisiga aylanadi. Televizor esa, tomoshabinlarga tezkor yangiliklar va sharhlarni taqdim etib, avvaliga, ularni sport maydonlaridan bir oz uzoqlashtiradi. Chunki odamlar bahs maydonlariga bormay, televizor tomosha qilishni afzal ko‘radigan bo‘lishdi. Masalan, XX asr boshidagi AQSH kollejlardagi radio - futbolni ommalashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga radio orqali efirga uzatilishi boks bahslari ishqibozlari sonining oshishiga olib keladi.

¹⁹ Шарков Ф.И., Силкин В.В., Лайшев Р.А. Спортивная журналистика в системе современной Медиакоммуникации. Коммуникология. 2018.Том 6.№ 4. - С. 60 - 75

1940-1950 yillarda TVning rivojlanishi boks olishuvlarining namoyishi televideniye imkoniyatlari uchun mosligini ko'rsatdi. Ammo kichik klublar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Agar 1952- yilda AQSHda 300 ta klub faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1960-yilga kelib ularning 50 tasigina o'z ishini davom ettirgan. Professional bokschilarning 50% daromadlarini yo'qotishadi. Ekranda sara bokschilar janglarini tomosha qilishni xohlovchilar ko'paya bordi. Shu bois promouterlar boksga mablag' ayamaydilar. Avvaliga basketbol va beysbol ham o'z auditoriyasini yo'qotgan. Lekin yangi moliyaviy imkoniyatlar bu sport turlari rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratadi. Shunday qilib TV ham - radio kabi sportni ommalashtirishga o'z hissasini qo'shadi.

Televideniyeining ixtiro qilinishi sport jurnalistikasi taraqqiyotida muhim qadam bo'lsa-da, XX asr boshida zamonaviy OAV bo'lgan TVdan o'z maqsadlari yo'lida ham foydalanishgan. Germaniyada ommalashayotgan natsistlar o'z g'oyasini keng yoritishda televideniyeini qurol qilishgan. Bunda o'tkazilayotgan nufuzli sport musobaqalarini yoritishga alohida e'tibor qaratishgan. "Ilk sport musobaqalari translyatsiyasi Germaniyada 1935- yil 22 mart kuni bo'lib o'tgan. 1936-yil boshida Qishki Olimpiya o'yinlaridan tayyorlangan hujjatli filmlar Berlinga olib borilib qayta ishlangan. Berlinda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarigacha sport jurnalistikasi barchaning diqqat markazida bo'lgan. 1939-yil 11 avgustda bo'lib o'tgan boks musobaqalarida esa ilk marotaba

ko'chma television stansiya mashinasini ishlatishgan. Bunda Berlin Olimpiadasiga nisbatan tasvir ancha tiniq, ammo sharhlovchi bahsni aniq ko'rolmagani uchun reportaj sifati pastroq bo'lgan. AQShda 1930-yili beysbol matchi, 1949-yili esa Britaniyadagi BBC kanali futbol matchining translyatsiya sharhlarini efirga uzatgan"²⁰.

Keyinchalik sport telejurnalistikasi siyosiy tazyiqlarsiz, auditoriya e'tiboriga tayanib taraqqiy etdi. Katta mediakompaniyalar sport mavzusidagi industriyaga e'tibor qaratishdi. Hozirda faqat sport mavzusini yoritishga ixtisoslashgan "ESPN", "Sky Sports", "Eurosport" kabi telekanallar jahonda mashhur. Qator veb saytlar ham sport yangiliklari, musobaqa natijalari, video va sharhlarni muntazam efirga uzatib borishadi.

1.2. Sport jurnalistikasining vazifalari

Sport jurnalistikasining asosiy vazifasi sifatida - ziddiyatlarni sport maydonida hal qilish orqali dunyoda tinchlikka erishishni belgilash mumkin. Shu bilan birga sport butun dunyoda daromad keltiradigan, o'zini-o'zi moddiy qoplaydigan va biznes bilan chambarchas bog'liq soha ekanligini ta'kidlash kerak.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha: "Sport jahonda katta pul aylanadigan industriyalardan

²⁰ Исаков А. Е, Деговцев Н. Спортивная журналистика Маркетинг, реклама и PR. Август 2022. - С.65

bashinchisidir”²¹. Atletlar musobaqalarda ishtirok etib, natija ko’rsatib moddiy va ma’naviy foyda topadilar. Sport musobaqalari ko’p sonli muxlis va ishqibozlarni jalb qilib, zavqu ulashadigan tomosha hisoblanadi. Bu jarayonda esa, sportni ommalashtiradigan, targ’ib qiladigan, muxlislar sonini ko’paytirishga xizmat qiladigan sport jurnalistikasining alohida o’rni borligini ta’kidlab ko’rsatish mumkin.

Tadqiqotlarga ko’ra, sport xabarlari auditoriyasining 75%ni erkaklar tashkil etadi. Shu bilan birga so’nggi yillari ushbu auditoriyaga ayollarni sportga ko’proq jalb qilish borasida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Auditoriyaning yosh va jinsi kategoriyasiga ko’ra, 14 yoshlilar – 6 %, 15-22 yoshlilar – 20%, 23-35 yoshlilar 23%, 36-55 yoshlilar 35% , 56 va undan katta yoshdagilar 16 %ni tashkil etib, ayollar auditoriyasi asosan 15-35 yoshlilarga to’g’ri kelardi.

Sport jurnalistikasida eskeypizm va hissiy almashuv. Sport odamlarning jismoniy holati barobarida ularning ruhiyatiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Doimiy harakatni talab etuvchi jismoniy tarbiya va sportning psixologik xususiyatlari zamonaviy ruhshunoslarni qiziqtirib qo’ydi. Ana shunday izlanish yo’nalishlaridan biri - sport bilan ruhiy muammolarnining uyg’unligini tadqiq etuvchi eskeypizmdir.

“Eskapizm, eskeypizm ingliz tilidagi escape - “to escape” so’zidan olingan bo’lib, hayotdagi yoqimsiz,

²¹ <https://newrunners.ru/mag/beg-ot-realnosti-chto-takoe-sportivnyj-eskapizm/?ysclid=m4cawacebv600657812>

zerikarli narsalardan, fikrlardan qochish - kundalik voqelikdan o'zga olamga ketish, boshqa faoliyat (san'at, sport, moda) bilan shug'ullanish orqali hal qilinmagan shaxsiy yoki ijtimoiy muammolardan qochish"²² ma'nolarini anglatadi.

Hozirda sport psixologlari eskeypizmni chuqur tadqiq etmoqdalar. Jumladan, "Mazkur mavzu "Psychology of Sport", "The Science of Sport", "Vanity Fair", "Men's Fitness", "Endorphinmag", "Sport Psychology Today" kabi jurnallarda tahlil etilib, ilmiy maqolalar chop etilgan"²³. Sportdagi eskeypizmga qaysidir olimlar ijobiy baho berishgan bo'lsa, bu muammoni chuqurroq tahlil qilganlarning qarashlari kishini o'ygatadi. Jumladan, Adelaida universiteti professori B.N.Davidovichning fikricha: "Yetuklik yoshida odam birdaniga sport bilan shug'ullanishga qattiq berilib ketsa, bu holat uning hal qilinmagan shaxsiy yoki professional muammolari borligidan dalolat beradi. Muammo qanchalik katta bo'lsa, u suzish, yugurishga shunchalik berilib, o'zini ayamay, tinkasi quriguncha mashq qiladi"²⁴.

Professorning ta'kidlashicha, "hayotdan qochganlar" muammolari hal etilmayotganligini o'zlari yaxshi bilishadi. Turmushdagi yoki ishdagi muammolar, qarzdorlik kabi masalalarni sport hal eta olmaydi. Biroq, mutaxassisning fikricha,

²² <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AD%D1%81%D0%BA%D0%B0%D0%BF%D0%B8%D0%B7%D0%BC>

²³ <https://newrunners.ru/mag/beg-ot-realnosti-chto-takoe-sportivnyj-eskapizm/?ysclid=m4cawacebv600657812>

²⁴ <https://newrunners.ru/mag/beg-ot-realnosti-chto-takoe-sportivnyj-eskapizm/?ysclid=m4cawacebv600657812>

odamlarga o'z ustida ishlash, dunyoqarashini o'zgartirishni o'rniga mashg'ulotga borishi osonroq tuyuladi. Shu bilan birga, sportga o'ta qiziqib ketgan auditoriya vakillarida ham, sportga ishqibozlik qilish - qisqa muddatga hayotdagi muamolardan qochishning bir ko'rinishi, ilmiy tilda aytganda, eskeypizm sifatida baholanadi. Havaskor sport bilan shug'ullanib, musobaqalarda qatnashishi, sovrinlarni qo'lga kiritib kasbini o'zgartirganlar ham kam emas.

Tadqiqot so'ngida professor Davidovich tushkun holatda bo'lib, ruhiyati yanada yomonlashgandan ko'ra, jismoniy tarbiya va sport orqali muammolarning yechimini topishga uringanlarning tanlovini ma'qullaydi. Bunda havaskorlar salomatliklarini tiklashlari, sport orqali tanilishlari, kasblarini o'zgartirishga erishishlari mumkin. Ommabop sport turi sifatida jahonda marafon yugurishni misol qilish mumkin. Bugungi kunda jahonda ko'plab yetuklik yoshidagi odamlar yugurish bilan havaskor sifatida shug'ullanib, tanilishgan. Masalan, mashhur yaponiyalik adib, Xaruki Murakami²⁵ nafaqat yozuvchilik qiladi, balki bir necha sport turlari bilan muntazam shug'ullanadi. Uning marafon yugurishlarida ishtiroki muxlislarining alohida e'tiboriga tushgan.

Ho'sh, eskeypizm, ya'ni hayotiy reallikdan qochishning ko'payib borayotganligining sababi nimada? Bugungi shiddatli zamonda odamlar stress holatiga tez-tez tushib qoladilar. Ular kundalik

²⁵ <https://24smi.org/celebrity/5347-kharuki-murakami.html>

qiyinchiliklar, muammolarning yechimini topish uchun bosh qotirib, charchaydilar. Siyosiy yoki iqtisodiy masalalar tahliliga qiziqmay, asosan hajviy, musiqiy yoki sport mavzulariga e'tibor qaratadilar. Bu mavzular o'quvchini zerikarli kundalik voqealaridan chalg'itib, kuchli, aqlli, bilimlilar g'olib bo'ladigan olamga yetaklaydi. O'quvchi sevimli jamoa yoki sportchisiga muxlislik qilib, u bilan birga haqqoniy bahslarda g'olib bo'ladi.

Haqiqiy hayotdan farqli o'laroq, bunda faqat qahramonlarning qo'li baland keladi. U gazetani o'qishni tugatganida bugungi kunga, o'zining bilimi, kuchiga ishonch paydo bo'lganini his qiladi, real hayotga ham bir muncha ko'tarinkilik bilan qaraydi. Kundalik yumushlarini ham ertangi kunga ishonch bilan bajarishga kirishadi. Har bir xatti-harakati bilan bu dunyoni bir qadar bo'lsa-da, ijobiy tarafga o'zgartirishga qodirdek tuyuladi. Mavjud muammolarning hal etilmasligini ruhshunoslar - sportga o'ta mukkasidan ketish, ashaddiy ishqiboz bo'lishlikning salbiy jihati sifatida ko'rsatishadi. Eskeypizmning ijobiy xususiyati deganda tushkunlikdagi odamning ruhiy holati vaqtinchalik bo'lsa-da, yaxshi tomonga o'zgarish tushuniladi. Bunda sportning insondagi hissiy almashuv hodisasini ham namoyon qiladi.

Hissiy almashuvda odamlarning salbiy hissiyotlarining yo'nalishi o'zgaradi. Bu hodisani real emas, deb hisoblash noto'g'ri. Jurnalistikada shaxslarning hissiy almashinuvi mavjud. Sport jurnalistikasi bunda psixologiya, fiziologiya bilan uyg'unlashadi. Odamlarning salbiy hissiyotlari

me'yordan oshib ketsa, ruhiy tushkunlik yuzaga kelishini ko'rish mumkin. Shuning uchun jahl, nafrat, o'zidan qoniqmaslik hissiyotlarini tashqariga chiqaruvchi muqobil yo'llar kishilar uchun juda zarur. Sport haqida so'z yurituvchi OAV odamlarning ana shunday hissiyotlarini tashqariga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Ma'lum vazifalaridan tashqari, sport jurnalistikasi an'anaviy OAVga xos xususiyatlarini ham o'zida jamlagan. Ularga axboriy, tahliliy, publisistik, tarbiyaviy vazifalarini kiritish mumkin.

Sport jurnalistikasining xabar berish vazifasi. U yoki bu sohani batafsil yoritish OAVning maxsus yo'nalishlariga xos. Sport jurnalistikasining xabar berish vazifasi - sport bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni auditoriyaga yetkazishdir. "Sport jurnalistikasi" nomli darslikda mutaxassislar quyidagicha ta'rif berishadi: "Sport jurnalisti musobaqalar yakunini tahlil qiladi, kelgusida bo'ladigan bellashuvlar natijalari, sport turlari qoidalari, xalqaro turnirlarni o'tkazish tartiblari borasida so'z yuritadi. Sport jurnalistlari mavzu atrofidagi ijtimoiy hayot voqealarini ham, jismoniy madaniyatga hamroh bo'lgan sohasini ham namoyish qilishni o'z ichiga oladi. Sport jurnalistikasining texnologiyasi sport musobaqalari va tadbirlari haqida reportajlar yozishni, ommaviy kommunikatsiya kanallari orqali ma'lumotlarni yangilashni o'z ichiga oladi. Sport mavzusi ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklarining ajralmas elementi hisoblanadi. Shuningdek u sportning

madaniy, siyosiy, mafkuraviy va boshqa ahamiyatini aks ettiradi”²⁶.

Sport jurnalistining tayyorlaydigan materiallari atlet va musobaqa natijalari bilan cheklanmay, mavzuga uyg'un bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Sport industriyasi katta sarmoya aylanadigan soha ekan, unga uyg'un yo'nalishlarning ham taraqqiy etayotganligini ta'kidlash mumkin. Sport qoidalari, hakamlik tizimi, sport tibbiyoti, sport psixologiyasi kabi bevosita sportga aloqador mavzular bilan birgalikda sport anjomlarini ishlab chiqarish, sportchilarga xizmat ko'rsatish, shou biznes kabi sohalar ham sport jurnalistlarining e'tiboridan chetda qolmaydi. Sportga aloqador mazkur zamonaviy yo'nalishlar muxlislarining diqqatini tortadi. Sport jurnalistikasining mumtoz vazifasi bo'lgan axborotni topish, saralash, tahlil qilish mutaxassislar diqqat markazidadir.

OAV amaliyotida sport yangiliklari matbuot, radio, televideniye hamda internetda tayyorlanadi. Bugungi kungacha tezkorligi jihatidan internet va radio, tahliliyligi bo'yicha matbuot sport ma'lumotlarini yetkazishda tengsiz bo'lgan. Televideniya zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarilib, amaliyotda qo'llanilishi jonli efirda sport yangiliklarini efirga uzatish qulayligini paydo qildi. Jonli efirda tayyorlanadigan televizion sharhlar tomoshabinlarga sevimli jamoa yoki sportchisiga

²⁶ Спортивная журналистика : учебник / Ф. И. Шарков, В. В. Силкин ; под общ. ред. Ф. И. Шаркова. — М.: Издательско - торговая корпорация «Дашков и К», 2021. —С. 9

muxlislik qilish imkoniyatini berdi. Internetning televideniye, matbuot yoki radio bilan uyg'unligi auditoriyaning sportdan xabardorligini oshirdi. Ijtimoiy tarmoqlarda mavzuga doir axborotlar muxlislar tomonidan muhokama qilish va munosabat bildirish platformasiga aylandi. Bu xususiyatlarni internet saytlari faoliyatida kuzatish mumkin.

O'zbekistonda sport saytlarining rivojlanishini tadqiq etgan E.Boborajabov sport mavzusida xabar berishda tezkorlik, aniqlik, sifat va muxlislarni ko'proq jalb qilish xususiyati muhimligini ta'kidlaydi: "Sayt bu katta platforma bo'lib, unda texnik yutuqlarning barcha jihatlari jam bo'lgan bo'lishi mumkin va bu uning tezkorligiga ham qaysidir ma'noda o'z ta'sirini o'tkazishini unutmaslik kerak. Zamonning talabi esa – tezkorlik. Tez berilgan axborot har doim ham yutuq keltiravermaydi, agar unga qo'shimcha tarzda sifat va aniqlik bo'lsa, ana shunda axborot qimmatli bo'ladi. Saytlar negizida tashkil etilgan sahifa va bloglar sodir bo'lgan yangilik haqida tezkorlik bilan axborot berishadi va axborotning to'liq va sifatli versiyasini saytda qoldirishadi. Aynan mana shu jihatlari bilan saytdagi kuzatuvchilar oqimi uzluksiz tarzda kirib turaveradi, har bir tashrif esa, sayt uchun qimmatli mijoz hisoblanadi"²⁷.

Sport jurnalistikasining tahliliy vazifasi.
Natijani izlash, voqea-hodisalarni obyektiv tahlil

²⁷ Боборажабов Э. Ўзбекистонда спорт сайтларининг пайдо бўлиши ва ривожланиш тенденциялари. Т.: GRAND KONDOR PRINT. 2024 – Б.120

qilish, ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish, kutilayotganlarini oldindan aytib berishga intilish - sport jurnalistikasining tahliliy vazifasini belgilaydi. Sport olamida yildan-yilga natijalar yangilanib, qoidalarga o'zgarishlar kiritiladi. Sportchilarga qo'yiladigan talablar ko'payadi. Shuning uchun sport jurnalistikasi ham takomillashib, murakkablashib boradi. U yoki bu sport sohasining mutaxassisi bo'lgan jurnalist tahliliy material tayyorlash uchun doimo o'z ustida ishlashiga to'g'ri keladi.

Tadqiqotchi E.T.Boborajabov sport jurnalistining tahliliy material tayyorlashini yirik va mayda vazifalarga ajratadi: "Sport jurnalistining asosiy vazifasi, sport olami haqida to'g'ri tasavvur berish, musobaqalarning umumiy manzarasini hosil qilish yoki butun mamlakatning sport hayoti haqida so'z yuritishdir. Va bu vazifalar yana bir necha maxsus vazifalarga ham bo'linadi"²⁸.

Tahlil qilishda jurnalist asosiy, yirik voqealar analizidan - mayda detallarning tahliligacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishi kerak. Analiz jarayonida falsafiy qarashlarda bo'lgani kabi, sport jurnalistikasida baholash, sababini aniqlash, tahmin(prognoz) qilish, mulohazalarini taqdim etish kabi bosqichlar bajariladi. "Jurnalist vaziyatni tahlil qilganida, erishilgan natija yoki mag'lubiyat darajasini baholaydi. Natija sababini aniqlashga harakat qiladi. Sportchi yoki jamoaning kelgusi musobaqalardagi

²⁸ Боборажабов Э. Ўзбекистонда спорт сайтларининг пайдо бўлиши ва ривожланиш тенденциялари. Т.: GRAND KONDOR PRINT. 2024 – Б.120

ko'rsatkichlarini tahmin qiladi. Ba'zan bu borada muxlislarga takliflarini taqdim etadi. Ba'zan esa, bir vaqtning o'zida bu vazifalarni barchasini bajaradi"²⁹. Sport jurnalistikasida ham barcha tahliliy janrlar mavjudligini ta'kidlash kerak. Bu reportaj, suhbat, sharh yoki surishtiruv bo'lishi mumkin. Sport jurnalistikasida ham mumtoz jurnalistika tamoyillarga rioya etiladi.

Sport jurnalistikasining tarbiyaviy vazifasi.

Sportning tarbiyaviy, ma'rifiy va ta'limiy vazifasida sport qadriyatlari mujassamdir. Bugungi kunda ixtisoslashgan jurnalistika ko'rinishlari ichida ta'limiy jurnalistika alohida e'tiborga loyiq. Ta'limiy, ma'rifiy va tarbiyaviy vazifalar sport jurnalistikasida uyg'un holda keladi Sport mavzusidagi intellektual televizion o'yinlar, hujjatli filmlar, bolalar uchun tayyorlanadigan ta'limiy dasturlar va h.k. shular jumlasidandir. Ularda "Nima uchun sport bilan shug'ullanish kerak?", "Sport bilan qanday mashq qilish kerak?", "Mazkur sportning o'ziga xosligi nimada?" kabi savollarga javob beriladi. Ta'limiy dasturlar sportni ommalashtirish, sport bo'yicha savodxonlikni oshirish, sohadagi so'nggi ilmiy yangiliklar haqida ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir. Ta'limiy dasturlar auditoriyasining kengligi, tarbiyaviy xususiyatining ijobiy jihatlari bilan ahamiyatlidir.

Sport jurnalistikasining rekreativ vazifasi.

"Yaponiya telekanallarining sport mavzusidagi ko'rsatuvlari real voqealarni tasvirlaydigan jonli

²⁹ Полосин Л. С. Спортивная журналистика. М., 2009. С. 3—7.

efirdagi yangiliklar dasturi, hujjatli filmlar sifatida ham, ko'ngilochar tok-shoular shaklida ham efirga chiqadi. Musobaqa sharhlari ham axboriy – tahliliy, ham ko'ngilochar yo'nalishlarda tayyorlanishi tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otadi" ³⁰ . Umuman olganda, jahon mediasida jurnalistikaning rekreativ xususiyatidan unumli foydalanishlari kuzatiladi. Bu usuldan foydalanish tomoshabin va muxlislar sonini oshishi, medianing reytingi ko'tarilishi barobarida material tez va oson qabul qilinishida samarali bo'ladi.

Sport jurnalistikasiga rekreativlik begona emas. Bugungi kunda sport jurnalistikasining rekreativligi yoki tarbiyaviyligi borasida turli bahslar olib boriladi. Ba'zi mutaxassislar sport jurnalistikasini auditoriyaning ko'ngilxushligi, vaqtini chog' o'tkazish, kayfiyatni ko'tarish yoki o'ziga xos hobbisi sifatida baholashadi. Ba'zilar esa, sport jurnalistikasining asosiy vazifasi auditoriyani sog'lom turmush tarziga jalb etish, bolalar hamda ayollar sportini rivojlantirish, barkamol avlod tarbiyasining negizi deb tushunishadi. Umuman olganda, bu ikki xususiyat bir-biridan ajralmagan holda, sport jurnalistikasining asosiy vazifalarini tashkil etadi.

Insonning rekreativlikka bo'lgan ehtiyojini A.A.Karimov o'z tadqiqotida quyidagicha ta'riflaydi:

³⁰ Танака Х.Спортивная журналистика Японии: жанровое своеобразие и современные методы медиапроизводства. Труды БГТУ, 2022, серия 4, №1, - С.73 - 77 <https://cyberleninka.ru/article/n/sportivnaya-zhurnalistika-yaponii-zhanrovoe-svoeobrazie-i-sovremennye-metody-mediaproizvodstva/viewer>

“Inson nafaqat o‘zining sarflangan mehnat kuchini tiklashi, balki muayyan ishning, yukning keyingi qismini bajarish, mehnat unumdorligi hamda samaradorligini oshirish uchun, yanada yuqori marra va maqsadlar uchun kurashish, shaxsiy salohiyat va sifatlarni rivojlantirish, o‘zini har tomonlama erkin, bimalol va qulay his qilish, yon-atrofdagilar, muhit va dunyo bilan uyg‘un holatda bo‘lish uchun ham rekreatsiyaga ehtiyoj seziladi”³¹.

Sportga bo‘lgan ehtiyoj inson o‘zini ham jismonan, ham ruhiy jihatdan mo‘tadil his qilishi uchun zarurdir. Oddiy jismoniy mashg‘ulotlar natijasida odamlar o‘zlarini ruhan tetik his qilishadi: asab tizimi me‘yorlashadi, tana kerakli jismoniy yuklamani olgandan keyin modda almashinuvi yaxshilanadi. Sportning o‘zida rekreativlik mujjasam ekan, sport bo‘yicha tayyorlangan media mahsulotda ham shu xususiyat saqlanadi. Sportning rekreativ xususiyati, sport jurnalistikasining vazifalaridan biriga aylangan.

Sport jurnalistikasining kishilar orasida vatanparvarlik ruhini ko‘tarish vazifasi. Sport jurnalistikasi auditoriyani vatanparvarlik ruhida tabiiyalashda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bunda jurnalistning kasbiy mahorati yana bir bor sinovdan o‘tadi. “Vatanparvarlik tuyg‘usi, ayniqsa, futbol sharhida yetakchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, mamlakat terma jamoasi mag‘lubiyatini sharhlash

³¹ Каримов А. А. Рекреативлик – замонавий тележурналистиканинг глобал қонунияти сифатида: миллий ва халқаро тажриба . филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: – 2023. - Б.44

sharhlovchidan katta mahorat talab etadi. Hatto eng sharmandali muvaffaqiyatsizliklardan so'ng ham, sharhlovchi bu mag'lubiyatdan xulosa chiqarish lozimligini uqtira olishi yoki hech bo'lmaganda muxlislari, yurtdoshlariga taskin bera olishi lozim" ³² . 2024 yil Parijda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida muvoffaqiyatli ishtirok etgan atletlarimizni kutib olish marosimidagi odamlarning faolligi, ijtimoiy tarmoqlarda sportchilarni millat qahramonlari sifatida targ'ib etilishi - terma jamoa a'zolarining jahonning nufuzli musobaqadagi g'alabasi xalqning vatanparvarlik ruhini qanchalik ko'tara olishini ko'rsatdi.

Sport jurnalistikasining targ'ibot qilish vazifasi. Sport mavzusida tayyorlangan har qanday material u xoh yangilik, sharh, ko'rsatuv yoki videorolik bo'lsin, avvalambor, sportni targ'ib qilishga xizmat qiladi. Sport qoidalari, o'ziga xosligi, musobaqalar natijalari haqida so'z yuritilgan axboriy material mazkur sport turini targ'ibotiga aylanadi. Bir vatqning o'zida muxlislarni jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishini oshiradi, sportdagi yangiliklar, voqealarga nisbatan ma'lum bir qarashlarni shakllantiradi. Bunda sport voqealariga nisbatan ijtimoiy ongning bir ko'rinishi hamda sport turi yoki sportchining ma'lum bir imidji hosil bo'ladi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha: "Hozirgi sharoitda sport media kommunikatsiyasi jamoatchilik bilan aloqalarning deyarli barcha

³² Нурматов А. Тўхлиева Н. Шарҳлаш журналистикаси. Т.: "BAYOZ". 2013 - Б.76.

sohalarga kirib bormoqda. Sport biznes bo'lishi bilan birga katta mafkuraning tarkibiy qismini ham o'z ichiga oladi. Buni millat obro'si masalasi birinchi o'rinda turgan yirik xalqaro musobaqalar misolida yaqqol ko'rinadi. Iqtisodiy foyda nazardan chetda qolib, mamlakatning haqiqiy sport yutuqlari haqidagi materiallar, uning afzallik va kamchiliklari birinchi o'ringa chiqadi"³³. Ya'ni, mediabiznes qoidalariga ko'ra taraqqiy etib kelayotgan sport jurnalistikasi muhim xalqaro musobaqalar paytida milliy iftixorni uyg'otuvchi targ'ibotchi vazifasini bajaradi.

Parij Olimpiadasidagi dzyudochimiz - taniqli yapon atleti Uta Abening mag'lub qilib, ilk oltin medlni qo'lga kiritgani o'zbek auditoriyasida milliy iftixor tuyg'usini uyg'otdi. Diyora haqida roliklar olindi, she'rlar yozildi, qo'shiqlar kuylanadi. 2024 yil 28 iyulda bo'lib o'tgan oltin medal uchun dzyudo bahsi tarixga muhrlandi. Auditoriyaning o'zbek sportchilariga bo'lgan ishonchi oshdi, qolgan atletlardan yana-da katta zafarlar kutishdi. Mazkur tarixiy voqea sportning targ'ib qiluvchilik vazifasiga yaqqol misoldir.

O'zbek boks murabbiyi qirg'izistonlik atletga sekundantlik qilishi ham, Markaziy Osiy mintaqasidagi qardosh xalqlarning o'zaro hamjihatligi, asrlar osha davom etib kelayotgan ahil qo'shnichilik tuyg'ularining namoyon bo'lishiga xizmat qildi. Ya'ni, sport jurnalistikasining ta'limiy-

³³ Шарков Ф.И., Силкин В.В., Лайшев Р.А. Спортивная журналистика в системе современной медиакommunikации. Коммуникология. 2018.Том 6.№ 4. - С. 60 - 75.

tarbiyaviy vazifasi qatorida targ'ibot qilish mas'uliyatining ham ahamiyatli ekanligini ko'rish mumkin. Sport jurnalistikasi jamiyatda ijtimoiy ongning shakllanishi, sportga oid tushunchalarni ma'lum bir qadriyat sifatida odamlar qarashlarida saqlanishi uchun xizmat qiladi.

1.3. Olimpiya harakati va sohani rivojlanishida tutgan o'rni

Sport va jismoniy madaniyatning ibtidosi. Arxeologik qazilma ishlarning natijalariga ko'ra, eng qadimgi sport turlaridan biri bo'lgan gimnastika Xitoyda miloddan avvalgi 2000-yillarda paydo bo'lgan va rivojlangan. Fir'avn yodgorliklaridagi tasvirlarga ko'ra, suzish, nayza uloqtirish, balandlikka sakrash kabi sport turlari qadimgi Misrda keng ommalashgan. Qadimgi Eronda yakkakurash sport turlari, Hindistonda esa o'yin shaklidagi sport turlari rivojlangan. Figurali uchish konkilarining qadimgi ko'rinishini hozirgi Gollandiya hududida, shaxmat donachalarini esa Hindistondan topishgan.

Harbiy harakatlar, bosqinlar ko'p bo'lgan Osiyo mintaqasidagi davlatlarda yakkakurash sport turlariga ehtiyoj baland bo'lgani bois, ularda taekvondo, karate kabi jangovar sport turlari rivojlangan. Yurtimizda ham kurash milliy qadriyat, jismoniy madaniyat va o'ziga xos sharqona falsafa sifatida taraqqiy etgan. "O'zbekistonda qadimdan sportning milliy turlari – kurash, ko'pkari, kamondan o'q otish, dorbozlik o'yinlari rivojlangan.

Endilikda O'zbekiston jismoniy tarbiya va sporti oddiy jismoniy mashq va o'yinlardan zamonaviy olimpiya sport turlariga qadar yuksak taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi"³⁴.

Jismoniy tarbiya va sport turlarining ibtidosini kuzatar ekanmiz, har birining paydo bo'lishi va rivojlanishi o'sha hududning tabiiy o'ziga xosligi, aholining turmush tarzi va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin. Vaqt o'tib, sport turlari zamonaviylashgan va davr talabiga ko'ra shakllanishda davom eta borgan. Hozirda ham, nufuzli musobaqalarda ma'lum bir sport turi bo'yicha qaysi bir hudud vakillarining ko'proq medallarga ega bo'lishayotganligini kuzatish mumkin. Masalan, yengil atletikaning yugurish sport turida Afrika qit'asining vakillari ko'pincha g'olib va sovrindor bo'lishadi. O'zbekistonlik sportchilar boks va shaxmat musobaqalarida medallarni "yig'ishtirib ketishadi". Buning zahirida sport paydo bo'lib rivojlangan hududning qariyb ming yillar avval shakllangan u yoki bu sport turiga moslashgan fiziologik, intellektual, psixologik o'ziga xoslik yotadi. Hozirda bolalarning sportga bo'lgan qiziqishlarini o'lchaydigan zamonaviy tibbiy uskunalar mavjud. Ya'ni, qadimdan har bir davlatda ma'lum bir sport turlari kundalik ehtiyoj, turmush tarzi, urf-odatlar sifatida keng taraqqiy etgan.

XIX asr o'rtalarida arxeologik topilmalar tufayli Yevropada Qadimgi Yunoniston madaniyatini

³⁴ Каримов А.А. Спорт журналистикасида рекреативлик. – Т.: "ADABIYOT". 2024. –Б. 12

o'rganishga qiziqish paydo bo'ldi. Yunonistondagi qadimgi diniy bayram - "Olimpiya o'yinlari" nomi bilan sport va tinchlik timsoli sifatida avvaliga Yevropada, keyinchalik butun dunyoga tarqalib ketdi.

Olimpiya o'yinlarining tarixi va qayta tiklanishi. Qadimgi Yunonistonda bugungi kungacha saqlanib kelgan bir necha sport turlari mavjud edi. Ba'zi manbalarga ko'ra ular har to'rt yilda bir marotaba Pelopennesning Olimpiya deb nomlangan kichik bir qishlog'ida o'tkazilardi. Boshqa bir manbalarda Olimpiya o'yinlari diniy va sport bayrami sifatida keng miqyosda o'tkazilgan. Ushbu musobaqalarning paydo bo'lishi borasidagi aniq ashyoviy dalil va ma'lumotlar topilmagan bo'lsa-da, ushbu voqea haqida bir necha rivoyatlar bugungi kungacha yetib kelgan. Bayramlar o'tkazilishi haqidagi eng qadimgi hujjatlarda bu tadbir miloddan avvalgi 776 yilda Gerakl tomonidan uyushtirilganligi haqidagi qaydlar bor. Ammo o'yinlar undan ham oldin bo'lganligi bo'yicha ma'lumotlar mavjud.

O'yinlar o'tkazish davrida "muqaddas yarashuv" e'lon qilingan - urush olib borish ta'qiqlangan. Ammo bu qoidaga hamisha ham rioya qilinavermagan. Rimliklar bosqinidan so'ng Olimpiya o'yinlari o'z mazmunini yo'qotadi. Xristian dini qabul qilinganidan keyin sport o'yinlariga "o'zga din marosimi" sifatida baho berilib, imperator Feodosiy I tomonidan milodiy 394-yili ushbu o'yinlarni o'tkazish ta'qiqlangan. Ta'qiqdan keyin ham Olimpiada g'oyasi butunlay yo'q bo'lib

ketmaydi. Masalan, Angliyada XVII asrda Olimpiya musobaqalari va bellashuvlari bir necha bor o'tkazilgan.

Bundan keyin bu kabi bellashuvlar Fransiya, Gretsiyada ham tashkil etilgan, tadbirlar hududiy xarakterga ega bo'lgan. Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining rivojlantirish davri 1859-1880 yillarga to'g'ri keladi. Gretsiyada Olimpiya o'yinlarini tiklash haqidagi g'oya shoir Ponayotis Susosga tegishli bo'lib, uni hayotga jamoat arbobi Yevangelis Zappas tadbiq etgan.³⁵ Arxeologik qazilmalar natijasida 1766-yilda Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan qadimgi inshootlarning qoldiqlari topilgan. 1875- yilda arxeologik izlanishlar olmon mutaxassislari tomonidan davom ettirilgan. O'sha paytlarda Yevropada antik davr haqida romantik-idealistik tushunchalar urf bo'lgan. Olimpiadacha fikrlash hamda uning o'ziga xos madaniyati Yevropa bo'ylab tarqaladi.

"Fransuz baroni Pyer de Kuberten bu borada: "Germaniya qadimgi Olimpiyaga tegishli ashyolarni qazib topganida, nima uchun Fransiya uning avvalgi buyukligini tiklay olmas ekan?"- degan g'oyani olg'a suradi"³⁶ . U 1870-1871 yillardagi frank-prus urushida fransuzlarning mag'lubiyatiga soldatlarning yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega emasligi sabab bo'lgan, degan xulosaga keladi. Bu holatni u - fransuzlarda jismoniy tarbiyani yaxshilash orqali o'zgartirib, tinchlik va hamjihatlikka o'z hissasini qo'shmoqchi bo'ladi.

³⁵ www.olimpic.games

³⁶ www.olimpic.org

Jahon yoshlarini jang maydonlarida emas, balki musobaqalarda bellashishi kerakligi bo'yicha g'oyasini u dunyo hamjamiyati oldida himoya qiladi. 1884 yili 16-23 iyun kunlari Pyer de Kuberten Sorbonnada o'tkazilgan Kongressda o'zining fikrlarini bayon etadi. Kongressning so'nggi kunlari, birinchi Olimpiya o'yinlari uning tarixiy vatani bo'lgan Gretsiyada, aniqrog'i, uning poytaxti Afinada 1896 yili o'tkazishga qaror qilinadi. O'yinlarni o'tkazishni tashkillashtirish uchun Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi -XOQ ta'sis etiladi. Uning birinchi prezidenti etib grek Demetrius Vekelas tayinlanadi. U 1896-yilgacha, ya'ni birinchi Olimpiya o'yinlari yakunlanguniga qadar prezidentlik qiladi. Mas'ul kotib etib Pyer de Kuberten tayinlanadi.³⁷

Birinchi Olimpiya o'yinlari katta muvaffaqiyat bilan o'tkaziladi. Unda o'n to'rtta davlatdan kelgan 241ta atlet qatnashgan bo'lsa-da, bu tadbir Qadimgi Yunoniston davridan buyon o'tkazilgan eng yirik sport bellashuviga aylangan edi. Gretsiyaning mas'ul shaxslari bundan shunchalik mamnun bo'lishadiki, Olimpiya o'yinlari doimo ularning vatanida o'tkazish taklifini berishadi. Lekin XOQ turli davlatlarning haq-huquqlarini himoya qilib, o'yin o'tkazish joyini har to'rt yilda almashtirish qoidasini kiritadi.

Birinchi muvaffaqiyat ketidan birinchi inqiroz ham yuz beradi. 1900 yildagi Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan ikkinchi Olimpiya o'yinlari

³⁷ www.olympic.games

ham, AQSHning Missuri shtatining Sent Luis shahrida uyushtirilgan uchinchi Olimpiya o'yinlari ham, xalqaro ko'rgazmalar bilan birgalikda tashkil qilingani uchun sport musobaqalari oylab davom etib, tomoshabinlarda qiziqish uyg'otmaydi. Sent Luisdagi o'yin ishtirokchilarining aksariyatini amerikalik sportchilar tashkil etardi. Chunki yevropalik sportchilar okean ortidan yetib kelishlari texnik sabablarga ko'ra mushkul edi.

1906- yili Londonda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining nufuzi nihoyatda baland edi. "Jamoatchilikning katta qiziqishi tufayli London gazetalari bu sport musobaqasini yoritishga davrning mashhur adiblarini taklif etishgan. Masalan, «Daily Mail» nashri "Oq shahar" stadionidagi bahslarga Artur Konan Doylni taklif etgan. Poygalarning eng qiziqarli daqiqalari italiyalik atlet Dorando Pyetrining finish chizig'i arafasida yiqilib tushishida bo'lgan. "Sherlok Xolms sarguzashtlari"ning muallifi bosh bo'lgan ijtimoiy kompaniya tufayli diskvalifikatsiyaga uchragan Dorando Pyetri maxsus kumush kubok bilan qirolicha Aleksandra tomonidan mukofotlangan"³⁸.

Sport o'yinlarining nufuzi unga jamoatchilikning e'tiborini ko'proq jalb qilishga zamin hozirladi. Auditoriya qiziqishini oshirish uchun taniqli adiblar ham sport mavzusida qalam tebratishgan. Olimpiya o'yinlarida shakllangan ijtimoiy fikr jurnalistlar tomonidan shakllantirilishini mana shu tarixiy

³⁸ Шарков Ф.И., Силкин В.В., Лайшев Р.А. Спортивная журналистика в системе современной медиакоммуникации Коммуникология. 2018.Том 6.№ 4. - С. 60 - 75

misol orqali ham ko'rishimiz mumkin. Bu an'ana bugungi kungacha ham davom etib kelib, sportning rivojlanishi bilan sport jurnalistikasining taraqqiyoti bir-biriga uzviy bog'liqligiga misol bo'ladi.

Olimpiya o'yinlari ommalashuvida jamoatchilik fikrining ahamiyati yuqoridir. Balki shuning uchun sport sohasining ilk shakllanish davridayoq uning falsafasi zamirida insoniylik g'oyalari mujassam bo'lgan. 1894-yili Parijda o'tkazilgan xalqaro sport anjumanida Olimpiya xartiyasi tomonidan Olimpiya o'yinlarining tamoyillari, qoidalari, tartiblari aniqlashtiriladi. Unda Pyer de Kuberten taklifiga binoan musobaqalarni antik davr qoidalariga ko'ra o'tkazish qaroriga kelingan. Xartiyaga ko'ra Olimpiya o'yinlari "Haqqoniy va teng huquqli musobaqalarda butun dunyo havaskor sportchilarini birlashtirib, mamlakatlar, alohida shaxslarga nisbatan irqiy, diniy yoki siyosiy kamsitilishlarga yo'l qo'yilmaydi"³⁹.

1913-yili Kuberten taklifiga ko'ra XOQ tomonidan qabul qilingan Olimpiya harakatining timsoli, bayrog'i, shiori ta'sis etilgan. Olimpiya o'yinlarining timsoli - dunyoning besh qit'asini anglatuvchi birlashtirilgan beshta xalqalardir. Havo rang xalqa Yevropani, qorasi Afrikani, qizili Amerikani, pastdagi sariq halqa Osiyoni, yashili Avstraliyani belgilab beradi. Shiori - "Citius! Altius! Fortius!" - ya'ni tezroq, balandroq, kuchliroq bo'lishga chorlovchi so'zlaridan iborat. Bayrog'i -

³⁹ www.olympic.games

Olimpiya xalqalari tasviri tushirilgan oq matodir. Bu bayroq 1920-yildan e'tiboran har bir o'yinda ko'tariladi. 1932-yildan boshlab tashkilotchi shahar Olimpiya o'yinlari qishlog'ini – ishtirokchilar uchun yashash joylarini barpo etadi. O'yin tashkilotchilari maxsus o'yinlar timsolini ishlab chiqaradilar. Emblema odatda takrorlanmas dizaynga ega bo'lib, mazkur davlatning o'ziga xosligini belgilab beradi.

Har bir yirik musobaqa, albatta, betakror ochilish va yopilish marosimlari bilan boshqalaridan farqlanib turadi. To'rt yillikning muhim bellashuvlari qatorida jahon chempionatlaridan tortib, qit'a bellashuvlarigacha maxsus tartibda tashkil etilgan tantanalar bilan boshlanib, yakunlanadi. Ssenariynavislar bu tantanalarga o'zgacha tayyorgarlik ko'rib, avvalgi musobaqalardan ham ajralib turishini xohlashadi. Turli davlatlardan kelgan jurnalistlar va media xodimlari mazkur sport tadbirini ommalashtirish, voqealarni tahlil qilish, yangiliklarni tezkor yetkazish ustida tun-u kun ishlashadi. Sportchilar uchun to'rt yillikning muhim bahslarida musobaqalashish qanchalik obro'li bo'lsa, Olimpiya o'yinlarini yoritish sport jurnalistlari uchun shunchalik martabali hisoblanadi.

Olimpiya o'yinlarida faoliyat olib boruvchi jurnalistlar faqat sport tadbirlarining natijalarini tahlil qilmay, balki sportning umuminsoniy, umumbashariy g'oyalarini tarqatishadi. Ular media orqali sportning jismoniy va ruhiy barkamollikka erishish vositasi sifatidagi qiymatini oshirishadi. "Zamonaviy Olimpiada faqat sport tadbiri bo'libgina

qolmay, balki jahon miqyosidagi kommunikativ voqeadir. Unda jahonning ikki yuzdan oshiq davlatlarning ijtimoiy fikri mujassamdir. Har bir Olimpiada - o'ziga xos ijtimoiy madaniyat bo'lib, turli aloqa vositalari hamda OAV orqali ommalashtiriladi"⁴⁰.

Bugungi kunda sport jurnalistikasi asosan havaskor va professional sport, undagi yuqori natijalarni yoritishga mo'ljallanyapti. Chunki ana shunday kutilmagan voqealar va hissiyotlarni junbushga keltiradigan daqiqalarda ko'pchilikning qiziqishi ortadi. Futbol, boks kabi ommaviy sport turlari bo'yicha o'tkazilgan bahslarni tahlil etish barobarida, yozgi va qishki Olimpiadalarning ochilish va yopilish marosimlarini yoritish har bir sport jurnalisti uchun muhimdir.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining ochilish va yopilish tadbirlarini o'tkazish tartibi. Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining taraqqiyoti natijasida sportning mediakommunikatsiyadagi o'rni mustahkamlandi. Bu nufuzli sport tadbiri barcha mediakanallarda namoyish qilinadi. "Olimpiya o'yinlarining fenomeni sport jurnalistikasining rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etdi"⁴¹. Uning ochilish va yopilish marosimlarining translyatsiyasi jahonning barcha medialarida

⁴⁰ Спортивная журналистика : учебник / Ф. И. Шарков, В. В. Силкин ; под общ. ред. Ф. И. Шаркова. — М.: Издательско - торговая корпорация «Дашков и К°», 2021. - С.15

⁴¹ Шарков Ф.И., Силкин В.В., Лайшев Р.А. Спортивная журналистика в системе современной медиакommunikации Коммуникология. 2018.Том 6.№ 4. - С. 60 - 75

namoyish qilinadigan kunning dolzarb mavzusiga aylanadi.

Olimpiya o'yinlarini o'tkazish hududini etib davlat emas, balki shahar belgilanadi. Tashkiliy qo'mita Olimpiada sport turlaridan tashqari XOQ tomonidan tan olinmagan bir-ikki sport turini ko'rgazmali musobaqa sifatida kiritishi mumkin. Musobaqalarning davomiyligi o'n olti - o'n sakkiz kunni tashkil etadi. Ba'zi davlatlarning iqlimiy o'ziga xosligiga ko'ra, o'yinlar faqat yoz oylarida o'tkazilmaydi. Masalan, XXVII yozgi Olimpiya o'yinlari 2000- yili Sidney (Avstraliya)da yoz qishda boshlanishini hisobga olib, sentabr oyida, ya'ni bahorda o'tkazilgan.⁴²

O'yinlarning tantanali ochilish tadbirlari.

Yildan - yilga dunyoning eng yetakchi tadbir ssenariy mualliflari, ommaviy shou tashkilotchilari, maxsus effektlar bo'yicha mutaxassislar mazkur tadbirlarni tashkillashtirish uchun taklif etiladilar. Ko'plab mashhur qo'shiqchi, aktyor taniqli insonlar bu tomoshada ishtirok etishga intilishadi. Musobaqalarning translyatsiyasi tomoshabinlarni jalb qilish bo'yicha rekordlarni yangilaydi. Tashkilotchi mamlakat avvalgi tadbirlarga nisbatan bu safar o'zgacha bo'lishga intiladi, boshqa tashkiloynchilardan o'zib ketishni xohlaydi.

Tadbirlar ssenariysi u boshlanguniga qadar sir saqlanadi. Tantanalar juda ko'p tomoshabinlarni sig'dira oladigan yengil atletikaga mo'ljallangan stadionda o'tkaziladi. Ochilish va yopilish

⁴² www.database.olympics.com

marosimlari shu mamlakat va shahar qiyofasini gavdalandiradigan, uning madaniyati va urf-odatlarini bilan tanishtiradigan teatr tomoshasi bilan boshlanadi. Keyin sportchilar va delegatsiyalarning markaziy stadiona kirib kelishadi. Har bir mamlakatning sportchilari alohida guruh bo'ladilar. Odatda, birinchi bo'lib o'yinlar vatani bo'lgan - Gretsiya davlatining sportchilari saf tortishadi. Qolgan jamoalar musobaqalar o'tkazilayotgan mezbon davlatning alifbosi (Yoki XOQning qabul qilgan fransuz yoki ingliz tillari alifbosi) tartibiga binoan ketma-ketlikda kirib kelishadi.

Oldinda mezbon davlatning vakili o'z tili va XOQ qabul qilgan tilda ishtirokchi davlatning nomi yozilgan taxtachalarni ushlab turadi. Uning ketidan jamoa boshida o'z mamlakatining bayrog'i bilan sportchi keladi. Sportchilar uchun vatanining bayrog'ini ko'tarib, Olimpiya o'yinlarining tadbiriga kirib kelish katta sharaf hisoblanadi. Odatda bu martabaga hurmatga sazovor bo'lgan sportchilar munosib ko'riladi. Ochilish marosimida XOQ prezidenti hamda o'yin o'tkazilayotgan shahar yoki davlatning mas'ul shaxsi nutq so'zlaydi. Nutq so'nggida: "(tartib raqami) Olimpiya o'yinlarini ochiq deb e'lon qilaman", - degan so'zlar aytiladi.⁴³ Shundan keyin mushakbozlik boshlanadi. So'ng o'yinlar vatani bo'lgan Gretsiyaning bayrog'i ko'tarilib, madhiyasi yangraydi.

Biron mashhur sportchi tomonidan haqqoniy bahslar olib borish uchun qasamyod qilinadi.

⁴³ www.olympic.museum.de

Ta'qiqlangan dopingni qabul qilmaslik haqida ham so'z boradi. Bir nechta hakamlar tomonidan haqqoniy hakamlilik qilish haqida qasamyod aytiladi. Olimpiada madhiyasi kuylanib, bayrog'i ko'tariladi. Marosimni Olimpiada mash'alasini yoqish jarayoni yakunlaydi.

Olimpiada mash'alasi Gretsiyaning Olimpiya shahridagi Appolon maqbarasi quyosh nurlaridan alangalatiladi. Qadimgi Gretsiyada - Olimpiya o'yinlarining homiysi Appolon hisoblangan. "Gera ma'budasining rohibasi shunday so'zlar bilan Appolonga iltijo qiladi: "Quyosh va nur g'oyasi ma'budi Appolon! Nurlaringni bizga hadya et va Olimpiya o'yinlariga mezbonlik qiladigan davlatiga,..... shahri uchun muqaddas mash'alani yondirgin!" ⁴⁴ . 2007 yilga qadar Olimpiya mash'alasining estafetasi butun dunyo bo'ylab o'tkazilgan. Endilikda, xavfsizlik nuqtayi nazaridan, u faqat o'yin o'tkaziladigan davlatdan olib o'tiladi. Mash'ala mezbon davlatga samolyotda olib kelinadi. Mezbon davlatda har bir sportchi o'ziga belgilangan estafeta masofasida mash'alani ko'tarib o'tadi. Estafeta jarayoni hamma katta qiziqish uyg'otadi. Uni olib o'tish katta sharaf hisoblanadi. Uning birinchi qismi Gretsiya shaharlarida boshlanib, o'yinlar mezboni bo'lgan shaharda yakun topadi. O'yinlar ochilish marosimi kunida mash'ala shu shaharga olib kelinadi.

Mezbon mamlakatning sportchilari marosim so'ngida uni markaziy stadiongga olib kirishadi.

⁴⁴ www.database.olympics.com

Stadionda mash'ala bir necha marta aylantiriladi hamda uni yoqish sharafiga munosib deb topilgan sportchiga topshiriladi. Bu huquq, ayniqsa, nufuzlidir. Har bir o'yinda Olimpiada mash'alasi uchun maxsus idish tayyorlanadi. Har safar tashkilotchilar yoqish jarayoniga o'ziga xoslik kiritishga harakat qilishadi. U musobaqa jarayonida yondirilib, yopilish marosimida o'chiriladi.

Olimpiya o'yinlarining tantanali yopilish tadbiri. Yopilish marosimida ham teatrlashtirilgan tomosha – musobaqalar bilan xayrlashuv, ishtirokchilar namoyishi, XOQ prezidenti hamda mezbon davlat vakilining nutqlari tinglanadi. Ammo yopilish haqidagi e'lonni XOQ prezidenti aytadi. Madhiya yangraganidan keyin bayroq tushiriladi. Mezbon davlat vakili Olimpiada bayrog'ini XOQ prezidentiga uzatadi, u esa navbatdagi o'yinlarni o'tkazadigan davlat tashkilotchisiga bayroqni topshiradi. Lirik musiqa ohanglarida marosim so'nggida mash'ala so'ndiriladi. Xartiyaga ko'ra, bahslar milliy jamoalararo emas, balki ma'lum bir sportchilar orasida o'tkaziladi. Ammo 1908 -yildan boshlab norasmiy tarzda jamoalar o'rtasida hisob yo'lga qo'yilgan (1-o'rin 7 ochko, 2-o'rin -5 ochko, 3-o'rin 4 ochko va h.k. yettinchi o'ringa qadar).⁴⁵

Olimpiya o'yinlari tarkibiga kiritilgan sport turlari bo'yicha Olimpiada chempioni bo'lish sportchi uchun katta sharaftir. Futbol, beysbol kabi jamoaviy sport o'yinlari bundan mustasno. Ularda jamoalar orasida bahslar olib boriladi. Avvaldan


⁴⁵ www.database olimpics. com

Kuberten Olimpiya o'yinlarini havaskorlar bellashuvi doirasida tashkil etmoqchi bo'lgan. Sport bilan biror manfaatni ko'zlab shug'ullanish havaskorlarga nisbatan adolatsizlik bo'ladi deb hisoblagan. Shu bilan birga ishtirok uchun mablag' olgan, ya'ni bundan manfaatdor bo'lgan mutaxassislar ham musobaqalardan chetlashtirilgan. Asta - sekin Olimpiya o'yinlarida havaskor sportchilarning ishtiroki kamayib borgan. Bugungi kunda Olimpiya o'yinlarida boks hamda futboldan tashqari barcha sport turlarida professional sportchilar bahs olib borishadi.

Olimpiya o'yinlarini o'tkazish jarayonlari. Navbatdagi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish joyi 7 yil avval XOQ sessiyasida aniqlanadi. Bir necha nomzodlar ichida bitta shahar tanlanadi. Tanlov XOQ a'zolarining yopiq ovoz berish jarayonida bo'lib o'tadi. 5 nafar nomzod orasida g'olib shahar ovozlarning kamida yarmiga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Agar birinchi turda g'olib aniqlanmasa, ikkinchi va uchinchi tur tashkil etiladi.

Olimpiya o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilarning ishtiroki va natijalari. Mustaqillik yillarida O'zbekiston sportchilari jahon miqyosida o'zlarining mahoratlarini namoyish qilib kelmoqdalar. O'tgan davr mobaynida ko'plab iste'dod vakillari sportdagi natijalari tufayli yurtimiz shon-shavkatini dunyoga tarannum etdilar. "1994-yildan 2022-yilgacha ajralib turadigan 35 sportchi mavjud. Ular orasida Sidney shahrida boks bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritgan Muhammadqodir Abdullayev ham bor. Bahodir

Jalolov 2020-yili Tokioda boks bo'yicha va Ulug'bek Rashitov taekvondo bo'yicha yozgi Olimpiya o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritdi. Oksana Chusovitina rekordchiga aylandi va Olimpiya o'yinlaridagi sakkiz karra ishtiroki uchun Guinnessning rekordlar kitobiga kiritildi. O'zbekiston delegatsiyasi 1994-2022-yillarda yettita yozgi va sakkizta qishki Olimpiya o'yinlarida qatnashib, 11 oltin, 6 kumush va 20 bronza medalini qo'lga kiritdi"⁴⁶. Respondentlar orasida qaysi atletni o'zbek sportining yulduzi deb bilishlari bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma aksariyat javoblarda bir nechta atletlar tilga olindi. (1- rasm)



1 -rasm. So'rovnoma natijalari aks etgan tasvir.

Bular - Olimpiya o'yinlarida shuhrat qozongan Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'stmatov, Oksana Chusovitina, Diyora Keldiyorova, Ruslan Nuriddinovlardir.

⁴⁶ <https://uz24.uz/uz/articles/olimpiya-7-17>

O'tgan davr mobaynida terma jamoa a'zolari uchun Olimpiya o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritish nufuzli bo'lsa, so'nggi yillari ularning oldiga nafaqat ishtirok etish, balki shohsupaga ko'tarilib, medallarga sazovor bo'lish vazifasi qo'yildi. Shunday qilib, 2016- yili Rio de Janeyroda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston muvoffaqiyatli ishtirok etdi. Unda atletlar to'rtta oltin medalni qo'lga kiritishdi. "Tokio- 2020" olimpiadasida esa, atletlarimiz soni ko'p bo'ldi. 2024- yilda O'zbekiston ayol sportchilarning delegatsiya tarkibidagi soni bilan e'tirof etildi. Parijda o'tkazilgan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlari O'zbekiston sportchilari tomonidan tarixga muhrlandi. "O'zbekiston sport delegatsiyasi o'yinlarni tarixiy natija bilan, 206 mamlakat orasida 13-o'rinda yakunladi. Bu – Osiyo qit'asidagi to'rtinchi, postsovet makoni, islom olami va turkiy dunyo miqyosida esa eng yaxshi natija"⁴⁷.

Olimpiya o'yinlarida sakkizinchi bor qatnashayotgan O'zbekiston uchun mazkur natija tarixdagi ilk yirik natija bo'ldi. 2016-yilgi o'yinlar yakunida umumiy medallar soni o'n uchta bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsak, 2024 yili qo'lga kiritilgan sakkizta oltin, ikkita kumush, uchta bronza medallari o'tgan davr mobaynida

⁴⁷ <https://kun.uz/kr/news/2024/08/11/parij-2024-yakuniy-jadval-ozbekiston-qahramonlari-va-avvalgi-olimpiadalardagi-natijalar>

mamlakatimizda sportga berilayotgan katta e'tiborni namoyon etdi. Olimpiya o'yinlari jarayoniga keng jamoatchilikning diqqat e'tibori jamlandi. Nafaqat rasmiy manbalar, obro'li OAV tomonidan, balki ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ham, atletlar natijalariga munosabalarini bildirishdi. Oddiy auditoriya vakillari tomonidan g'olib va sovrindorlar sharafiga videoroliklar tayyorlandi, qo'shiqlar kuylandi. Bu esa, yurtimizda sportga bo'lgan qiziqishni ortgani, sohaning taraqqiy etayotganligining isbotidir. Sport rivojlansa, tabiiyki, sport jurnalistikasi ham jurnalistikaning ixtisoslashgan bir ko'rinishi sifatida sohada o'z o'rniga ega bo'ladi.

Bobga xulosa sifatida shuni aytilish kerakki, media biznes sharoitidagi yetakchi xususiyat bo'lgan ko'ngilochoch, marketologik jihatdan foyda keltirish xususiyati sport jurnalistikasining taraqqiyotini belgilovchi omildir. Olimpiya harakati, sportning rivojlanishi, odamlarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishi, jismoniy tarbiya, sportning targ'ibotiga qaratilgan davlat dasturlari sport jurnalistikasining taraqqiy etayotgan yo'nalishlardan biriga aylantirmoqda.

O'tgan asrda sport muayyan bir soha, nazariy yo'nalish sifatida tan olindi. Sport tibbiyoti, sport psixologiyasi kabi fanlarining rivojlanishini, sport anjomlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona va tashkilotlarning faoliyati bunga yaqqol

misol bo'la oladi. Bularning bari sportning jamiyatda o'z o'rnini borligini isbotlaydi.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat jismonan sog'lom, balki imkoniyati cheklangan odamlarning sport bilan shug'ullanishi hamda turli musobaqalarda qatnashishlari uchun sharoit yaratildi. Ular Paralimpiya musobaqalarida qatnashib, jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishmoqda.

Sport haqida so'z yurituvchi OAV odamlarning turli xil hissiyotlarini yuzaga chiqarish uchun imkoniyat yaratib, sport jurnalistikasida hissiy almashuv va eskeypizm holatlarini vujudga keltiradi. Shu bilan birga sport jurnalistikasida xabar berish, tahlil qilish, ta'lim- tarbiya berish, targ'ibot va tashviqotni amalga oshirish kabi vazifalar ham mujassamligini ko'rsatadi. Sport va jismoniy madaniyat - har bir xalqning milliy qadriyati, urf-odatlarini ko'rinishi shaklida rivojlangan. Bugungi kunda zamonaviy Olimpiya o'yinlari tarkibidan o'rin olgan ko'pgina sport turlari takomillashib, modernizatsiyalashib kelmoqda.

Olimpiya o'yinlarida faoliyat olib boruvchi jurnalistlar faqat sport tadbirlarining natijalarini tahlil qilmay, balki sportning umuminsoniy, umumbashariy g'oyalarini tarqatib, insonning jismoniy va ruhiy barkamollikka erishish vositasi sifatidagi qiymatini oshirishadi. Yildan-yilga

o'zbekistonlik atletlarning Olimpiya o'yinlaridagi natijalari yaxshilanmoqda. Bu esa mamlakatimizning jahon sportidagi nufuzini oshirmoqda. Sportning taraqqiyoti yurtimizda sport jurnalistikasining rivoji uchun mustahkam zamin hozirlamoqda.

II BOB. MEDIADA SPORT MAVZUSI

2.1. Sportga ixtisoslashgan nashrlar spesifikasi

O'zbekistonda sport yo'nalishidagi nashrlar. Jurnalistikaning mavzu yo'nalishidagi ixtisoslashuvini o'rganish - ayni paytda auditoriyaning qiziqishlari, media biznesning rivojlanishi hamda OAV demokratlashuvi nuqtayi nazarida nihoyatda muhimdir. Sport jurnalistikasi nisbatan yangi va chuqur ilmiy tahlil qilinmagan sohalardan biri hisoblanadi.

Sport mavzusidagi badiiy - publisistik asarlar o'z muxlislariga egadir. Bunda tajribali sharhlovchi, jurnalist va murabbiy Axbor Imomxo'jayevning «Futbol- quvonchim, dardim, faxrim», «Maftuningman, futbol!», «O'zbekibeginning Mirjaloli»⁴⁸ kabi kitoblarini tilga olish mumkin. Bu risolalarda futbol sportiga oid nodir ma'lumotlar, o'ziga xos kuzatuv va xotiralar jamlangan.

Shu bilan birga, shaxmatga oid materiallarni tajribali jurnalist Husan Karvonli qalamiga mansub «O'zbek shaxmatining oltin avlodi»⁴⁹ kitobida ham o'qish mumkin. Unda shaxmat bo'yicha o'smirlar va jahon chempionlari Nodirbek Abdusattorov, Nodirbek Yoqubboyev, Javohir Sindorov, Shamsiddin Vohidovlarning natijalari borasida so'z

⁴⁸ Имомхўжаев А. Футбол - қувончим, дардим, фаҳрим. Т.: «Шарқ» 1996; Имомхўжаев А. Мафтунингман футбол. Т.: «Шарқ» 2004; Имомхўжаев А. Ўзбегимнинг Миржалоли. Т.: «Шарқ» 2006.

⁴⁹ Karvonli Husan. O'zbek shaxmatining oltin avlodi - T.: «Akademnashr», 2022. - B. 80

yuritilgan. Unda ma'lum bir sportchilar faoliyati qamrab olingan bo'lsa-da, ularning yutuqlar orqali o'quvchilarni shaxmatga bo'lgan qiziqiqshini oshirishi, sportni ommalashtirishi hamda sportchilarimiz bilan faxrlanishni o'rgatishi bilan ahamiyatlidir.

Sportga ixtisoslashgan ilmiy nazariy jurnallarda soha mutaxassislariga mo'ljallangan ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar bo'yicha tahliliy materiallar beriladi. Bunday jurnallar tili ilmiy uslubda bo'lib, tor auditoriya uchun mo'ljallanadi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti tomonidan chop etiladigan "Sportda ilmiy tadqiqotlar" (1-ilova) ilmiy-nazariy jurnali ana shunday nashrlardan biridir. Jurnal mundarijasida maqolalar sport mashg'ulotlari: texnika, taktika va uslubiyat rukni ostida o'zbek, rus, ingliz tillarida chop etilishini ko'rish mumkin.

Sportga ixtisoslashgan ommabop jurnallar. Jahonda siyosiy, iqtisodiy yo'nalishdagi ommabop jurnallar kabi sportga ixtisoslashgan jurnallar ham taraqqiy etib kelmoqda. Ular tarmoq sohalar qatorida ma'lum bir sport yo'nalishlari targ'ibotiga bag'ishlanib chop etiladi. Ana shunday jurnallardan biri "Running"⁵⁰ (2-ilova) nomli Italiyada chop etiladigan nashridir. Jurnalning rasmiy veb saytidan tashqari, facebook va instagramm kabi ijtimoiy tarmoqlarda ham o'z sahifasi mavjud. Nashr obuna asosida tarqatiladi. Jurnalda faqat yugurish sportiga oid xabar va yangiliklar, tahliliy materiallar berib

⁵⁰ [https:// runningmag.sport - press.it /](https://runningmag.sport-press.it/)

boriladi. Shuningdek, unda yugurish bilan shug'ullanuvchilarga mo'ljallangan maxsus libos va oyoq kiyimlar ishlab chiqaruvchi brendlar reklamasi qilinadi. Sohaga doir ishlab chiqaruvchi korxonalar jurnalga homiylik qilishadi. Yugurish qadimgi Yunoniston davridan beri ommalashib kelayotgan eng xavfsiz sport turlaridan biri bo'lgani uchun jahonda nihoyatda keng tarqalgan. Maxsus sport zallari, anjomlar va sheriklar bo'lishini talab etmaydigan yugurish o'zining hammabopligi bilan diqqatga sazovordir. Sog'lom turmush tarzi garovi bo'lgan yugurishga bag'ishlangan oylik jurnalning mavjudligi ham, bu sport turi Yevropa davlatlarida qanchalik taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

Sport nashrlarida sport mavzusidagi yangiliklar, tahlillar, intervyular chop etiladi. Ular muxlislar, atletlar va mutaxassislar uchun mo'ljallanadi. Ijtimoiy yo'nalishdagi gazetalarda til va uslub rasmiy yo'nalishga yaqin bo'lsa, sport mavzusidagi maqolalar hissiyotli, ta'sirchan tayyorlanganligi bilan ajralib turadi. Sport gazetalardagi materallar obyektiv, tahliliy va aniq berilsa-da, ular orasida ba'zan subyektivlik, u yoki bu jamoaga yon bosish holatlari ham uchraydi. Bunday vaziyatlar sport jurnalistikasida keskin qoralanmaydi. Sportchi va jamoalarinng g'alabalari, muvaffaqiyatlari xushxabar shaklida berilishi odatiy holga aylangan.

Sport nashrlarida vizualizatsiyaga katta e'tibor beriladi. Dinamik va ta'sirchan fotosuratlar, illyustratsiyalar berilayotgan ma'lumotlarni ta'sirchanligini oshiradi, matndagi ma'lumotlarning

qo'shimcha axboriy komponenti sifatida ham, alohida vizual kontent sifatida ham ahamiyatga ega bo'ladi. Real voqealardan suratga olingan fotojamlanmalar u yoki bu voqeani arxivlashtiradi va o'zining hissiy- emotsional bo'yog'i bilan ajralib turadi. Sport nashrlarda reklamaga katta o'rin beriladi. Homiy va reklamalar nashrlarni moliyaviy jihatdan qo'llab -quvvatlaydi, gazetalarning hayotiyiligini ta'minlaydi. Reklamalar ma'lum bir brendlarni ommalashtiradi, o'quvchilarga tanishtiradi.

Shu o'rinda onlayn va bosma nashrlarning o'ziga xosligi bo'yicha mulohazalarni keltirsak. Onlayn nashrlar bosmaga nisbatan tezkorligi, multimediamiyligi, ya'ni audio, video, grafik shaklda material berish hamda interaktiv qulayliklarni taqdim eta olishi bilan zamonaviy o'quvchini o'ziga jalb qiladi va arzonligi bilan muxlislarga qulay hisoblanadi. Bosma nashrlarda esa, yangiliklar, tahlillar, intervyu va fotosuratlar, mavzu doirasida kengroq ma'lumot bera olishi bilan ahamiyatlidir. Qog'oz shaklidadagi bosma nashrlarda o'quvchi va gazeta bilan taktil muloqot o'rnatiladi: uni varaqlash, ushlash, o'zi bilan olib yurish, kimgadir o'qish uchun berish kabi xususiyatlar - axborotga bo'lgan psixologik munosabatlarni shakllantiradi. Bu kitob o'qish va gazeta mutolaasining o'ziga xos ijobiy jihatidir. Kelajakda tahririyatlar konvergentlashib, gazetalar ham bosma, ham multimediamiy shaklda axborot uzata olishlari zamonaviy sport gazetalarining kelajagini yorqin deb hisoblashga asos bo'ladi.

Sport mavzusiga ixtisoslashgan gazetalar.

Sportga oid so'nggi yangiliklar, ma'lumotlar va tahlillarni muxlislar e'tiboriga havola qiladigan markaziy nashrlardan biri "Sport" o'zbek tilida va "Sport+futbol" rus tillaridagi gazetalaridir. 1932-yildan buyon chiqib kelgan "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetasining davomchisi bo'lgan bu nashrlar A3 bichimida, 2 taboq hajmda haftada bir marotaba muxlislar e'tiboriga havola qilindi. Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axborot yo'nalishidagi ushbu gazeta sportga qiziquvchi auditoriyaga mo'ljallangan. Unda yurtimizda futbol yo'nalishida olib borilayotgan davlat siyosatini, futbolni rivojlantirish, sohadadagi islohotlarni qo'llab quvvatlash, gazetxonlarning intellektual saviyasini oshirish uchun turli tahliliy maqola va materiallar, axborotlar, intervyular, suhbatlar, shuningdek, chet el futbol hamda mashhur o'zbek futboli yulduzlari hayotiga dahldor mavzulardagi maqolalar chop etiladi.

Tahririyatda o'z davrida Safar Ostonsov, Asror Mo'minov, Axbor Imomxo'jayev, Abror Imomxo'jayev, Haydar Akbarov, Shavkat Isroilov, Zulfiya Mo'minova, Komil Jumayev, Normurod Musomov, Hamroxon Musulmonova, Musulmon Elmurodov, Ikrom Qurbonaliyev, Shuhrat Armon, Zarif Xidirov, Tatyana Kistanova, Sergey Gapich, Grigoriy Rtveladze, Fazliddin Sattorov kabi tajribali jurnalistlar faoliyat yuritishgan. Gazeta ruknlarining ixtisoslashuvi auditoriyaning qamrovi va ishqibozlarning qiziqishlariga ko'ra taqsimlanganligini ko'rsatadi. Masalan, dzyudo

ishqibozlari mavzuga doir yangiliklarni darrov topib o'qishlari, bu va boshqa ma'lumotlar ayni damda qaysi ruknda chop etilganligini bilishlari mumkin. Gazetaning birinchi betida sport olamidagi muhim voqea tafsilotiga bag'ishlangan fotosurat berilishi ham, auditoriyani ushbu gazetada yoritilgan mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Ruknlardagi mavzu yoritilishida turli jurnalistik janrlardan foydalanganlikni ko'rish mumkin. Bu yerda qisqa xabarlardan tortib, tahliliy reportajlar, qiziqarli suhbatlar ham toppish mumkin. "Sport" gazetasining o'ziga xos jihati shundan iboratki, bunda yurtimiz sportiga oid so'nggi ma'lumotlardan tortib, jahon arenalaridagi natijalar haqidagi qiziqarli ma'lumotlar ham berib beriladi. U yoki bu sport turiga qiziqqan o'quvchi Olimpiya o'yinlari qatoridan joy olgan barcha sport turlariga oid yangiliklar haqidagi batafsil materiallardan boxabar bo'la oladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sport matbuotining rivojlanishiga bu yo'nalishda raqobatni kuchayishi, yangidan-yangi gazetalarning ko'payishi ham sabab bo'lmoqda. Raqobat maydonida o'ziga xos o'rniga va auditoriyasiga ega bo'lish uchun gazetalarning har biri o'z yo'nalishga ega bo'lishga harakat qilishmoqda.

Nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda ham futbol eng ommaviy sport turlari qatoriga kiritilgan. Muxlislar e'tiborini qozonishda ham, futbolga teng keladigan sport turlari kam. Balki shuning uchun ham futbol sportiga oid bir nechta gazetalar

o'quvchilar e'tiboriga havola qilindi. 1993-yildan Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorining 6-bandiga asosan "Sport" gazetasi qoshida "O'zbekiston futboli" gazetasi A-3 formatida, 2-bosma taboqda chop etila boshlagan. 2001- yildan beri "Inter futbol media" MCHJ hamda "Olmazor-Koson" XKK muassisligida A-4 formatida haftada ikki marotaba chop etiladigan "Inter futbol" gazetasi millionlar o'yini muxlislariga taqdim etilib kelinmoqda. Unda o'zbek va jahon futboli olamidagi yangiliklar, mavzuga oid qiziqarli suhbatlar, tahliliy materiallar chop etilib, turli xil sovrinli viktorinalar keltirib o'tildigan sport gazetasi hisoblanadi.

Sport mavzusidagi yana bir nashr "Stadion" gazetasidir. Unda sport mavzusidagi yangiliklar, intervyular, sharhlar, musobaqa natijalari, tahliliy materiallar berib boriladi. Gazetada sport bilan bog'liq voqealarni yoritish, milliy va xalqaro miqyosdagi sport musobaqalari, tadbirlari, atletlar hayoti va ularning muvaffaqiylari borasida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Xorijdagi sport nashrlari. Xorijda ham sportga ixtisoslashgan gazetalari keng taraqqiy etmoqda. Ulardan biri Turkiyada nashr qilinadigan "Sabax spor" gazetasidir ⁵¹ . (3-ilova) Mazkur nashr konvergent shaklda muxlislarga sportga oid so'nggi xabar va tahlillarni taqdim etadi. Uning internet sayti qatorida ijtimoiy tarmoqlarda ham o'zining sahifalari mavjud. Gazeta asosan materiallarni turk

⁵¹ [https:// www.sabah.com.tr / spor](https://www.sabah.com.tr/spor) -
haberleri?ysclid=m4r65l8s8p956559763

tilida chop etadi. Internet tarmog'ida uning boshqa tildagi tarjimasidan ham foydalanish mumkin. Ertalabki sport xabarlarini mazmunidagi gazeta mutaxassislar qatorida sport shinalar uchun mo'ljallangan keng qamrovli materiallarni taqdim etadi. Materiallar rangli illyustatsiyalar bilan bezatilib, o'quvchilarni o'ziga jalb qilishi bilan ahamiyatlidir. Mahalliy hamda jahon sporti yangiliklarini qiziqarli shaklda taqdim etishi bilan u mazkur nashr muxlislarning diqqatiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Butun dunyoga mashhur bo'lgan, taniqli sport nashrlardan biri "L'Équipe"dir. (4-ilova) U Fransiyaning kunlik sportga ixtisoslashgan milliy gazetasidir. "Jamoat" degan ma'noni anglatuvchi "L'Équipe" gazetasi futbol, regbi, avtosport va velosportni yoritadi. Ilk soni 1946- yilda nashr etilib, uning nomi "L'Auto" bo'lib,⁵² o'sha paytlarda avtosportni ommalashtirishga qaratilgandi. O'tgan davr mobaynida gazeta ommalashib, tiraji oshib boradi. Gazetaning 1998-yilning 1-iyuldagi soni Fransiya futbol bo'yicha terma jamoasi jahon chempionatida g'olib bo'lganida 1,645,907 nusxada, 2000-yilning 3-iyulida Yevropa chempionatida g'olib bo'lganida 1,255,633 nusxada sotiladi. Bugungi kunda "L'Équipe" gazetasi rangli fotosuratlar joylashgan sahifalari, qiziqarli materiallari bilan muxlislar e'tiborini o'ziga qaratib kelmoqda. Zamonaviy gazeta konvergent tahririyat shaklida faoliyat ko'rsatadi. Uning "L'Équipe" veb

⁵² <https://ru.wikipedia.org/wiki/L'Équipe>

saytida eng so'nggi yangiliklar, podkastlar va videomateriallar taqdim etilgan. 1998-yildan e'tiboran gazetada o'zining "L'ÉquipeTV" nomli telekanali ham mavjud.

Jahonga mashhur sport nashrlaridan yana biri Ispaniyadagi "Marca" gazetasidir. Mazkur gazeta 1938 yili Ispaniyada fuqarolar urushi paytida tashkil etilgan. Gazeta asosan futbolni, xususan "Real Madrid", "FC Barcelona" va "Atletico Madrid" jamoalariga oid yangiliklarni yoritadi. Nashrning kundalik auditoriyasi 2,5 milliondan oshadi va Ispaniyadagi gazetalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich hisobalandi⁵³. 2007-yilda bu ko'rsatkich Ispaniyaning umumiy sport auditoriyasining yarmidan ko'pini tashkil etgan. 2001-yildan e'tiboran 24 soatlik "Radio Marca" sport radiostansiyasi faoliyat yurita boshladi. 2004-yilda gazetaning dizayni "Dunyoning eng yaxshi gazeta dizayni" mukofotiga sazovor bo'lgan.

Yaponiyaning zamonaviy axborot makonida Olimpiya o'yinlarini yoritishga katta ahamiyat beriladi. Unda milliy terma jamoa natijalarini tahliliga asosiy e'tibor qaratiladi. 2021-yili Tokio Olimpiya o'yinlarining rasmiy homiylaridan bo'lgan "Yomiuri simbun", "Asaxi simbun" va "Mayniti simbun" kabi yirik markaziy gazetolari sahifalari mazkur tadbir tafsilotlariga bag'ishlangan. Ularda ma'lumotlar informatsion, tahliliy va badiiy-publisistik janrlarda tayyorlanadi.

⁵³ [https://www.marca.com/resultados.html?intcmp=TABAGEN01 & s_kw=resultados&date=17-12-2024](https://www.marca.com/resultados.html?intcmp=TABAGEN01&s_kw=resultados&date=17-12-2024)

Yaponiya media olamidagi o'ziga xosligiga ko'ra: "Yaponiyada faqat sport jurnalistlariga yangiliklarni tayyorlashda subyektivlikka yo'l qo'yishlari hamda shaxsiy taasurotlarini ifoda etishlariga ruxsat berilgan"⁵⁴. Yirik sport tadbirlari haqida yozayotganda, jurnalistlar terma jamoa natijalarini yoritishda vatanparvarlik tuyg'ularini namoyish qilishlari, har bir sportchini milliy qahramon darajasiga ko'tarishlari kuzatiladi. Markaziy nashrlar asosan umummiy sport turlari bo'lgan beysbol, futbol, suzish, yugurish va figurali uchish kabi sport turlariga oid xabarlarini joylashtirishadi.

Xorijdagi sport nashrlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirda ommaviylashgan aksar sport yo'nalishidagi gazetalar o'tgan asrning birinchi yarmida shakllanib, taraqqiy etgan. Ular o'sha hududda ommalashgan sport turlarini muntazam yoritishga qaratilgan. Aksar nashrlar vaqt o'tishi bilan konvergentlashgan. Hozirda xorijiy sport nashrlarining aksariyatining internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifalari mavjud. Ba'zilarining radiokanali va telekanali ham faoliyat yuritmoqda. Ahamiyatlisi, konvergent tahririyatlar gazeta brendini davom ettirib, bir nom ostida ham gazeta, ham veb sahifa, ham radio va telekanallarda media mahsulot tayyorlamoqda. Ma'lum bir sport turiga ixtisoslashgan jurnallarning oylik nashri

⁵⁴ Танака Х. Спортивная журналистика Японии: жанровое своеобразие и современные методы медиапроизводства. Труды БГТУ, 2022, серия 4, №1, С.73 - 77 <https://cyberleninka.ru/article/n/sportivnaya-zhurnalistika-yaponii-zhanrovoe-svoeobrazie-i-sovremennye-metody-mediaproizvodstva/viewer>

mavjudligi xorijiy jurnallarning mediabiznes sharoitiga to'la moslashib, media olamda o'z o'rnilariga ega bo'lganliklaridan dalolat beradi. Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, sport nashrlari zamonaviy OAV sifatida o'z o'rniga va auditoriyasiga ega bo'lgan jurnalistika yo'nalishidir. Yurtimizdagi sport nashrlar ham xorijiy tajribani amaliyotga tadbiq etishlari - mamlakatimizdagi sport nashrlarining taraqqiyotini belgilab berishgan bo'lardi.

Mamlakatimizdagi markaziy nashrlarda sport mavzusi. O'zbekistondagi markaziy nashrlarda ham muntazam ravishda sportga oid maqolalar tayyorlanadi. Ularda muhim sport tadbirlari, musobaqa natijalari yoritib boriladi. OAVda sport xabarlari muhim o'rin tutadi. Aksariyat kunlik gazetalarda sport bo'limi alohida rukn uchun materiallar tayyorlashadi. Sport yangiliklarini gazetaning oxirgi sahifalarida joylashtirish muxlis, kerakli sport axborotlarni sahifalarni varaqlamay turib, gazetaning so'nggi sahifasiga o'girib o'qish uchun qulay imkoniyatdir. Boshqa mavzulardagi maqolalar qatorida sport mavzusining tahlil qilinishi ushbu mavzuga qiziquvchilar sonining ortishiga xizmat qiladi.

Yirik markaziy nashrlardan biri bo'lgan «Xalq so'zi» gazetasining so'nggi betida sport mavzusidagi ma'lumotlar o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi. Sportga ixtisoslashmagan nashrlarda mavzu yoritilish ko'lamining qoniqarililigini, xalqaro arenalardagi sportchilarimiz erishgan natijalarga ko'ra muntazamligini aytish kerak.

Markaziy nashrlar qatorida hududiy-ixtisoslashgan gazetalarda ham sport mavzusidagi materiallar chop etiladi. Umuman olganda, sportga ixtisoslashmagan markaziy hamda hududiy gazetalarda mazkur mavzuda asosan xabar, reportaj janrida axborot-publisistik yo'nalishda katta bo'lmagan hajmda material tayyorlanishi kuzatiladi. Mavzu chuqur tahlil qilinmaydi. Sport sohasiga oid atamalar ham kamroq kuzatiladi. O'quvchilar u yoki bu mavzuga doir ma'lumotlarni bilib oladilar, xolos. Bu esa, keng qamrovli auditoriyaga taqdim etiladigan gazetalarda sport mavzusidagi chuqur tahliliy materiallar kamroqligidan dalolat beradi. To'g'ri, sportga qiziqqan o'quvchi o'ziga kerakli ma'lumotlarni sport mavzusiga ixtisoslashgan nashrlardan topishi mumkin. Ammo aholini jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan qator ijobiy ishlarni ommalashtirish hamda auditoriya e'tiborini ushbu mavzuga qaratish uchun bu yetarli emas. Markaziy hamda hududiy nashrlarda sport mavzusida muntazam materiallar shu soha mutaxassislari tomonidan tayyorlansa, sportni ommalashtirish borasida qo'yilgan muhim qadam bo'lar edi.

Sportning ijtimoiy ahamiyati yuqoriligini targ'ib qiluvchi nashrlarda mazkur mavzu badiiy, ma'rifiy, tahliliy yo'nalishda tayyorlanadi. Unda professional sportchilar natijalariga emas, balki jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtiruvchi ahamiyatiga urg'u beriladi. Masalan 2007- yildan beri chop etilayotgan "Sog'lom avlod" ma'naviy-ijtimoiy, tibbiy-ma'rifiy

haftanomasi ana shunday materiallar tayyorlaydigan nashrlardan biridir.

Sport mavzusidagi internet saytlari borasida soʻz ketganda, avvalambor, sport sohasidagi mutasaddi tashkilotlarning rasmiy saytlarini tilga olish zarur. Masalan, Oʻzbekiston Milliy Olimpiya qoʻmitasining rasmiy veb sayti <https://www.olympic.uz> da yurtimiz sport olamidagi eng soʻnggi rasmiy maʼlumotlar, hukumat qarorlari, atletlar faoliyatiga oid soʻnggi va aniq maʼlumotlar berib boriladi. Shu bilan birga har bir federatsiya va assosiatsiyalarning oʻz veb saytlari mavjud.

Maxsus sport mavzusidagi internet saytlari ham mavzuga doir soʻnggi maʼlumotlarni chop etib borishadi. Ularga <https://www.sports.uz>, <https://www.tribuna.uz>, kabi saytlarni misol qilib keltirish mumkin. Maʼlum bir sport turiga ixtisoslashgan bosma nashrlar boʻlganidek, bitta sportga ixtisoslashgan internet saytlari ham mavjud. Masalan, asosan futbol mavzusida soʻz yuritadigan <https://www.championat.asia> sayti ana shunlar jumlasidan.

Shuningdek, markaziy axborot agentliklari hamda internet saytlarida ham mavsumiy doirada sportga oid axboriy materiallar tayyorlanadi. Masalan, Oʻzbekiston milliy axborot agentligining sport boʻlimida tayyorlanadigan sport xabarlarini <https://www.uza.uz> manzilida oʻzbek sportining qiziqarli maʼlumotlar hamda sohaga oid rasmiy xabarlar berib boriladi. <https://Kun.uz> saytining

sport bo'limi tomonidan xalqaro va o'zbek sporti yangiliklari tayyorlanib, nashr qilinadi.

O'zbekistonda sport saytlarini paydo bo'lishi va rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotda Ergash Boborajabov quyidagi tavsifni beradi: "Tadqiqotimiz davomida O'zbekistonda sport saytlarining paydo bo'lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanish tendensiyalari asosan 3 bosqichda amalga oshgani o'rganildi. Birinchi bosqich – turli saytlarning sport sahifalarini yuritish va mustaqil sport saytlarining paydo bo'lishi (2010-yilgacha bo'lgan davr), ikkinchi bosqich – auditoriya talablaridan kelib chiqqan holda ijtimoiylashuv va konvergensiya jarayoni (2011–2020-yillar), uchinchi bosqich – yangi media muhitda sport saytlarining rivojlanish tendensiyalari (2021-yildan keyingi davr)" ⁵⁵. Shuningdek, tadqiqot doirasida sport saytlarining taraqqiyotidagi asosiy muammolar batafsil tahlilga tortiladi va quyidagi xulosalarga kelinadi: "O'zbek milliy internet segmentida paydo bo'lgan sport saytlarining ijtimoiylashuvi va konvergensiya jarayonlarining evolyutsion tarzda singdirilishi sohaning rivojlanish tendensiyalarini yangi formatlarda ommalashishini belgilab berdi. Biroq UZ domenidagi sport saytlari moddiy-texnik imkoniyatlarining yetishmasligi, saytlar muharririyatning ilg'or texnik imkoniyatlarni joriy etishdagi sustkashligi rivojlanish tendensiyalarini ortga surib

⁵⁵ Boborajabov E.T. "O'zbekistonda sport saytlari: paydo bo'lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanish tendensiyalari" Fil. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss..T.: 2024. - B. 137

kelmoqda”⁵⁶. Mazkur kamchiliklar yurtimiz sport jurnalistikasi taraqqiyoti natijasida o‘z yechimini topishiga umid qilamiz. Chunki axborot texnologiyalarning rivojisiz zamonaviy sport jurnalistikasi ertangi kunini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat ko‘rsatuvchi qator sportga ixtisoslashgan internet saytlari ham o‘zining rivojlanish yo‘lida davom etmoqda. Tojikistonda “asiaplustj.info”, Qirg‘izistonda “sport.akipress”, “sport.kg”, Qozog‘istonda esa “tengrisport.kz” kabi internet saytlari ularga misol bo‘la oladi. Mazkur saytlar zamonaviy dizayni, ma’lumotlarni tezkor yangilanib turishi, video, audio materillarning muntazam berilishi bilan diqqatga sazovor. Ham milliy, ham xalqaro miqyosdagi sport materiallarining doimiy chop etilishi mintaqada sport sohasi taraqqiy etayotganligidan dalolat beradi.

Muxtasar qilib aytganda, shuni ta’kidlash kerakki, tahlil natijalariga ko‘ra yurtimizda sport nashrlari va internet saytlari rivojlanib kelmoqda. Yetakchi sport natijalari bilan birga jismoniy tarbiyaning ahamiyati mavzusi ham auditoriyaga taqdim etilmoqda. Bularning bari yurtimizda sportni ommalashtirishda nashrlarning o‘ziga xos o‘rni borligidan, bosma va elektron nashrlarda ham bu mavzuning berilishi o‘zining amaliy ahamiyatini yo‘qotmaganidan dalolat beradi. Mustaqil

⁵⁶ Boborajabov E.T. “O‘zbekistonda sport saytlari: paydo bo‘lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanish tendensiyalari” Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss..T.: 2024. - B.138

nashrlarning muntazam chop etilishi ularning orasida sog'lom raqobat ruhini paydo qilib, tayyorlanayotgan maqolalarning sifati oshishiga, auditoriya talablariga ko'ra axborot materiallari tayyorlanishiga zamin hozirlaydi.

2.2. OAVda bolalar sporti mavzusining yoritilish xususiyatlari

Zamonaviy texnologiyalarning taraqqiy etishi, sun'iy intellekt imkoniyatlarining kengayishi barcha sohalar kabi insonning fiziologik qobiliyatlarini rivojlantirishga turtki bo'lyapti. Endilikda bolalarning intellektini o'stirish hamda jismoniy qobiliyatlari imkoniyatini kengaytirish ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. So'nggi tadqiqotlarning birida bolalarning intellektini o'stirishda jismoniy mashq va sport bilan shug'ullanishning alohida o'rni borligi isbotlandi: "AQSHning bolalar salomatligiga bag'ishlangan "Pediatrics" ilmiy jurnalida chop etilgan tadqiqotlarga ko'ra, jismoniy faollik insonning nafaqat jismoniy, balki ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, kognitiv qobiliyatlarini o'stiradi"⁵⁷.

Tadqiqotda sport bilan muntazam mashq qilgan bolalarda yangi jumboqlarni yechishga qaratilgan harakatli intellekt, bilim va tajriba to'plashga

⁵⁷ Спорт повышает IQ детей на несколько пунктов, выяснили ученые Pediatrics: физические упражнения повышают IQ детей примерно на четыре балла. <https://www.gazeta.ru/science/news/2024/12/11/24603146.shtml>; updated

asoslangan kristallangan intellekt kabi IQ ko'rinishlarining rivojlanishi aniqlangan.

Izlanish xulosalari besh yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan uch mingdan ziyod sport bilan shug'ullanuvchi bolalarni kuzatish asosida shakllantirilgan. Bundan avval tadqiqotchilar sport mashg'ulotlari bolalarda Alsgeymer kasalligining oldini olishda foyda berishini isbotlashgan edi. Mazkur tadqiqot natijalari sportning bolalar salomatligi, jismoniy va ruhiy barkamolligida muhim o'rin tutishini isbotlaydi. Yuqori sport natijalari albatta bolalar sportidan boshlanishi sport jurnalistikasida bolalar sporti mavzusining nechog'lik ahamiyati katta ekanligini isbotlaydi.

Bolalar sporti mavzusi tijoriy maqsadlarda manfaatli bo'lmasligi yoki foyda keltirmasligi mumkin, ammo ijtimoiy sohaning bir ko'rinishi sifatida jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutishi shubhasiz. Shu bilan birga soha rivojida qator yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Mutaxassislarning ta'kidlashicha: "Sport medialari bilan bolalar sporti orasidagi asosiy muammo sifatida - davlat va ijtimoiy e'tiborga qaramay, bolalar sporti mavzulariga nisbatan reyting va foyda uchun material tayyorlashga mediada ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv bolalar sportiga oid masalalar yetarlicha yoritilmasligiga olib kelyapti"⁵⁸.

⁵⁸ Опарина Е. В., Макарова П. В. Спортивная журналистика как инструмент формирования позитивных ценностей у подростков // Наука и школа. 2022. № 6. С. 45–50. DOI:

Sport jahon miqyosida katta foyda keltiradigan yo'nalishlardan biri ekan, muxbirlar asosan katta hajmdagi auditoriyani o'ziga jalb qila oladigan musobaqalarni yoritishga intilishadi. Reyting ko'tarishga xizmat qilmaydigan bolalar sporti mavzusi bir oz nazardan chetda qolib, unga ijtimoiy yo'nalish sifatida qaraladi.

Bolalar sportiga oid materiallarning tarbiyaviy, ijtimoiy xususiyatlari. Sportni ommalashtirish, bolalar salomatligini tiklash va ularni katta hayotga tayyorlashda bolalar sportining o'rni beqiyosdir. Sportning tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda katta. U bolalarni mehnatkash, intiluvchan, sabr-toqatli, irodali bo'lib voyaga yetishini ta'minlaydi. Yuqori ko'rsatkichlarga erishib, chempion bo'lish hammaga ham nasib etmaydi. Ammo bolalikdan sportga oshno bo'lganlar jismonan sog'lom, ma'nan barkamol bo'lib voyaga yetadilar. Hatto Qadimgi Yunonistonda ham sportdan bolalarning tarbiya vositasi sifatida foydalanishgan. 12 yoshidan ularni palestralarda kurash, yugurish, sakrash kabi jismoniy mashqlarga jalb qilishgan.⁵⁹

Bugungi kunda ham bolalarni sportga jalb qilish, sportdan ta'lim, tarbiya va ijtimoiylashuv vositasi sifatida foydalanishga xalqaro tashkilotlar tomonidan katta e'tibor qaratilgan. Xususan

10.31862 / 1819 - 463X - 2022 - C - 45 - 50.

⁵⁹ Демчук Н. В., Морозов А. С. Культурное наследие воспитания молодежи в Древней Элладе //

Наука и инновации в XXI веке: актуальные вопросы, открытия и достижения: сб. ст. победителей III Междунар. науч. - практ. конф.: в 2 ч. Ч. 1. Пенза, 2017. - С. 234-237

YUNESKO xalqaro tashkiloti mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda qator ijobiy ishlar amalga oshirilayotgani diqqatga sazovor.

“YUNESKO tashkiloti Xalqaro sport fanlari va jismoniy tarbiya kengashi(ICSSPE), Xalqaro adolatli o'yin qo'mitasi (IFPC), Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ), Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi (IPC) va Butunjahon antidoping agentligi bilan hamkorlikda sport qadriyatlarini ta'lim tizimiga moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqdi. Unda o'qituvchilar uchun “Har bir sinfda sport qadriyatlari: 8-12 yoshli o'quvchilarga hurmat, tenglik va inklyuzivlikni o'rgatish” to'plami ishlab chiqildi”⁶⁰. Shu bilan birga YUNESKO tomonidan sport orqali shakllanadigan adolat, tenglik, intizom, inklyuzivlik, qat'iyatlilik va hurmat kabi qadriyatlar mavjudligini ta'kidlaydi.

Mutaxassislar biror natijaga erishishda bola o'z oldiga aniq maqsad qo'yishni, vaqtni qadrlashni o'rganishda, aynan, sport mashg'ulotlarining o'rni beqiyosligini ta'kidlashadi. Shu o'rinda bolalarni sport majmualariga muntazam qatnashlarida, ularning qobiliyatlariga qarab sport turini tanlashlarida, murabbiy bilan hamkorlik qilishda ota-onalarning sohani tushuna olishlari muhimligini ta'kidlash kerak. Ota-onasi sport sohasida faoliyat yuritayotgan bolalar sport zalida katta bo'lib, keyinchalik “ota kasb”ni davom ettirishi ko'p kuzatilgan. Bu tug'ma qobiliyatni to'g'ri yo'naltira olish, atrof - muhitning bolaga o'tkazadigan ta'siriga yaxshi misol bo'la oladi.

⁶⁰ <https://www.unesco.org/en/sport-and-anti-doping/sports-values-education>

Bu sohadan kasban yiroq bo'lgan ota-onalar bolalar sporti haqidagi ma'lumotlarni OAV orqali olishlari tajribada ko'p kuzatilgan. Ko'pincha: "U yoki bu sport turini qanday tanlagansiz, nima turtki bo'lgan?";- degan savolga sportchilardan "OAV orqali bilib, qiziqib qolganman";- kabi javobini olish mumkin. Darhaqiqat, shohsupaga chiqib g'olib va sovrindor bo'layotgan chempionga havas qilib sport zaliga kelganlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun bolalar sporti mavzusini muntazam yoritib borish muhim ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Professional sportni targ'ib etish bilan birga bolalarning salomatligi, ruhiy muvozanatini tiklash, vaqtini mazmunli o'tkazish hamda murabbiy boshchiligidagi mashg'ulotlar yaxshi samara beradi. Bular esa bolalar sporti mavzusining ajralmas qismidir. Bolalar sportiga oid materiallar bu va boshqa savollarga javob beradi, auditoriyani sportning sir-asrorlaridan boxabar qiladi. Shuning uchun bolalar bilan ishlashni biladigan, sport va jismoniy tarbiyadan xabardor bo'lgan mutaxassislar shu mavzuda tahliliy, badiiy, publisistik yo'nalishda material tayyorlaydilar.

Yurtimizda bolalar sportiga qaratilayotgan alohida e'tibor natijasida, mazkur mavzuda maqola yozish uchun doimiy yangiliklar, ma'lumotlar doim yetarli bo'ladi. Aksariyat nashrlar bu mavzuga gazetaning bosh sahifasini bag'ishlaydilar.

Bolalar sportiga oid portret ocherki. Bolalar sportiga oid portret ocherkda bola ruhiyatini badiiy publisistik usulda ochib berish maqsad qilinadi. Unda real ko'rsatkich va natijalarning bayonidan

tashqari bola ko'nglidan kechayotgan orzu - umidlari bayon etiladi. Sport jurnalistlaridan bola psixologiyasini yaxshi bilish, kichik yoshdagi qahramonlar bilan kommunikatsiyaga kirishish ko'nikmalarini egallashi talab etiladi.

Bolalarning o'ziga xos ruhiy olami - psixologiyasi bor. Har bola - bir dunyo. Ularning xatti - harakatini kuzatgan mutaxassislar ularning taqlidga moyil ekanliklarini ta'kidlashadi. Bolalar oilada ota-onalariga, ta'lim dargohida ustozlariga, ijtimoiy hayotda tengdoshlariga beixtiyor taqlid qilishadi. Albatta, atrof- muhit bola tarbiyasida alohida o'rin tutadi. Muhimi, bola ezgulikka intilishi kerak. Ana shunday maqsadlardan biri, albatta, sport sohasidagi orzulardir.

U yoki bu sportchining natijasi haqida eshitgan, ko'rgan, o'qigan bo'lsa, bola: "Men ham chempion bo'laman!",- deb niyat qiladi. Bu orzusini amalga oshirish uchun u sport zaliga kelib mashq qilishni boshlaydi. Bolalarning fikri - pok, niyati -beg'ubor. Yuqori natijalarga erishgan sportchilar targ'iboti auditoriyani sportga oshno qilishda o'ziga xos o'rin tutadi. Farzandlarini shohsupaga chiqishini istagan ota-onalar bolasi barchaning e'tiborida bo'lishini istab, dilbandini qiziqishlarini qo'llab - quvvatlaydilar, qiyinchilik pallasida u bilan birga bo'lishga intiladilar. Badiiy va ta'sirchan hikoya o'zining ana shunday ijtimoiy ahamiyati bilan boshqa yo'nalishdagi maqolalardan farqlanadi.

Qizlarni sportga jalb qilish. Tarixdan ma'lumki, sport va jismoniy tarbiya bilan azaldan faqat o'g'il bolalar shug'ullanishgan. Nozik hilqat

egalari esa, uy yumushlari bilan band bo'lishgan. Aksariyat sport turlari erkaklarga xos bo'lgan. Bugungi kunga kelib, deyarli barcha sport turlarida ayollar o'rtasidagi bahslar o'tkaziladi. Shu bilan birga, faqat xotin-qizlarga xos bo'lgan sport turlari ham keng taraqqiy etmoqda. Xotin- qizlar sportini yoritishda jurnalistlar qizlarga xos bo'lgan tabiatni hisobga olib muloqotga kirishishlari talab etiladi. Har bir muharririyatda ushbu mavzuda material tayyorlaydigan, aynan shu mavzuga ixtisoslashgan mutaxassis faoliyat ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Shunda qizlar, ularning murabbiylari, ota-onalari bilan muloqotga kirishish ancha oson kechadi.

Qizlarni sportga jalb qilishda onalarning alohida o'rni bor. Onalar - qizlarning ilk tarbiyachilari, dunyo va jamiyat haqida axborot berib, ularni katta hayotga tayyorlovchilardir. Shuning uchun sportga farzandini qiziqtirishni istagan onalarga mo'ljallangan materiallar ham ayollar psixologiyasini yaxshi biladigan, ularning o'ziga xos tabiatidan kelib chiqib tayyorlanishi zarur. Bu borada olib borilgan suhbat savollari ham ana shunday nozik jihatlarni hisobga olgan holda berilishi talab etiladi. Qizlarni sport sohasida faol ishtirok etib yuqori natijalarga erishishlari – mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi nufuzini belgilab beruvchi omillardan biri ekanligini unutmaslik kerak.

Bolalar sportiga bag'ishlangan materiallar-ning psixologik o'ziga xosligi. Bolalar sport maskaniga kelganlaridan keyin bir-ikki oy murabbiyiga hamda mashq jarayoniga

moslashadilar. Bir-ikki yillik muntazam mashg'ulotlardan keyin, natijalar ham ko'rinadi. Ba'zan bolaning qobiliyati darrov sezilmasligi mumkin. Gohida esa, tug'ma iste'dod egasi bo'lganlar tengdoshlariga nisbatan ancha erta natijalarni namoyon qiladilar. Necha yillik mehnat samarasi bo'lgan har bir ko'rsatkichga e'tiborli bo'lish, nafaqat ota-onalar, murabbiylar, balki OAV xodimlarining ham vazifalaridan biridir.

Bolalar sporti mavzusini yoritayotganda bolalar o'rtasida o'tkazilgan har bir musobaqa tafsilotlarini ko'tarinki ruhda tayyorlashga harakat qilinadi. Bunday reportajlar ma'lum bir sport turiga bag'ishlanganib, musobaqa natijalariga ko'ra uning rivojlanishi haqida ma'lumotlar berilishi bilan ajralib turadi. Odatda ommaviy sport tadbirlarida ishtirok etgan umidli sportchilar, tajribalari oshganidan keyin hududiy startlarda mahoratlarini namoyish qilishni boshlaydilar. Ba'zan, bolalarda natijalar tezda ko'rinmasligi mumkin. Ular musobaqalarda ishtirok eta olmay, sog'lomlashtiruvchi guruhlarda mashq qilishni davom ettirishadi. Shunday bo'lsa-da, bolalikdan sportga oshno bo'lganlarning salomatligi tiklanib, sog'lom turmush tarziga odatlanadilar.

Bolalar mavzusini yoritganda, jurnalistlar ularning yosh chegarasi, aqliy salohiyatini hisobga olib material tayyorlashlari maqsadga muvofiq. Suhbat jarayonida ularga kelajakda omad, albatta, kulib boqishiga umidni paydo qilish kerak. Gohida ana shunday e'tibor natijasida bolalar yanada ko'p

mashq qilishga, o'z ustilarida tinmay ishlashga kirishib ketishadi.

Mutaxassislar biror natijaga erishishda besh foiz qobiliyat, to'qson foiz mehnat zarurligini uqtirishadi. Shuning uchun bolalarni o'zlariga ishonishni o'rgatish juda muhim. Bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishda esa, OAVning alohida o'rni bor. Aynan bolalar sportiga oid bo'lgan u yoki bu masalaga jamoatchilikning e'tiborini qaratishda media orqali ularni yoritish yordam beradi. Shuning uchun bolalar sporti mavzusini doimiy yoritib borish sport jurnalistikasining tarbiyaviy vazifasining amalda namoyon bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Bolalar sportining ahamiyatini hayotiy misollar bilan ota-onalarga tushuntirishda chop etiladigan materiallarning ahamiyati katta. Shu bilan birga nashrlarda bolalar uchun alohida sahifalar ajratilishi, ularda sodda tilda yosh o'quvchilar uchun qiziqarli materiallar berilishi maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda bolalar adabiyoti, bolalar uchun tayyorlanadigan nashrlarda bu borada o'ziga xos maktab shakllangan. Mazkur o'ziga xos mahorat maktabini sport sohasiga ham tadbqiq etish matbuotda bolalar sporti mavzusini yanada rivojlanishga turtki bo'lardi. Bunda bolalar uchun viktorina o'yinlari, mazkur mavzudagi krossvordlar, qiziqarli ma'lumotlar, rasmlar tanlovi kabi sahifalarni tashkil qilish mumkin.


Demak, matbuotda bolalar sportini yoritish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar ko'lami katta.

Sport jurnalistikasida faoliyat yuritayotgan soha mutaxassislari bunga o'z xissalarini qo'shishlariga umid qilamiz.

2.3. Sport mavzusida mediamahsulot tayyorlash texnologiyasi

Izlanish doirasida o'tkazilgan so'rovnomada to'rt ballik tizim bo'yicha mamlakatimizda sport jurnalistikasining taraqqiyotini belgilashga ko'ra berilgan savolga respondentlarning yarmi yaxshi, uchdan biri esa, qoniqarli javobni belgilashgan. (2-rasm) Olingan bu ko'rsatkich auditoriyaning katta qismi yurtimizda tayyorlanayotgan sport mavzusidagi materiallardan qoniqayotganligini, sport jurnalistikasi rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi. Bu yurtimizda sportga, xususan, sport jurnalistikasi taraqqiyotiga ko'rsatilayotgan e'tibor mujassamligidan dalolat beradi. O'ziga xos tarixga ega o'zbek sport jurnalistikasi bosma nashrlar, tele va radioefir mahsulotlari qatori internet saytlarida ham ma'lumotlarni tayyorlamoqda.

Юртимизда спорт журналистика тараққиётининг даражасини белгиланг
37 ответов



2-rasm. Mavzuga doir o'tkazilgan so'rovnoma natijalari.

Yurtimizda sportga ixtisoslashgan telekanalning tashkil etilishi. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 4-noyabrdagi “Ommaviy sport targ‘ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qaroriga binoan “SPORT” telekanali tashkil etildi”⁶¹. Bu qaror yurtimizda audiovizual shakldagi sport materiallari ko‘lamini oshirdi, ixtisoslashgan jurnalistika poydevorini shakllantirildi. “SPORT” telekanalining asosiy vazifasi etib, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tashviqotini kuchaytirish, bolalar sportini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shish, milliy sport turlarini targ‘ib qilish, xalqaro sohalarda yurtdoshlarimiz ishtiroki va yutuqlarini muntazam yoritib borish deb belgilandi.

“SPORT” telekanali ko‘rsatuvlari 2004- yil 1-yanvardan 6 soat, aprel oyidan kuniga 8 soat hajmda efirga uzatila boshladi”⁶². 2006 yili O‘zbekiston televideniyesi O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniya sifatida faoliyat yuritib, “SPORT” teleradiokanali DUK shaklida faoliyatini boshladi. Bugungi kunga kelib bu teleradiokanal 24 soat davomida sport mavzusidagi audiovizual materiallarni efirga uzatadi.

“O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida “Sport” kanali faoliyat boshlaganidan so‘ng zamonaviy o‘zbek sport jurnalistikasini

⁶¹ Рўзиев Ф. Жўраева Х. Тележурналистга тавсиялар. –Т.: «SHARQ», 2013. - Б.7

⁶² Рўзиев Ф. Жўраева Х. Тележурналистга тавсиялар. –Т.: «SHARQ», 2013. - Б.7

shakllantirish borasida ancha ishlar qilindi. Kadrlar safi kengaydi, reportaj berish, to'g'ridan-to'g'ri sharhlash mahorati sirlarini o'rganishga e'tibor kuchaydi, bunda milliy va jahon sporti yangiliklarini sharhlash katta tajriba maktabini o'tamoqda"⁶³.

Aholining sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan qator tahliliy, ommabop ko'rsatuvlar ham muntazam efirga uzatildi. Jamoalar, o'yinchilarning reyting natijalari, oyning mashhur sportchisini aniqlaydigan test-sinov anonslari ham har kuni efirga berildi. Tomoshabinlarning ovoz berish va sport maydonida bo'layotgan voqealarga munosabatini bildirishga qaratilgan turli interaktiv tok-shoular malakali mutaxassislar tomonidan tayyorlandi.

Ahamiyatli jihati shundaki, "SPORT" telekanali faoliyat boshlaganidan keyin aholimiz o'tgan davr mobaynida o'tkazilgan barcha Olimpiya o'yinlarining to'liq tafsilotlarini kuzatish va muxlislik qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ularning aksariyati jonli ravishda tayyorlanganligi, o'tgan davr mobaynida yurtimiz sport jurnalistikasi taraqqiy etayotganligidan dalolat beradi. Olimpiya o'yinlari o'tkazilayotgan davr mobaynida telekanal tun-u kun terma jamoamiz a'zolari natijalarini kuzatishga, ular ishtirok etayotgan bahslarni efirga berishga harakat qilishadi.

Olimpiada mavsumida har kungi natijalar sarhisob qilinib, yangiliklar blokida tezkor ravishda efirga uzatiladi. Aynan Olimpiya o'yinlari kabi yirik


⁶³ Дўстмуҳаммад Х., Ахборот – мўжиза, жозиба, фалсафа. Т.: "Янги аср авлоди", 2013. - Б.179

bellashuvlarni yoritishda OAV ichida televideniye jonli efirning mo'jizasi, tasvir va ovoz xususiyati bilan yetakchilik qiladi. Tomoshabinlar shu vaqtning o'zida sevimli sportchisi yoki jamoasiga muxlislik qilish, uni musobaqadagi chiqishini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Matbuotga nisbatan tezkorroq, radioga nisbatan tasvir xususiyati borligi bilan ta'sirchanroq bo'lgan televideniya yoritilayotgan sport mavzusi bugungi kunda audiovizual jurnalistikaning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Televideniya sport yangiliklarini tayyorlash mexanizmi. Sportni ommalashtirish, sohaga oid axborotni auditoriyaga yetkazishda yangiliklar dasturining alohida o'rni bor. (3-rasm) O'tkazilgan so'rovnoma ko'ra respondentlarning eng katta qismi, ya'ni 53,3% yangiliklarni ko'rganda sport xabarlarini kuzatishlarini ma'lum qilishgan. Sportga oid saytlarini o'qib boruvchi auditoriya 22,2% tashkil etadi.

Қайси медиадан спорт ҳақида маълумот оласиз?

37 ответов



3-rasm. Mavzuga doir o'tkazilgan so'rovnoma natijalari.

Mazkur ma'lumotlarda sport xabarlarini auditoriyaga yetib borish jarayonida yangilik dasturlari nechog'lik yetakchilik qilishlari ma'lum bo'ladi. Sport mavzusining ommalashuvida yangiliklar industriyasining alohida o'rni bor. Sport jurnalistikasida ko'plab janrlardan foydalaniladi. Lekin aksariyat hollarda - aniqlik va tezkorlik talab etadigan yangiliklar janriga ustunlik beriladi. Sport jurnalistikasi voqealar tahliliga bag'ishlangani uchun mavzu doirasidagi intervyular, reportajlar amaliyotda ko'p uchraydi. Shuningdek, tahliliy, badiiy publisistik va ko'ngilochar janrdagi materiallar ham beriladi. Sport voqealarni tahlilida bir nechta yo'nalishlarni uchratish mumkin:

- kutilayotgan *musobaqalar oldidan* tahminlar, raqiblarning, oldingi natijalariga ko'ra, g'alabaga bo'lgan imkoniyatlari, bo'lib o'tgan startlarning statistikasi tahliliga bag'ishlangan materiallar;

- *ayni damda* bo'layotgan musobaqalarga oid yangiliklar, ularga doir taassurotlar bayoni;

- *bo'lib o'tgan musobaqalar* tahliliga bag'ishlangan materiallarda - sportchilar amalga oshirgan taktika va texnikasining tahlili, yutuq va kamchiliklari bayon etiladi.

Sport olamida bo'layotgan eng muhim voqealarni izlash, tahlil qilish va efirga uzatish o'ziga xos malaka va mahoratni talab etadi. Bunda muxbir jurnalistika janrlari, tili, uslubini bilishi bilan birga tahlil qilinayotgan sport turi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Odatda sportga ixtisoslashgan kanallar muxbirlari u yoki bu sport turini chuqur o'rganadilar va terma jamoaning yetakchi

sportchilari, bosh murabbiylari bilan doimiy muloqotda bo'lib turadilar. Sportchining natijalari haqida batafsil axborotni bilib, qachon, qaysi musobaqada qanday natijaga erishgani, uning kelgusidagi rejalaridan boxabar bo'ladilar. Bunday ma'lumotga ega bo'lishlik muxbirning tezkor xabarlar tayyorlashi uchun zamin hozirlaydi. Chunki televideniyeining o'ziga xos texnikaviy talablari mavjud bo'lib, suratga olish va montaj qilish jarayonlari ma'lum bir malaka va mahorat egasi bo'lishlikni taqozo etadi. Masalan, musobaqani suratga olishga kelgan tasvirchi doimiy harakatdagi jarayonni kamera xotirasiga muhrlaydi. Voqea va hodisalar daqiqa va soniya sayin o'zgarib turadi. Bunda muxbir tasvirchiga to'g'ri yo'nalishni tushuntira bilib, ma'lum vazifa berish barobarida o'zi darhol zarur ma'lumotlarni to'play bilishi, kerakli respondentlarni suhbatga chorlashi zarur.

Muhim ijtimoiy, siyosiy mavzudagi anjumanlarga borgan muxbirga o'tkazilayotgan tadbirning asosiy maqsad va vazifalari, ishtirokchilar ro'yhati, ko'rilayotgan masalalar mavzusi aniq ko'rsatilgan press reliz beriladi. Anjuman oxirigacha bu ma'lumotlar deyarli eskirmaydi va ularga o'zgarishlar kiritilmaydi. Sport musobaqalarida esa, ishtirokchi atletlar ro'yhati o'zgarmaydi, ammo natijalar kutilmagan bo'ladi. Kimdir finalga chiqadi. Boshqasi jarohat olib o'yindan chiqib ketishi mumkin. Voqea-hodisalar shu joyning o'zida, gohida, kutilmagan ravishda sodir bo'ladi. Ayniqsa, jonli efirda ishlash nihoyatda mas'uliyatli va o'ziga xos mahorat talab etadigan

masaladir. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi jarayon natijalari ertaga ham o'zining dolzarbliligini yo'qotmasligi mumkin, ammo sport yangiliklari hozir, ayni daqiqalarda tayyorlanishi, efirga uzatilishi kerak. Sport jurnalistikasida ijob qilish, audiovizual material tayyorlashning mashaqqati va o'ziga xosligi ham shundan iborat.

Sport yangiliklari mavzusidagi lavha 30 soniya, eng ko'pi bilan 3,5 daqiqa davom etishi mumkin. Har bir lavha o'rtacha 1,5-2 daqiqani tashkil etib, matnni o'qish tempi tez bo'ladi. Shuning uchun kadr ortidagi matn aniq va lo'nda faktlar, yaxshi tahlil qilingan holda tayyorlanishi zarur. Sport jarayonlari harakatiga mos ravishda muxbir ma'lumotlarni tezkorlik bilan yetkazadi. Voqea-hodisa sodir bo'lish jarayonlarining kulminatsion nuqtalari, masalan: futbol to'pining darvozaga kelib tushishi, yoki sportchi kuragi gilamga tegish jarayonlariga tasviriga mos tarzda - kadr ortidan ma'lumot berilsa, lavha ta'sirchanligi oshadi.

Voqea-hodisa sodir bo'layotgan joydagi ovoz shovqinlari- "intershum"ning lavhada berilishi sport yangiliklari ta'sirchanligini belgilaydi. Bu- suv havzasining ovoz shovqini, sportchi gilamga taklif qilinganda ism- sharifi bilan chaqirilishi yoki kimdir g'olib bo'lganda muxlislarining hursandchilik ovozlari bo'lishi mumkin. Mazkur daqiqalarda muxbir ovoz ohangini, intonatsiyasini shunga moslab talaffuz qiladi. Jamoa yoki sportchilarning reyting natijalari aks etgan jadvallar maxsus tez tempdagi musiqa bilan efirga uzatiladi. Bunday jadvallarni muxbir yozib bersa-da, kompyuter

mutaxassisi efirga chiroyli lavha ko'rinishida bezatib, ketma-ket holda tayyorlaydi.

Sport xabarlari efirga uzatilish jarayonida ekranning pastki qismida yugurik qatorga ko'z tushishi mumkin. Bu yozuvlarda, asosan, kunning eng muhim sport yangiliklariga oid natijalar raqam va so'zlar yordamida qisqacha beriladi. Qator harakatda bo'lishi - uni tezroq o'qish va kerakli ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlaydi. Xorij telekanallari amaliyotida xabarlar asosan jonli tarzda efirga uzatilgani uchun yugurik qator doimiy ravishda yangilanib, biror ma'lumot takroran efirga chiqmaydi. Ana shunday ko'z ilg'amas, ammo sport jurnalistikasi amaliyotida juda muhim xususiyatlar sport yangiliklarining ta'sirchanligini oshiradi.

Yurtimizga oid lavhalar boshlanishi bilan uch soniya ichida muxbir va tasvirchining ism-sharifi ko'rsatiladi. Xorij xabarlarida sharhlovchi nomi yoziladi. Ba'zan atletlarimiz natijalari matn tarzida tasvir ketma-ketligisiz boshlovchi tomonidan o'qib eshittiriladi. Bunday xabarlarda ayni damda, shu kuni qo'lga kiritilgan natijalar, sportchilarimiz erishgan yutuqlari haqida ma'lumotlar beriladi. Sportchilarning g'alabaga erishayotgan daqiqalari, ularni yaqinlari va jamoadoshlari tomonidan xalqaro aeroportdan kutib olish jarayonlari aks etgan lavhalar yangiliklar dasturining o'ziga xos qiziqarli va hayajonli daqiqalarini tashkil etadi.

Markaziy telekanallar yangiliklar blokida odatda sport xabarlari bilan ko'rsatuv yakunlanadi. Shu yo'nalishdagi dolzarb mavzular yoritilgan yangiliklar bundan mustasno. Masalan, yetakchi

atletlarimiz nufuzli xalqaro bellashuvlarda g'olib bo'lishiga oid tafsilotlarni bunga misol qilishimiz mumkin.

“O‘zbekiston 24” telekanalining “Axborot” informatsion ko‘rsatuvining kechki dasturida sport xabarlarini bloki mavjud. Asosiy yangiliklar tafsilotlarini efirga taqdim etgan boshlovchi tomoshabinlar bilan xayrlashib, navbatni soha mutaxassisiga beradi. U kunning muhim voqeasiga to‘xtalib, mavzuga oid yangiliklar bilan tomoshabinlarni tanishtirishni boshlaydi. “Axborot” informatsion dasturining sport yangiliklari yo‘nalishi va mavzusi telekanalning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan. Unda yurtimizda sodir bo‘lgan muhim yangiliklar, terma jamoamiz a‘zolarining qo‘lga kiritgan yutuqlari muxlislar e‘tiboriga havola qilinadi. Barcha faktlar aniq va eng so‘nggi natijalarga asoslangan bo‘ladi. Lavhalarda respondentlardan olingan intervyular ham beriladi. “Axborot” informatsion dasturining sport yangiliklarida to‘g‘ridan - to‘g‘ri efirga uzatish amaliyoti samarali qo‘llanilmoqda.

“Yoshlar” telekanali informatsion dasturi bo‘lgan “Yangi davr” dasturida boshlovchi navbatni soha mutaxassisiga bermaydi. Sport xabarlarini navbati berilganidan keyin, turli musobaqalar tafsilotlariga bag‘ishlangan yangiliklar bloki efirga uzatiladi. Bu telekanalda yangiliklar asosan jahon sportida ro‘y bergan muhim xabarlar tafsilotlaridan iborat bo‘ladi. Ba‘zan yurtimizga oid muhim voqealar tahlili ham ko‘rsatuv tarkibidan joy oladi. Mazkur yo‘nalishdagi xabarlar hajmi ham, lavhalar

soni ham nisbatan kam. Ba'zan yangiliklar dasturi sport xabarlarisiz efirga chiqadi. Bunday holatda studiyadagi boshlovchi xayrlashib, navbat ob-havo yangiliklariga keladi. Umuman olganda, "Yangi davr" informatsion dasturining sport xabarlari blokidagi tayyorlanadigan yangiliklar, oddiy tomoshabinning jahon sportiga oid xabardorligini oshirishda, havaskor va professional sportga oid ma'lumotlarni auditoriyaga muntazam yetkazib berishi bilan ahamiyatlidir.

Ma'lum hududga mo'ljallangan, auditoriya qamrovi ham cheklangan telekanallar misolida, "Toshkent" teleradiokanali ijodkorlari tomonidan taqdim etiladigan informatsion dasturini tahlil qilishimiz mumkin. Odatdagidek, kunning eng muhim voqea tafsilotlaridan keyin dastur so'nggida navbat sport xabarlariga beriladi. Bu dastur doirasidagi mazkur mavzudagi xabarlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, Toshkent shahrida o'tkazilgan nufuzli musobaqalardan tortib, ommaviy sportga tegishli barcha tadbirlar ko'rsatuv tarkibidan joy olishi mumkin.

Yangiliklar tarkibida intervyular tayyorlanishi ham kuzatiladi. Hududiy telekanallar dasturlarida mazkur yo'nalishdagi xabarlarni efirga uzatish muhim ijtimoiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Bir qarashda oddiy, 2-3 daqiqadan oshmaydigan lavhalarning ham ta'sirchanligi yuqori bo'lishi mumkin. Umuman olganda, har qanday sport xabari yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangiliklar blokida berilishi aholini ushbu yo'nalishdagi yangiliklarga qiziqтира olishi bilan, muxlislarning

jahon sportiga oid ma'lumotlariga ega bo'lishida ham katta ahamiyat kasb etadi. Sportga ixtisoslashmagan kanallar auditoriyasi qamrovi keng. Shuning uchun bu yerda berilgan ma'lumotlar katta hajmdagi auditoriyaga taqdim etilishi bilan muhimdir. Tayyorlanadigan lavhalar hajmi kam bo'lsa-da, tomoshabinlar sonining ko'pligi va efir soatlarining qulayligi bu telekanallar faoliyatining sportni ommalashtirishdagi ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Sport sharhining o'ziga xosligi. Ma'lumki, sharh tahliliy janrlardan biri bo'lib, "...jamiyatdagi o'zgarishlar mohiyatini ommaga tushuntirish, mavjud holat va muammolarga nisbatan munosabatini shakllantirishdek bir necha muhim ijtimoiy vazifalarni bajaradi" ⁶⁴ . Bunda sport sharhlovchiligi o'zining alohida o'rniga egadir.

Yurtimizda sport sharhlovchiligining maktabi shakllangan. O'zbekiston radiosida yurtimiz audiovizual sport sharhlovchiligi paydo bo'lgan. "O'tgan asrning 50-60 yillariga kelib bu yerda juda katta ijodiy jamoa to'plana boshladi. O'zbekiston xalq artistlari Qodir Maxsumov, Tuyg'unoy Yunusxo'jayeva, Ra'no Ashrapova, Telman Yo'ldoshev, Abdurahim Alimov kabi diktorga sport sohasini yaxshi biladigan, nutqi ravon kishilarni topish, tanlov o'tkazib, saralab olish yuklandi. Yuzlab qiziquvchilar ishtirokida o'tgan tanlovda o'zbek tilida Axbor Imomxo'jayev, rus tilidagi eshittirishlar uchun Roman Turpishevlar

⁶⁴ Нурматов А. Тўхлиева Н. Шарҳлаш журналистикаси. - Т.: «BAYOZ», 2013 - Б.22

eng munosib deb topildi. Bu ikki inson bunga qadar sportning turli yo'nalishlarida faoliyat olib borgan, Axbor aka futbolchi bo'lsa, Roman aka yengil atletikachi edi. 1956-yil, Toshkentda "Paxtakor" deb atalgan xalq jamoasi tashkil etildi, stadion qurildi va shu bilan birga yangi professional sharhlovchilar ishga olindi. Ta'kidlash kerakki, bundan oldingi futbol uchrashuvlarini ko'pincha sportga qiziquvchi diktorlar sharhlashgan edi" ⁶⁵ . Aynan shu sharhlovchilarni o'zbek sport sharhlovchiligining asoschilari deb atash mumkin.

Shu davrda ilk jonli efirdagi sharhlar uzatilib, tomoshabinlar e'tiboriga havola etilgan. "Mamlakatda futbol musobaqalarining asosiy o'yinlari aksariyat hollarda to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatiladi. Toshkent tarixida "Paxtakor" futbol jamoasi g'alabasi nishonlangan tarixiy sanalar ko'p. Ammo, 1961-yil 20-aprel kuni bo'lib o'tgan "Paxtakor" – MASK(Moskva) uchrashuvi sevimli jamoa g'alabasi bilan yakunlangan. Aynan shu kuni O'zbekiston televideniyesi o'z tarixida birinchi marta futbol uchrashuvini to'g'ridan-to'g'ri stadiondan olib ko'rsatdi. Nihoyatda chiroyli, xavfli vaziyatlarga boy, har bir o'yinchining maydonda jon kuydirib harakat qilishi, bir-biridan chiroyli kiritilgan gollar – bularning barchasini qadrdon ishqibozlarga hikoya qilib berish sharhlovchilar Axbor Imomxo'jayev va Roman Turpishevlarga nasib etgan. Demak bu kunni tarixiy kun deb bemalol aytish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri futbol

⁶⁵ www. the - uff. uz. "Ўзбек спорт журналистикаси асосчиларидан бири – Роман Турпищев".

reportajining berilishi va sharhlanishi O'zbekistonda sport telejurnalistikasiga qo'yilgan dastlabki qadamlar edi"⁶⁶. Shundan so'ng, radioda Azim Alimov, Shoabdulla Muhammadjonov, Azim Po'latov, televideniyeda Viktor Levinlar o'ziga xos sharhlovchilik maktabini yaratishgan. O'tgan asrning 70-80 yillarida Rahmonqul Boltayev, Davlat Turdaliyev, Rixsitilla Umarov, Murod Rizayev, Mirzahakim To'xtamirzayevlar jamoaviy sport turlarini sharhlashning xususiyatlarini rivojlantirib, jonli efirda ishlash malakasini shakllantirishgan.

Asta-sekin sport sharhlovchilari sport turlariga ko'ra ixtisoslashishgan. Odatda, sharhlovchilar yo'nalishlariga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lgan sport turlarini mukammal o'zlashtirishga harakat qilishadi. Bundaylar qatoriga bir necha sport turlari kiradi, masalan: suv sport turlari (suzish, suvga sakrash, baydarka va kanoeda eshkak eshish, eshkak eshish slalomi), ot sport turlari (ot yuritirish, konkur, uchkurash), yengil atletikaning ham bir necha ko'rinishlari bor. Og'ir atletika, qilichbozlik, o'q otish, kamondan o'q otish, tennis, stol tennisi, golf, velosport kabi sport turlarining har biri o'ziga xos qoidalarga egadir. Sharhlovchi har birining qoidasini yaxshi bilishi, musobaqa jarayonini tahlil qila olishi, har qanday vaziyatda zarur ma'lumotlarni muxlislar e'tiboriga havola qilishi kerak.


Sharhlash, shunchaki voqea-hodisalar tafsilotlarini bayon qilish emas. Balki shu jarayon

⁶⁶ Каримов А.А. Спорт журналистикасида рекреативлик. – Т.: "ADABIYOT". 2024. –Б. 20

nima uchun sodir bo'lganini tahlil qilishdir. Sportda omad ko'p narsani hal qiladi, deyishadi. Mag'lubiyatni ko'pincha omadsizlikka yo'yishadi. Ammo terma jamoa murabbiylari, shu soha mutaxassislari har qanday omad yoki omadsizlikning sababini biladilar, har bir harakatni tahlil qila oladilar. Shu soha bo'yicha sharh tayyorlaydigan mutaxassis ham har bir sportchining jismoniy imkoniyatini, uning avvalgi natijalarini, mazkur o'yingacha qo'lga kiritgan yutuq va kamchiliklarini soha mutaxassisidan kam bilmasligi kerak. Shundagina voqea jarayonini kuzatgan tomoshabin sharhlovchi so'zlaridan o'ziga kerakli ma'lumotlarni ola biladi.

Gohida o'ta bilimli sharhlovchi ma'lumotlari muxlislarni musobaqa jarayonidan zavqlanishga yo'l qo'ymaydi. Efir sharhlovchi bilimini namoyish qilish imkoniyatiga aylanmasligi kerak. Mohir sharhlovchi xolis va haqqoniy sharh bilan oddiy musobaqani ham qiziqarli va muvaffaqiyatli bahs sifatida auditoriyaga taqdim etishi bilan barchani e'tirofiga sazovor bo'lishi mumkin. "Teleekranda sport musobaqalari sharhlovchisi minglab xonadonlarga kirib borayotganini, uyning to'riga chiqib tanaffussiz gapirayotganini his qilmog'i lozim"⁶⁷. Hozirgi kunda mashhur sport jurnalistlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan so'rovnomada respondentlar bir nechta taniqli mutaxassislarni belgilashgan. (4- rasm)

⁶⁷ Дўстмуҳаммад Х., Ахборот – мўъжиза, жозиба, фалсафа. "Янги аср авлоди", 2013 - Б.180



4- rasm. So'rovnoma natijalari aks etgan tasvir.

So'rovnomada variantlar berilmay, respondentlarning o'zlari javob yozishlari kerak edi. Natijalarga ko'ra sport sharhlovchlardan Davron Fayziyev, Hayrulla Xamidov, Mirzahakim To'xtamirzayev, Rixsitilla Umarov, Diyor Imomxo'jayev, Hilola Isxakovalar muxlislar tomonidan tilga olindi. Respondentlar tanlagan mazkur sport sharhlovchilarining aksariyati asosan futbolni tahlil qilishga ixtisoslashgan. Shu kungacha takrorlanmas sharhlari bilan ular muxlislar ko'nglidan joy olganlari tahsinga loyiq.

Muhim ijtimoiy-siyosiy mavzudagi sharhlardan farqli o'laroq sport jurnalisti shu joyning o'zida, ayni daqiqlarda barcha savollarga javob topa bilishi, zarur ma'lumotlarni keltira olishi lozim. Buning uchun sport jurnalisti sharhlayotgan sport turi qoidalarini yaxshi bilishi talab etiladi. Butun dunyo sport jurnalistlari aynan jonli tarzda musobaqalarni efirga tayyorlashadi. Ekran burchagida "jonli efir" degan qisqa yozuv bo'ladi (masalan, ingliz tilida "live"). Jonli translyatsiya tomoshabin va muxlislarni jalb qiluvchi ta'sirchan usullaridan

biridir. Sevimli jamoasi yoki sportchisiga ishqibozlik qilish uchun musobaqada tomoshabin sifatida ishtirok etmagan muxlis, bahslarni televizor orqali tomosha qilib, bundan zavqlanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Yirik musobaqalar translyatsiyasi ko'p sonli ishqibozlarni o'ziga jalb qila olishi bilan kunning eng dolzarb voqeasiga aylanadi. Ba'zi musobaqalar o'tkazilayotgan davlat bilan vaqt tafovutlari hisobidan ko'rsatuv efirga avvaldan yozib olingan holda tayyorlanadi. Shu shakldagi musobaqalarga sharh tayyorlash uchun qator imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Sharhlovchi o'yin jarayon tafsilotlari, natijalari, voqea-hodisalar ketma-ketligidan xabardor bo'ladi. Murakkab tomoni shundaki, u yozuv jarayonida voqea-hodisalar jonli tarzda bo'layotgandek o'zini tutishi, zarur joyda hayajonlanib intonatsiyasini o'zgartirishi: gohida afsuslanishi, ba'zan ishqibozlar kabi hursand bo'lishiga to'g'ri keladi. Bunday holatda sharhlovchidan aktyorlik mahorati talab etiladi. Shunda ekran burchagida "jonli efir" degan yozuv ko'rinmasa ham, musobaqalar natijasidan xabardor bo'lsa ham, tomoshabin o'yin jarayoniga qiziqib ketadi, bahslardan kutgan ijobiy hissiyotlarga ega bo'ladi.

Boshqa mavzudagi sharhlarga nisbatan musobaqa jarayoniga qarab sport reportajlari bir-ikki soat ko'proq davom etadi. Musobaqa natijalari qanday bo'lishi noma'lum bo'lgani uchun musobaqaning qanchaga cho'zilishi ham sport bahslarining davomiyligiga bog'liq bo'ladi. Avvaldan

yoziq olingan musobaqalar translyatsiyalari bundan mustasno. Ba'zan bahslar orasida tanaffus e'lon qilinadi. Agar musobaqa jonli efirga uzatiladigan bo'lsa, bunday vaqtda rejissyor avvaldan shu vaqtga mos keladigan biror materialni efirga uzatish uchun tayyorlab beradi.

Jonli efir tarzida sharhlanayotgan o'ta muhim musobaqalarning tanaffus paytida studiyaga mutaxassis chaqirilib, bahslar batafsil tahlil qilish tajribasi mavjud. Bunday amaliyotni "SPORT" telekanali ijodkorlari tayyorlaydigan ko'rsatuvlarda ko'p uchratish mumkin. Bahslarning ikkinchi qismidan keyin ular yana studiyaga qaytadilar va o'yin yakunlanishini tahlil qiladilar. Studiyadagi suhbat va musobaqa sharhi jonli tarzda efirga uzatilgani uchun tomoshabinlar ham musobaqalarni tomosha qilib, voqealar tafsilotlari borasida qo'shimcha ma'lumotlarni bilib olishadi. Ba'zan tanaffuslarda yangiliklar dasturi yoki biron-bir avvaldan tayyorlanib qo'yilgan ko'rsatuv berilishi mumkin.

Sport mavzusidagi ko'rsatuvlarning yo'nalishi va efirga uzatish shakllari. Sport mavzusida ko'rsatuv tayyorlashda ixtiyoriy janrlardan foydalanish mumkin. Bu portret ocherki, reportaj, yo'l ocherki, telejurnal yoki tok-shou bo'lishi mumkin. Umuman olganda, sport mavzusida ko'rsatuv tayyorlashning bir necha ko'rinishlari mavjud.

Ma'lum bir sport turi haqida batafsil ma'lumot beruvchi, mazkur sport turi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarni tahlil qiluvchi

ko'rsatuv. Tanlangan janrdan qat'iy nazar jurnalist bunda mazkur sport turini yaxshi bilishi, uning qoidalarini mutaxassis darajasida egallashi talab etiladi. Bunday ko'rsatuvni, asosan shu soha mutaxassislari, muxlislari tomosha qilishadi. Ular ma'lum doiradagi auditoriyaga mo'ljallangan bo'ladi. Ko'rsatuv yo'nalishi va shakli tanlanganda ham, efirga uzatish vaqti belgilanganda ham auditoriya qiziqishi hisobga olinadi.

Yetakchi sportchi yoki murabbiy haqida ma'lumot beruvchi ko'rsatuv. Bunday ko'rsatuv studiyada suratga olinib telejurnal shaklida tayyorlanishi yoki reportaj shaklida efirga uzatilishi mumkin. Bunda muallif sportchining ma'lum bir natijalarini tahlil qiladi, mag'lubiyatli yoki zafarli onlarini yodga oladi. U yoki bu jihatdan sportchini auditoriyaga yaqinlashtirishga harakat qiladi. Sportchining ruhiy olamini, musobaqalarda ishtirok etgan lavhalarni, uni oila davrasidagi holatlarni tasvirga tushirib efirga uzatishga harakat qilinadi. Bunday ko'rsatuvlar sportga qiziqqan barcha auditoriya qatlamiga mo'ljallanadi. Ommabop va barcha qabul qiladigan tilda, ba'zan lirik chekinishlar yordamida material tayyorlanadi. Bunda jurnalist atlet shug'ullanadigan sport turi qoidalarini yaxshi bilishi, uning o'ziga xos tabiatiga yo'l topa olishi, ma'lumotlarni auditoriyaga qiziqarli tarzda yetkazib berishiga to'g'ri keladi.

O'yin, estafeta tarzidagi, sahnalashtirilgan dasturlar. Bunday dasturlar asosan reportaj shaklida tayyorlanib boshlovchi yordamida efirga uzatilsa-da, aslida har bir holat, o'yin shartlari,

jarayonlarning qiziqarli bo'lishi oldindan muallif tomonidan o'ylanib, rejalashtirib olingan bo'ladi. Bu kabi ko'rsatuvlarda muallif aniq yo'nalish berish, shartlar qoidasini o'ylab chiqish uchun kerak.

Yurtimizda sportni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni targ'ib qiluvchi, sport olamidagi muhim jarayonlar tahliliga bag'ishlangan ko'rsatuvlar. Bunday dasturlar asosan reportaj shaklida tayyorlanib, mutasaddi rahbarlar, mutaxassislar, ota-onalar, sportchilardan olingan intervyularni o'zida jamlaganligi bilan ajralib turadi. Reportaj yoki ocherk janrida tayyorlangan dastur intervyularni o'zaro bog'lab turuvchi matn, mavzuga kirish va umumiy xulosalar ssenariysidan iborat bo'ladi. Ssenariy badiiy -ommabop tilda yoziladi. Unda mavzuga doir umumiy tahlillar, mutaxassis fikrlarini to'ldiruvchi muallifning fakt va dalillari kiritiladi. Matn zaruriy tasvir bilan uyg'unlashtiriladi. Suratga olish jarayoniga ko'ra studiyada yoziladigan, joylarda tayyorlanadigan, sport maydonlarida suratga olinadigan ko'rsatuvlarga ajratish mumkin. Har qanday vaziyatda, avvaldan yozib olinishi nazarda tutilgan holda, muallif tasvirga tushirilgan materialni montajdan o'tkazishi lozim. U yoki bu holatda sharhlash yoki yangiliklar uchun lavha tayyorlashga nisbatan ko'rsatuvni efirga uzatish uchun qilinadigan montaj jarayonlari sport mavzusidagi ko'rsatuv tayyorlash mexanizmi oson emasligini isbotlaydi.

Sport mavzusida videoroliklar tayyorlash-ning o'ziga xos xususiyatlari Ijtimoiy, siyosiy yoki ma'naviy-ma'rifiy mavzuda videorolik tayyorlash uchun yaxshi yozilgan matn, ta'sirchan she'riy ifoda talab etiladi. Ijtimoiy-siyosiy mavzularda tahliliy rolik uchun ilmiy yoki ijtimoiy tahlil natijalari ham zarur bo'lishi mumkin. Sport mavzusida tayyorlanadigan videorolik uchun ma'lum bir sport turining qoidalarini yaxshi bilish, shu sport turida yuqori natijalarga erishgan sportchilardan xabardor bo'lish kerak. Roliklar hajmi 2-3 daqiqadan oshmasligi, ana shu vaqt davomida muallif va rejissyor ma'lum bir maqsadni, ma'lumotni, g'oyani auditoriyaga ta'sirchan yetkazib berishi kerak.

Sport mavzusidagi videoroliklar doimiy harakat va davomli hissiyotlar uyg'unligini bera oladigan janrdir. Qisqa vaqt ichida ana shu holatlardan g'oya va maqsad uchun xizmat qiladigan mo'jaz asar yaratish uchun tasvir va ohang mutanosibligidan muxlislarga ta'sir qiladigan video tayyorlash kerak. Hozirda an'anaviy mediadan farqli o'laroq, ijtimoiy tarmoqlarda videoroliklarning ommalashuvi ko'proq kuzatiladi. Ta'sirchan tayyorlangan rolik auditoriyasi ham katta bo'ladi. "Global tarmoq orqali tarqalayotgan televizion rolik bir necha daqiqa ichida butun dunyoga tarqalib ketadi. Xorijda faoliyat yuritayotgan legioner futbolchilarimizdan biri Sanjar Tursunovning o'z futbol jamoasi davrasida bosh bilan to'pga qanday muomala qilishga qaratilgan videorolikni dunyodagi minglab internet foydalanuvchilari maroq bilan kuzatishgan. Rolikning mashhur bo'lib

ketishiga bosh sabab, uning noan'anaviyligi edi. Mana shu kichik teleasar professional mutaxassis tomonidan tasvirga olinmagan. Ammo, rolikning milliy auditoriyaga, yosh avlodga ijobiy ta'siri juda yuqori. Jismoniy tarbiya va sport, sog'lom turmush tarzi targ'iboti uchun ana shunday televizion chiqishlar zarur"⁶⁸.

Videorolik tayyorlashda kadrlarni to'g'ri tanlash va montajdan o'rinli foydalanish nihoyatda muhim. Qisqa hajmdagi mini asar bo'lgan roliklar uchun asosan yirik planlardan olish ta'sirchan bo'ladi. Shuning uchun rejissyorlar, asosan yirik planlar, sekinlashtirilgan kadrlardan foydalanishni xush ko'rishadi. Sport mavzusida video rolik uchun matn zarur emas. Asosan, ma'lum bir g'oya, shiorlar bilan tasvirni yakunlash mumkin. Chunki sport mavzusini ochib berish uchun harakat, natija va bu jarayondagi hissiyotlarni ifodalash muhimroq. Ana shu xususiyat sport mavzusidagi videoroliklarni ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy roliklardan farqlab turadi. Sport mavzusida videoroliklarni efirga uzatish shakllariga qarab bir necha turlarga tasniflash mumkin.

Ma'lum bir sportchining natijalari haqida tasvirlarni ko'rsatib, auditoriyani sportga jalb qilishga qaratilgan videoroliklar. Bu kabi videoroliklar terma jamoaning yetakchi sportchilar natijalarini ommalashtiradi. Shu bilan birga, sport

⁶⁸ Каримов А.А. Рекреативлик – замонавий тележурналистиканинг глобал қонунияти сифатида: миллий ва халқаро тажриба. Фил. фан. доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Т.: 2023. – Б.94

yordamida hayotda o'z o'rniga ega bo'lganlarni ko'rsatadi. Asosiy maqsad -jismoniy tarbiya va sportga auditoriyani qiziqtirishdir. Bu yo'nalishda videorolik tayyorlash uchun yuqori natijalarga erishgan, ko'plab muxlislarga ega sportchilarni suratga olish maqsadga muvofiqdir. Bunda arxiv materiallaridan, tabiiy intershum, ya'ni shovqinlardan foydalanish mumkin.

Masalan, mashhur sportchining natijaga erishayotgan lahzalarini yoki jamoaning g'olib bo'lgan daqiqalarini ko'rsatish mumkin. Ta'sirchanlikni oshirish uchun sekinlashtirilgan kadrlardan foydalaniladi. Sahnalashtirilgan roliklar ham tomoshabinga yangi hissiyotlarni, o'ziga xos holatlarni tasvirlab berishi bilan qiziqarli bo'ladi. Ba'zan, mahorat bilan suratga olingan, bir necha daqiqalik rolik ta'sirchanligi - yarim soatlik filmdan kuchliroq bo'lishi mumkin. Ammo tayyorgarlik jarayonlari ko'rsatuv yoki teledasturni efirga uzatish mashaqqatlaridan farq qilmaydi. Chunki videorolikning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tasvirlar ko'pi bilan bir necha soniyada almashadi. Lahzalarda o'zgaradigan tasvirlar ta'sirchanligi ham yuqori bo'lib, tomoshabinni o'ziga jalb qilib, ekran qarshisidan uzoqlashmasligini ta'minlaydi.

Ma'lum shior bilan yakunlanadigan videorolik. Bunda biror voqea, syujet o'ylab topiladi. Tasvirlarda qisqa iboralar, replikalar ishlatilishi mumkin. Matn so'zlashuv uslubida ham, badiiy publisistik usulda ham yoziladi. Voqealar davomli tartibda o'zgarib turadi. Vaqt o'tganligini, voqea

davom etayotganligini mavsumiy o'zgarishlar bilan ifoda etish mumkin. Masalan, yil fasllarining o'zgarishi, tong otib kech tushishi, bola katta bo'lishi va h.k. Bir necha daqiqa davom etadigan rolikdan kishining ma'lum mazmun va xulosa chiqarish uchun ana shunday mavsumiy o'zgarishlar zarurdir. Bunda professional aktyorlar bilan birga mashhur sportchilar ham rol ijro qilishlari mumkin. Taniqli insonlarni suratga olish rolikka qiziqishni oshiradi. To'g'ri topilgan timsollar yordamida suratga olingan rolik uchun oddiy odamlarning tabiiy holatlari ham, ishonarli va ta'sirchan ifoda vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Timsoliy videorolik. Bunda kompyuter grafikasi yordamida real hayotda bo'lmaydigan, bo'rttirilgan, ishonarli chiqishi uchun o'ta ta'sirchan tasvir ifodalarini yaratish mumkin. Maktab yoshidagi o'quvchilar, o'smirlar real hayotda bo'lmaydigan, fantastik syujet voqealarga qiziqishadi. Bolalarga ertak syujetlari yoqadi. Katta yoshdagi auditoriya ham orzu -armonlari ro'yobini ekranda ko'rishga qiziqishi mumkin. Ya'ni, timsollar yordamida sport mavzusida video ketma-ketlik tayyorlayotganda, maqsadli auditoriyaning qiziqishlarini hisobga olib, ularning xohishlariga ko'ra timsol tanlash mumkin. Masalan, har bir Olimpiyadaning ma'lum timsoli tanlanadi. Bu timsol o'sha Olimpiada voqealari va natijalari bilan auditoriya xotirasida saqlanishi tabiiy. Shu mavzuda videorolik tayyorlash uchun Olimpiada timsollaridan foydalanish mumkin. Timsoliy videorolik g'oyasini, ssenariysini tuzayotganda

inson xatti-harakatlarining ma'nosi, ranglar mazmuni, har bir holatni tomoshabinga qanday ta'sir etishini hisobga oladi. Shu bilan birga, qaysi auditoriyaga bu timsollar qanday ta'sir qilishini ham bilish kerak.

Sport tadbirlari paytida tayyorlanadigan videorolik. Sport mavzusidagi videoroliklar telekanalda doimiy uzatilishi, mavsumiy yoki biror-bir musobaqa oldidan ham, maxsus suratga olinishi mumkin. E'tiborlisi, har bir Olimpiada o'yinlari uchun translyatsiyani ochib beradigan, reportajlarni yakunlaydigan, o'sha o'yinlar timsollaridan foydalanadigan maxsus videoroliklar tayyorlanadi.

Musobaqa va bellashuvlar natijalari, qiziqarli jarayonlarini aks ettiruvchi roliklar ham tezlik bilan efirga uzatiladi. Olimpiada mavsumida bunday videoroliklar tomoshabin e'tiborini tortish va muhim voqealarni ta'sirchan ifodalashda qo'l keladi. Albatta, buning uchun mashhur aktyorlar ishtiroki, ma'lum bir ssenariy talab etilmasligi mumkin. Chunki jahonning yetakchi sportchilari yig'ilgan joyda har bir kutilmagan voqea, natija o'ziga xos improvizatsiyani keltirib chiqarishi, qiziqarli syujetlar g'oyasini berishi tabiiydir. Shuning uchun Olimpiada paytida suratga olingan videoroliklar chiroyli dizayni, tabiiy jarayonlarni aks ettiruvchi tasvirlari bilan auditoriyani jalb qiladi. Bu amaliyotdan yurtimizda o'tkaziladigan yirik sport tadbirlari paytida ham foydalanish mumkin.

Musobaqa jarayonlari paytida suratga olingan videoroliklar tomoshabinlarning diqqatini shu

tadbirda tortadi hamda keyinchalik qiziqarli lahzalarni o'zida aks ettirgan roliklar yaratilishiga asos bo'ladi. Musobaqa paytida ko'chma televizion stansiya tomonidan suratga olinib, jonli tarzda efiga uzatilgan material nusxasidan sekinlashtirilgan kadrlarni olish mumkin. Sport tadbirlari paytida maxsus ajratilgan kamera bilan, aynan, videoketmaketlik uchun tasvir yig'ish ham yaxshi natija berishi mumkin.

Ikkinchi bob boyicha quyidagi xulosalarga kelindi: mediada, ayniqsa, televideniyeda sport mavzusida material tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Tasvir va ovozning mavjudligi sport mavzusidagi materiallarning tomoshabinga ta'sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, yangilik, sharh, ko'rsatuv va videorolik tayyorlash texnologiyalari diqqatga sazovor. Shuning uchun mamlakatimizda "Sport" telekanalining tashkil etilishi o'zbek sport jurnalistikasi rivojida muhim qadam bo'lgan. O'tgan davr mobaynida yurtimizda radio va televideniyeda sport sharhlovchiligining o'ziga xos maktabi shakllangan. Shu bilan birga bosma nashrlarda ham sport mavzusi keng yoritilib kelinmoqda. Sportga ixtisoslashgan nashrlar, internet saytlari, ilmiy jurnallar faoliyat olib bormoqda.

Sport mavzusi jurnalistikaning barcha yo'nalishlarida o'z aksini topganligi diqqatga sazovor. Jahon miqyosida esa, bu jarayon ancha odimlab ketganligini ko'rish mumkin. Sport nashrlari konvergent ko'rinishida modernizatsiya bo'lgan. Aksar nashrlarning ijtimoiy tarmoq va internet saytlarida sahifalari, radio va hatto

telekanallarining faoliyat olib borishi jahonda sport jurnalistikasi taraqqiy etayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga mediabiznes sharoitida ijtimoiy sohalardan bo'lgan bolalar sport jurnalistikasining alohida e'tiborga muhtojligini ta'kidlash mumkin. Katta hajmdagi auditoriyani o'ziga jalb qila olmasa-da, yurtimizda sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, kelajak avlodni sportga jalb qilinishida bolalar mavzusini sport nashrlarida ko'proq yoritilishi zarurligini ta'kidlash mumkin.

Mediada sport mavzusining o'z auditoriyasi mavjudigi, daromad keltirishi, ko'plab sport yo'nalishlarining paydo bo'lganligi kelajakda sport jurnalistikasining yana-da taraqqiy etishidan dalolat beradi. Ishqibozlar qatorida tor soha mutaxassislarini ham o'ziga jalb qila oladigan sport nashrlari endilikda faoliyatlarini modernizatsiya qilishlari zarurligini ta'kidlash kerak. Bu esa, sport jurnalistining kasbiy mahorat masalalari nechog'lik dolzarbligini yaqqol ko'rsatadi.

III BOB SPORT JURNALISTINING KASBIY MAHORAT MASALALARI

3.1. Sport jurnalistikasida malaka talablari.

Jahonda sport jurnalistikasi keng taraqqiy etganligiga qaramay, yurtimizda bu mavzuga jiddiy qaramaydiganlar yetarli. So'nggi yillari terma jamoa a'zolarining yutuqlari, xususan, Parij - 2024 Olimpiadasida ko'rsatgan natijalaridan keyin mamlakatimizda sohaga munosabat ancha o'zgardi. Deyarli barcha telekanallar, bosma va internet nashrlarda atletlarimizning ko'rsatkichlari batafsil yoritildi. Sportchilarimiz millat qahramonlariga aylanishdi. Sportning rivojlanishi esa, o'z navbatida, sport jurnalistikasining taraqqiyotini belgilab beradi.

Sohaning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida kasbiy mahoratning alohida o'rni bor. Sport jurnalistikasida ham ixtisoslashuv mavjudligini tahlil etish zarurati paydo bo'ladi. Sport mavzusi ham, aynan, ixtisoslashgan soha kesimidagi tahlili o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Bunda muallif jurnalistikaning bilimdoni bo'lishi bilan birga, mavzu bo'yicha mutaxassisligi ham talab etiladi. Ixtisoslashuv keng ma'nodagi sport yo'nalishida emas, balki ma'lum bir sport turi bo'yicha mutaxassislikni taqozo etishi ham mumkin. Eng muhimi, ma'lum sport turi bo'yicha mutaxassis bo'lgan muallif jurnalistikaning asosiy talablari: haqqoniylik, xolislik, insoniylik kabi tamoyillarga amal qilishi, etik va lisoniy me'yorlariga rioya etishi

kerak. Qahramonni qiziqarli suhbatga chorlay oladigan, mavzuni u yoki bu shaklda o'quvchiga manzur bo'ladigan tarzda yetkazib bera oladigan mahorat sohibi bo'lgan muallif mavzuga doir ta'sirchan material tayyorlay oladi.

Sport jurnalistlari sport turlariga ko'ra ham ixtisoslashadilar. Masalan:

Ommaviy sport turlariga ixtisoslashuv. Jurnalistlar futbol, tennis, yakkakurash kabi ommalashagan sport yo'nalishlariga ko'ra ixtisoslashadilar.

Ekstremal sport turlariga ixtisoslashuv. Serfing, snoubording, alpinizm kabi eksremal sport turlariga ko'ra ixtisoslashuv.

Sportchilar va ularning faoliyatlariga ixtisoslashuv. Jurnalistlar ma'lum bir sportchi, ularning natijalari, hayot yo'llarini tahlil etadilar.

Sport nazariyasi va sport tibbiyotiga ixtisoslashuv. Sportning ilmiy nazariy aspektlarini, tibbiy o'ziga xosligini yoritishga ixtisoslashuv.

Sport tuzilmasi va anjomlariga ixtisoslashuv. Yangi texnologiyalar, anjomlar, sport olamidagi zamonaviy yondashuvlarga ko'ra ixtisoslashuv.

Sport atamalaridan o'rinli foydalanish, aniq va to'g'ri savol tuza olish, sportchi, murabbiy, hakam, mutasaddilar bilan kommunikatsiyaga kirisha olishlariga to'g'ri keladi. Sohada faoliyat ko'rsatuvchilardan kam bo'lmagan bilim bazasiga ega bo'lishlari uchun sport jurnalistlari o'z ustilarida tinmay ishlashlari, tanlagan yo'nalishlarida tinimsiz malakalarini oshirishlariga to'g'ri keladi. Ular murabbiy va hakamlar bilan bir

qatorda har Olimpiya o'yinlaridan keyin yangilanadigan hakamlik tizimi, qoidalarini o'zlashtirishdan tortib, sportchining o'ziga xos psixofiziologik holatidan ham xabardor bo'lishlari lozimdir. Shundagina sport jurnalistlari o'z kasbiy faoliyatlarida mahoratlarini namoyish qilib, kerakli mutaxassisga aylanadilar.

Sport jurnalistikasida professional o'sishning o'ziga xos zinapoyasi mavjud. Mumtoz jurnalistika hamda tanlangan sport yo'nalishi bo'yicha zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganlar oddiy muxbirdan yetakchi mutaxassisgacha bo'lgan kasbiy mahorat yo'lini bosib o'tadilar. Ana shu yo'lning ketma- ketligini quyida tahlil qilib o'tamiz.

Sport muxbiri. Bu bosqichda jurnalist sport voqelarni yoritishning asoslarini o'rganadi, o'zining yozish uslubini shakllantiradi. Muxbirlar asosan "kim?", "nima?", "qachon?", "qayerda?" kabi bir qator birlamchi savollarga javob topishga harakat qiladilar. Televizion dastur uchun yangiliklar blokiga bir daqiqa atrofidagi xabar uchun tahminan bir betlik matn yozish, bir - ikkita respondentdan intervyu ola bilish talab etiladi. Albatta bunda sport muxbirining kommunikativ xususiyatlari, ya'ni muloqotga kirishuvchanlik, respondentni gapirtira bilish ko'nikmalari kerak bo'ladi. Shu bilan birga qisqa hajmdagi lavhada axborotni tugal asar sifatida shakllantira olish ham zarur. Yangiliklar janrida ijod qilishda muxbirlarda tezkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlar rivojlanadi.

Sport yangiliklari muharriri. Muharrirdan bir nechta muxbirlar faoliyatlarini nazorat qilish, ularni

to'g'ri yo'naltirish, yangiliklarning kunlik dasturini tayyorlashi talab etiladi. Ijodkorlikdan boshqaruv mezoniga o'tishlikda mutaxassisda bir qator ko'nikmalar shakllanadi.

Sport olamidagi yangiliklarning muhimlarini saralash, muxbirlar yozgan matnni tahrirlash, bir nechta sport voqealarini bitta butun yangiliklar blokiga kompozitsion yaxlitlash kabi vazifalar sport yangiliklari muharriri vazifasiga kiradi. Sport voqealarini kuzatish, ularning kelgusi natijalarini prognozlash, oldindan voqea-hodisalar rivojini tahmin qilish qobiliyati ham sport muharririning malaka talablaridan biridir. Shu bilan birga tezkor qaror qabul qilish, ekstremal vaziyatlarda o'zini tuta bilish, muloqotga kirishuvchanlik ham asosiy kasbiy mezonlaridan biri.

Sport sharhlovchiligi. Sport sharhlovchisi bo'lish uchun og'zaki nutq va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanganligi kerak. Sport muxbiridan farqli o'laroq sharhlovchilar "nima sababdan?", "nima uchun?", "kelgusida nima bo'lishi mumkin?" kabi savollarga javob berishlariga to'g'ri keladi. Sport mavzusida sharhlar odatda jonli efirda olib boriladi, shu bois sharhlovchilarda aktyorlik mahorati talab etiladi. Bunda diksiya, improvizatsiya qilish xususiyatlar kabi qobiliyatlar mujassam bo'ladi. Sportni yaxshi o'zlashtirganlar tajriba oshirib, sport bo'yicha mutaxassis ekspert sifatida o'zlarini namoyon etishadi.

4. Sport bo'limi bosh muharriri. Bosma nashrlarda yoki internet saytlarda sport yo'nalshidagi rukn doimiy faoliyat yuritsa, bunday

bo'limga bir nechta muxbirlarni boshqarish uchun bosh muharrir kerak bo'ladi. Jamoani boshqarish va muhim voqealarni saralab, nashrga tayyorlashda tahririyatning sport bo'limida uning tajribasi asqatadi. Bir emas, deyarli barcha sport yo'nalishlari bo'yicha malakali mutaxassis bo'lgan bosh muharrirlar strategik qarorlarni qabul qilishi, muxlislarni qiziqitira oladigan dolzarb mavzularni saralay olishi kerak. Shu bilan birga, kommunikativ va menejmentlik bo'yicha tajriba ham bosh muharrirdan talab etiladi.

Sport jurnalisti faoliyatining turli bosqichlarida ishlay olishi uchun bilim, malaka, ko'nikmalardan tashqari hayotiy tajriba, ish faoliyatining staji ham zarur. Mehnat va tirishqoqlik sport jurnalistining o'zi istagan faoliyat turi bilan shug'ullanishiga asos bo'ladi. Sport jurnalisti uchun doimiy talablar mavjud bo'lib, ulardan bir nechtasini quyida sanab o'tamiz.

Auditoriyaning sportga bo'lgan qiziqishi. Ixtisoslashuv nuqtayi nazaridan sportga bo'lgan qiziqish keng qamrovli muxlislarni o'ziga jalb qiladi. Shu kungacha sport auditoriyasi asosan erkaklardan iborat bo'lsa-da, so'nggi yillari deyarli barcha sport turlarida ayol sportchilarning ishtiroki kuzatilmoqda. Shu bois, sport muxlislari ichida ayollar ham ko'paymoqda. Muhim sport tadbirlari natijalarini kuzatish, ular haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish uchun ishqibozlar o'zlarini bo'sh vaqtlarini sport materillarini o'qishga bag'ishlashadi. Sport katta hajmdagi auditoriyaning

bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish vositasi ekanligi sohaning ommaviyligini belgilab beradi.

Sport tadbirlarini tashkil etishda, sport jurnalistlarining ishtiroki juda zarur. Barpo etilayotgan barcha zamonaviy sport inshootlarida sharhlovchilar uchun alohida xona, kamera o'rnatish uchun maxsus joy, ko'chma televizion stansiya uchun sharoitlar, matbuot anjumanini o'tkazish uchun konferens xollar zarurligi hisobga olinadi. Ya'ni, sport musobaqalarining muhim tashkiliy qismi etib ularning mediada yoritilishi hisoblanadi. Shunday ekan, sport jurnalistikasi sohani ommalashtirish nuqtayi nazaridan zaruriy komponentdir. Aksariyat musobaqalarda nafaqat muxbirlar, balki muxlislar uchun ham joylar ajratilishi fuqarolik jurnalistikasi ko'rinishi bo'lgan blogosferaning ham musobaqalarning yoritilishida muhimligidan dalolat beradi.

Sport industriyasining rivojlanishi. Sport bugungi kunda jismoniy madaniyat ko'rinishidan katta foyda keltiradigan biznesning bir ko'rinishiga aylangan. Sohaga ixtisoslashgan ko'plab ishlab chiqaruvchilar faoliyatining rivoji sport nashrlaridagi reklamalarga bog'liq. Bunda hammabop sport turlari bo'yicha sport anjomlari, kiyimlarini reklamasidan tortib, havaskorlar uchun mo'ljallangan sport markazalarning faoliyatini ham o'zida qamrab olinadi.

Tibbiy sog'lomlashtiruvchi muolajalar bilan birgalikda olib boriladigan umumiy jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'z ichiga olgan sport markazlari nafaqat sport muxlislarini, balki

salomatligini tiklashni istagan barcha yoshdagi odamlarni ham jalb qilishga intiladi. Sport markazlarining faoliyatini yoritish ko'proq odamlarni ularga jalb qilishda sport sohasidagi jurnalistlar faoliyati zarurligini amaliyot ko'rsatmoqda.

Sport tahlilchiligi. Sport jurnalistikasida texnologiyalarning rivoji va sport statistikasi ma'lumotlarining ochiqqlanishi sohadagi tahlilga ehtiyojni oshirdi. Mutaxassislar statistikani o'rganib, analiz qilishmoqda, muxlislar uchun tahliliy materiallarni taqdim etishmoqda. Bu sharhlar - sportning sog'lomlashtiruvchi xususiyatlaridan tortib, professional sport sohasidagi o'zgarishlarigacha bo'lgan tahlillarni o'z ichiga olib, sohadagi yangilanishlarni keng ommaga taqdim etishga xizmat qiladi.

Sportning madaniy ahamiyati. Sport jamiyatga ta'sir etuvchi madaniy hodisadir. Har bir sport tadbiri turli ijtimoiy siyosiy masalalarning muhokama etiladigan makonga aylanadi. Masalan, Rossiya- Ukraina urushi munosabati bilan Parij-2024 Olimpiya o'yinlarida Rossiya bayrog'i ko'tarilmasligi, Rossiya terma jamoasi ishtirok etmasligi bo'yicha qaror qabul qilindi. Bu voqea jahondagi geosiyosiy jarayonlarning sport tadbirlariga ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birga mazkur o'yinlarning ochilish marosimidagi shoularning turli rakursdagi tahlillari ham keng muhokama etildi. Ya'ni sport musobaqalarini - jamiyatdagi voqea- hodisalardan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, sportning

ijtimoiy, madaniy xususiyatlarini to'g'ri, haqqoniy tahlil qila oladigan sport mutaxassislariga ehtiyoj bo'ladi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda sport mavzusi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning vujudga kelishi sport xabarlarini tezkor tarqatish imkonini berdi. Ko'pgina sport nashrlari konvergentlashib, an'anaviy media ko'rinishidan tashqari internet saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlarda ham yangiliklarni uzatishni yo'lga qo'yishdi. Jurnalistlar tarmoqlar orqali muxlislar bilan muloqotga kirishib, voqea hodisalarning muhokamasini olib borishmoqda. Yangiliklar bu shaklda tezkor tarqalmoqda hamda foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini bilish imkoni yaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida sport mavzusidagi interaktiv dasturlarning ko'payishi, jamiyatda ko'p fikrlilikning vujudga kelishi uchun zamin hozirlamoqda.

Sport musobaqalarining translyatsiyalari. Televizion translyatsiyalaridan tashqari tadbirlarni internet saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlarda ham onlayn shaklda namoyish qilish imkoni mavjud. Muxlislar shu vaqtning o'zida ham musobaqalarni tomosha qilib, ham mulohazalarini bildirib, ham mutaxassislariga savol yo'llamoqdalar. Endilikda, konvergent usulda ishlaydigan tahririyatlarda onlayn shaklda faoliyat yurita oladigan, muxlislar bilan kommunikatsiyaga kirisha oladigan, noodatiy vaziyatlarga tayyor bo'lgan kreativ fikrleydigan mutaxassislarga ehtiyoj bor.

Yuqoridagi faktorlar zamonaviy media olamida sport jurnalisti kasbiga doimiy talabni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda sport axborotini sifatli, haqqoniy yetkazib berib, tahliliy material tayyorlashga ehtiyoj katta. Barcha ixtisoslashgan jurnalistika ko'rinishlarida bo'lgani kabi sport jurnalistikasida ham kasbiy mahoratga talablar yuqori. Hozirda sport jurnalistlari sohaga doir bir necha ish joylarida faoliyat ko'rsata oladilar.

Sport nashrlari. Ular bosma hamda internet saytlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga ularda sport yangiliklarini tayyorlaydigan markaziy va hududiy nashrlardagi sport bo'limlari ham mavjud.

Telekanallar. Sport jurnalistlari televideniya muxbir, sharhlovchi yoki tahlilchi sifatida yangiliklar dasturlarida, sport tadbirlari musobaqalari translyatsiyalarida yoki televizion ko'rsatuvlarda faoliyat yuritishlari mumkin.

Radiokanallar. Radioda sport jurnalistlari sport musobaqalarini sharhlashadi, intervyular tashkil qilishadi, sport yangiliklarini tayyorlashadi.

Internet va on-layn media. On-layn platformalar, sport yangiliklari saytlari, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar sport jurnalistlari uchun axborot tarqatish va tahlil qilish usulidagi ko'plab ish o'rinlarini taklif qila oladi.

Sport tashkilotlarida faoliyat ko'rsatish. Ba'zi sport jurnalistlari assosiyatsiyalar, federatsiyalar, markazlarning o'zida ishlashlari mumkin. Bunda ular tashkilot tomonidan olib borilayotgan ishlarni ommalashtirish, jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga

qo'yish, tashkilotning rasmiy saytini yuritishda faolyat ko'rsatishadi.

Ta'lim sohasida ishlash. Sport sohasidagi yetuk mutaxassislar sport jurnalistlarini o'qitish, malakasini oshirish, sohaga doir ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha trening o'tishlari, saboq berishlari mumkin. Sohaga doir o'quv-uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqishda faol izlanishlar olib borishlari ham ko'zda tutiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarning taraqqiyoti sport jurnalisti faoliyatiga ham qator yangilanishlarni olib kirdi. Bugungi kunda media, axborot texnologiyalar, sport va umuman madaniyat ko'rinishlarining simbioz ta'siri borasida so'z yuritish mumkin. Mazkur simbioz bu munosabatlarning ko'p qirrali va uzoq muddatli, har tomonlama manfaatiga zamin hozirlaydi. Raqamli televideniye, smartfonlar qatorida internet bugungi kunda yangilik hisoblanmaydi, ammo sport mavzusidagi media kontent yaratishda o'ziga xos yangilik bo'ladi. Bu qulayliklar raqamlashtirish, konvergentlashuv va interaktivlik jarayoni bilan namoyon bo'ladi. Televideniyeda raqamlashuv efir sifatini oshishi hamda bir necha kanallar orqali material uzatishni ta'minlaydi.

Sport jurnalistikasida raqamli texnologiyalar. Sport jurnalistlari auditoriyaga qiziqarli va ko'rimli material tayyorlash uchun yangi texnologiyalarni o'zlashtirmoqdalar. Tomoshabin va onlayn foydalanuvchilar ehtiyojlariga ko'ra ish jarayoni tezkor va raqamlashgan bo'lmoqda.

Raqamlashgan transformatsiya. Onlayn media va raqamli platformalarning ommalashuvi natijasida sport jurnalistlari internet uchun kontent yaratishga harakat qilishmoqda. Ular maqola yozish, video va audio materiallar tayyorlash hamda veb-sayt, ijtimoiy medialar uchun interaktiv qulayliklar yaratishmoqda.

Manbalardan foydalanish va tahlil. Sport jurnalistlari zamonaviy talabga ko'ra, tahliliy material tayyorlash uchun statistik ma'lumotlardan, ishonchli manbalardan foydalanishadi. Bunda avtomatlashuv va sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati bilan ishni yengillashtiradi.

Interaktiv kontent. Kelajakda virtual imkoniyatlardan foydalanib sport jurnalistlari muxlislar sport olamiga yanada chuqurroq kirib borishlari uchun virtual mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan interaktiv ssenariylar yaratishlari mumkin.

Mobil texnologiyalar. Mobil qurilmalarni taraqqiyoti natijasida sport jurnalistlari smartfon va planshetlarda qabul qilinishi qulay bo'lgan media kontent yaratishmoqda.

Ijtimoiy medialar. Sport jurnalistlari auditoriya bilan muloqotga kirishish va materiallarini ommalashtirish uchun ijtimoiy medialardan unumli foydalanishlari kerak. Bu talablar striming hamda jonli efir translyatsiyalari vaqtida ishqibozlar bilan chatlarni o'z ichiga oladi.

Virtual press-konferensiyalar va intervyular. Sportchi, murabbiy, mutaxassis va mutasaddilar bilan sport jurnalistlari onlayn press-

konferensiyalar va intervyular tashkil etishlari mumkin.

Sun'iy intellektdan foydalanish. Sun'iy intellekt tahrir va matnlarni korrekturasida yordam berishi mumkin. Bu esa, sport jurnalistlariga vaqtni iqtisod qilish va aniqlikka erishishda qo'l keladi.

Texnologiyaning tezkor rivojlanishi va media landshaftining o'zgarishi sport jurnalistining malakaviy talablariga ham yangilanishlar olib kirdi. Ijtimoiy media va on-layn platformalarning ommalashuvi natijasida zamonaviy sport jurnalistlari turli platforma va formatlar uchun material tayyorlay olishlariga to'g'ri keladi. Ish jarayonida qator tahliliy vositalar va data jurnalistikadan foydalanish shundan so'nggina ko'payadi. Sport jurnalistlari auditoriyaga chuqur tahliliy materiallar, musobaqalar analizlarini taqdim eta oladilar. Vizual va interaktiv usullardan foydalanish bundan keyin odatiy holga aylanadi.

Raqamli texnologiyalarning taraqqiyotiga qaramay, sport jurnalistlarining asosiy vazifasi bo'lgan qiziqarli hikoya yaratish, kommunikatsiyaga kirishish, suhbatlashish kabi mumtoz jurnalistika talabalari o'z kuchida qoladi. Sport jurnalistlari bundan keyin ham sport va jamiyatni bog'lab turuvchi kommunikativ vazifani bajaradilar. Musobaqalarni yoritish bilan birga ular sportga bog'liq jamiyatdagi barcha ijtimoiy - madaniy aspektlarni auditoriyaga yetkazadilar.

Sport jurnalistining kasbiy mahorat masalalari borasida so'z ketganda, albatta, ma'lumotlarning aniq va ishonchliligi masalasi ko'ndalang turadi.

Barcha jurnalistlar kabi sport sohasida faoliyat olib boruvchilar tashkilot, terma jamoa a'zolaridan olingan ma'lumotlardan foydalanishdan avval yoritilayotgan jarayon tarixini o'rganishlari talab etiladi. Manbalardan yoki respondentlardan olingan har qanday axborot aniqlashtirilishi talab etiladi. Material tayyorlayotganda jurnalistlar berilgan axborotga nisbatan shubha bilan qarashni o'rganishi kerak. Chunki: "Sport musobaqalariga tayyorgarlik jarayonlari, sportchi va murabbiylar, tayyorgarlikning o'ziga xos taktik jihatlar haqidagi axborotni ommalashtirishni istamay sport tashkilotlari aniq ma'lumotlarni ochiqalmasliklari mumkinligini hisobga olish kerak"⁶⁹. O'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadigan jurnalistlar materialni chop etishdan avval axborotni bir nechta manbalardan tekshirib ko'radilar. Yillar davomida sport jurnalistlari o'z yo'nalishlarida yetuk mutaxassis bo'lib yetishib chiqadilar. Ular turli tokshou, ko'rsatuv va intervyularga mutaxassis sifatida ham taklif etiladilar.

3.2. Sport jurnalistining mas'uliyati

Sport mavzusidagi materiallar o'zining tezkorligi, axborotga to'yinganligi, tahliliyligi bilan ahamiyatlidir. Bunda kichik xabarlardan tortib, chuqur tahliliy materiallarni ham tayyorlash

⁶⁹ Спортивная журналистика в системе современной медиакommunikации. Шарков Ф.И., Силкин В.В., Лайшев Р.А. Коммуникология. 2018.Том 6. № 4. - С. 60 - 75 [http: // www.communicology.us /](http://www.communicology.us/)

mumkin. Sport mavzusida tayyorlanadigan material, o'zining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Televideniye sohasida tomoshabin musobaqani tomosha qilish jarayonida tasvir va jonli shovqin - «intershum» yordamida axborotning teng yarmiga ega bo'lishi mumkin. Telejurnalist oldida ushbu voqea sababi va uning keyingi tadrijini tahlil qilish vazifasi turadi. Gazetaning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda muallif so'zning ifodaviy kuchidan foydalanib, tasvir, ovoz va ohanglar yordamisiz voqea-hodisalarga munosabatini bildirishi kerak. Voqea -hodisalar, aynan, harakatga doir bo'lgani uchun bu jarayonni yana-da qiziqarli va hayotiy tarzda o'quvchiga yetkazib berish jurnalistdan mahorat talab etadi. Bunda fotojurnalistika unsurlari ham yordam berishi mumkin.

Shu o'rinda mavzuga doir surat topish muallif mas'uliyatini yana-da oshiradi. Bosma matbuotda, televideniyaedagi jonli efirdan farqli o'laroq, bo'lib o'tgan voqealar tafsilotlari yoritiladi. Demak, muallifdan sohaga oid bilimlarning chuqur tahlili talab etiladi. Gazetani qo'liga olganlar u yoki bu hodisaga mutaxassisning yondashuvini kutadi.

Har qanday vaziyatda imloviy va uslubiy xatoliklarga e'tiborli bo'lish. Sport sohasida yangiliklar soniya sari o'zgarib boradi. Natijalar yangilanadi, bugungi yulduz sportchi ertaga o'yindan chiqishi mumkin. Yoki hech kim tanimagan atlet g'alabaga erishib, nashrning birinchi betidan joy olishi hech gap emas. Gazetalar tezlikda chop etilsa-da, turli imloviy xatoliklarga yo'l qo'yilmasligi

kerak. Imloviy xatolar o'quvchini ushbu nashrga nisbatan hurmatini kamaytirishi, yoshlarni savodsizlikka ko'niktirishi mumkin. Internetdagi imloviy kamchiliklarning uchrashi odatiy holga aylangan, ammo bosma nashrlarda ularning uchrashi kechirilmaydi.

- Barcha bosma nashrlar talabiga binoan musahhihlik ishiga jiddiy e'tibor berish kerak. Bunda harflarning tushib qolishi yoki boshqa harf bilan almashgan holatlariga yo'l qo'ymaslik kerak.

- Gazeta ommaviy, o'qishli bo'lishi mumkin. Ammo bunda ba'zi atamalar og'zaki nutq talaffuziga ko'ra yozilishi mumkin emas.

- Rus tilida chop etiladigan nashrlarda shu tilni mukammal biluvchi musahhihning ishi talab etiladi. Material qanchalik dolzarb mavzuda tayyorlangan bo'lmasin, undagi grammatik yoki imloviy xatolar maqola saviyasiga ta'sir qiladi.

Umuman olganda, barcha OAV kabi, nashrlar ham aholining savodxonligini oshirishda, ularning madaniy saviyasini ko'tarishda alohida o'rin tutadi. Shuning uchun, ayniqsa ixtisoslashgan nashrlarda, imloviy hamda uslubiy xatolarga yo'l qo'yish - kechirilmas holatdir.

Sarlavha tanlaganda so'zning ma'nosiga e'tiborli bo'lish talab etiladi. Sport sohasida bir hil ma'lumotlarni qiziqarli tarzda yoritish maqsadida turli tashbehlardan foydalanish mumkin. Ammo so'zga bo'yoq berilganda uning mazmuni va ta'sirchanligiga putur yetmasligi muhim. Materialga sarlavha tanlash ham bir san'at bo'lib, bunda maqola mazmuni o'quvchini o'ziga jalb qilishi bilan

birga uning alohida qirralarini ochib berishi kerak bo'ladi. Sarlavha tanlashda quyidagilarga e'tibor berish mumkin:

- Tarjima asosida tayyorlanayotgan materiallarda so'zga e'tiborli bo'lish. Ma'lumki, xorij sportiga oid axborot, asosan, internet ma'lumotlarning o'zbek tiliga tarjimasi asosida tayyorlanadi. Aynan ana shu jarayonda bir oz g'aliz jumlar yoki odob me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan frazeologik birikmalar hosil bo'lishi mumkin. Shuning uchun sport mavzusida qalam tebratayotgan jurnalistlar sohaga oid bilimlar bilan birga tarjima mahoratidan ham xabardorliklari talab etiladi.

- Turli antonimlardan foydalanayotganda maqola mazmunidan kelib chiqish kerak. Bunda jarangdorlik, o'ziga xoslik taqdim etish uchun maqola mazmuniga to'g'ri kelmaydigan so'z yoki iboralarni ishlatmaslik kerak.

- Auditoriyaga salbiy (negativ) mazmun kasb etuvchi iborani qo'llashdan avval, material ana shu bo'yoqqa javob bera olishini diqqat bilan tahlil qilish kerak. To'g'ri, ba'zan o'ta salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan iboralar o'quvchi diqqatini tortishi mumkin, ammo uning mazmun maqolada aks etmasa, sarlavha o'zini oqlamaydi.

Ta'sirchanlikni oshirish maqsadida timsoliy o'xshatishlardan foydalanish. Sport sohasidagi atamalar o'zgarmas, necha yillardan beri ma'lum qoida va tartib bilan shakllangandir. Sport yo'nalishidagi tibbiyot, psixologiya, ishlab chiqarish sohalari kabi jurnalistika ham o'ziga xos ifoda

usullari yo'lida izlanishlar olib boradi. Shu o'rinda sport olamidagi yangiliklarni o'quvchilar e'tiboriga havola qilishda timsoliy o'xshatishlar, sa'j qo'llashning samarasi yuqoridir.

Sport bir qarashda oddiy: tezlik, vaqt, vazn, ball va ochkolarga ko'ra natijalar sarhisob qilinadigan soha bo'lib ko'rinishi mumkin. Ammo mavzuga chuqurroq, ijodiy yondasha olgan jurnalist so'z boyligi hamda tajribalar asosida shakllangan mahorati bilan har bir materialga o'ziga xoslik baxsh etishi mumkin. Buning uchun sportning u yoki bu yo'nalishini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlik hamda jurnalistika tamoyillariga rioya qilishlik yetarli bo'lmay qoladi. O'quvchiga ma'lumotni qiziqarli tarzda taqdim etishda badiiy ijoddan foydalanish, so'z san'ati yordamida maqolaga betakrorlik bahsh eta olish mutaxassislar oldida turgan vazifalardan biridir.

Mavzuga doir tasvir matnga mos kelishi lozim. Telejurnalistikada tasvir g'oya - va mazmunni yetkazib beruvchi asosiy vositadir. Matbuotda fotosuratlar matnni izohlab keladi. Shunday bo'lsa-da, fotosuratlarning berilishiga bee'tibor bo'lish mumkin emas. Boshqa sohalarda tasvir ko'rinishi maqolaning umumiy mazmuniga mos tushishi yetarli bo'lsa, sport sohasida suratlarda ma'lum bir sportchi, ma'lum bir jamoaning tasviri bo'lishi zarur. Ruhshunoslarning tadqiqotlariga ko'ra, inson ko'rish orqali olam haqidagi ma'lumotlarning tahminan 90% olar ekan. Gazetani varaqlayotgan o'quvchi avval suratga qarab, keyin maqolani o'qishi

mumkin. Fotosuratning maqola mazmuniga mos kelmasligi material ta'sirchanligini kamaytiradi.

Ma'lumotlar olingan manbalarni, material tayyorlagan mualliflarni ko'rsatish kerak. Bugungi kunda bosma matbuotda jahon sportiga oid materiallar aksariyat holatlarda internet saytlari ma'lumotlari asosida tayyorlanadi. Ma'lumotni u yoki bu manbadan olinganligini ko'rsatish jurnalistikaning mualliflik huquqi bo'yicha asosiy tamoyillariga to'la rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Internet ma'lumotlari asosida material tayyorlagan muallif nomi ham qayd etilishi ushbu nashrning saviyasini belgilab beradi.


Jurnalist etikasi, adabiy til me'yorlariga rioya qilish. Jurnalist etikasiga oid muammo butun dunyo amaliyotchi jurnalistlari hamda soha mutaxassislari oldida yechimini kutayotgan asosiy masalalardan biridir. Amaliyotchilar so'z erkinligi tarafdorlari bo'lishsa, soha mutaxassislari bu erkinlikni kasbiy odob me'yorlariga ko'ra maxsus chegaralari mavjud ekanligi borasida ilmiy izlanish olib boradilar. Axborot to'plash, ma'lumotlarni aniqlash borasida jurnalistlar inson huquqlari, har bir shaxsning dahlsizligi borasidagi me'yor chegarasini aniqlashtirmoqdalar. Bunda OAV demokratlashtirish bilan birga so'z erkinligining o'ziga xos uyg'unligini yaratish borasida milliy mentalitet bilan bog'liq muammolari ham mavjud.

Yurtimizda mustaqil radiostansiyalar faoliyatida jonli efirda material tayyorlash yo'lga qo'yilganidan keyin etik va til me'yorlarining buzilish muammosi dolzarb bo'lgan edi.

Tinglovchilar etik va til me'yorlariga rioya qilmaslikni interaktiv efirning o'ziga xos xususiyati sifatida qabul qilishardi. Bu kabi muammolar asosan raqobat kuchayib borayotgan mustaqil OAV faoliyatida kuzatilishi tabiiydir. Bunda reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida auditoriya didiga moslashayotgan jurnalistlar materiallarida etik va lisoniy me'yoriy buzilishlarni so'z erkinligi shaklida o'quvchilarga havola qilishlari odatga aylandi. Hozirda internet saytlaridagi bu muammo bosma matbuotga, bizning misolda, sport matbuotiga ham ko'chganini ko'rish mumkin. Izlanish doirasida olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, so'rovda qatnashganlarning 40% sport sharhlovchilari yo'l qo'yadigan asosiy xatolari sifatida shevani ishlatish ekanligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga start haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaslik ham jurnalistlarning ko'zga tashlangan kamchiliklaridan biri ekan. (5- rasm)

Спорт шарҳловчилари йўл қўядиган асосий хатоларни белгиланг

37 ответов



5- rasm. So'rovnoma natijalari aks etgan tasvir.

Sport mavzusida chop etiladigan gazetalarda biror-bir murabbiy, sportchi yoki soha mutaxassisi

bilan suhbatlar ko'p uchraydi. Suhbat janridan keng foydalanish ushbu janr gazetalarda o'ziga xos o'rin egallayotganligidan dalolat beradi. Suhbat janrining jurnalistga qo'yiladigan asosiy talabi esa, maqsadi aniq savol bera olishdir. Chunki, suhbatdoshdan auditoriya uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishda jurnalist savolining ahamiyati katta. Bunda ijodkor ushbu jarayonga tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi, mavzuni yaxshi bilishi talab etiladi. Inson psixologiyasi, sportchilarning o'ziga xos ruhiyati, umuman olganda, suhbatdoshning o'ziga xos tabiatidan xabardorlik talab etiladi. Agar muxbirda suhbatdosh bilan birinchi uchrashuv bo'lsa, uning qaysi jihatlari auditoriyaga ma'lumligini bilib, shunga qarab jarayonni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ko'pincha, muxbirlar suhbatga tayyor bo'lmagan, savollarga javob berishni istamagan respondentlar bilan uchrashishga, ularni "gapirtirish"lariga to'g'ri keladi. Ma'lumot berishni istamagan mutasaddi rahbarlardan tortib, ommaviy axborot vositasi xodimi oldida o'zini yo'qotib qo'yadigan oddiy odamlar bilan suhbatlasha olish jurnalistning kasbiy mahoratiga kiradi. Umuman olganda, intervyu olishdan avval jurnalist bilan respondent avvaldan tayyorgarlik ko'rish, suhbatning yo'nalishini, beriladigan savollarni aniqlashtirish mumkin. Improvizatsiya holatlari suhbatga o'ziga xoslik kiritisa-da, uning kechishi jurnalistning mahorati va, albatta, ikkala tomonning qanchalik madaniyatligiga bog'liq bo'ladi.

Sohaga oid jurnalistning etik va adabiy til me'yorlariga rioya qilishi bo'yicha kuzatuvlarga ko'ra quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- O'quvchilar e'tiborini qozonish yoki mavzuning dolzarbligini oshirish maqsadida ham, jurnalist odob chegaralaridan, adabiy til me'yorlaridan chiqmasligi zarur. Ushbu me'yorlar yillar davomida xalqning madaniy merosi sifatida shakllanib kelgan. Bu chegaralardan chiqish mutaxassisning madaniyatsizligidan dalolat beradi. So'z erkinligi- har bir shaxs va individning bu huquqdan foydalana olish imkoniyatini bersa-da, boshqa bir shaxsga nisbatan hurmatsizlik qila olish huquqini bermaydi. Ommaga taqdim etiladigan nashrlarda bu kabi odobsizlik holatlari sport mavzusidagi nashrlarning o'ziga xos xususiyati tarzida qabul qilinishi mumkin emas. Ishqibozlarning o'yin jarayonidagi "jazava"lari matbuotga ko'chayotganda jurnalistikaning tamoyillarini inobatga olish kerak.

- Suhbat jarayoniga jurnalist jiddiy tayyorgarlik ko'rishi kerak. Buning asosiy sharti esa, respondentga maqsadi aniq savolni bera olishdir. Suhbatning qiziqarli bo'lishi jurnalistning ana shu savollariga bog'liq. Bosma matbuotning jonli efirdan afzallik jihatlari bor. Ana shunday imkoniyatlardan biri- javobsiz qolgan savolni, shu bilan birga respondentning o'rinsiz e'tirozlarini ham chop etmaslikdir. Har qanday vaziyatda suhbatni tahrir qilib chop etish material saviyasini oshiradi. Uning aksi esa, gazeta reytingiga ta'sir qilishi mumkin.

Sohaga oid atamashunoslikni rivojlantirish, maqola chop etayotgan mualliflarni jurnalistika talablaridan xabardor qilish mazkur sohaga oid amalga oshirilishi zarur bo'lgan dolzarb muammolardan biridir.

Sport atamalaridan o'rinli foydalanish.

Ma'lumki, biron bir sport turining atamalari o'sha sport turi paydo bo'lgan, qoidalari tuzilgan mamlakat tilida yuritiladi. Masalan, qilichbozlik atamalari fransuz tilidan olingan, dzyudoniki yapon so'zlaridan iborat. Ba'zi atamalarni tarjima qilib bo'lmaydi. Ularni shundayligicha, xalqaro me'yorlarga ko'ra qabul qilish mumkin. Mutaxassislaring ta'kidlashicha, sport atamalarining aksariyati ingliz tilidan kirib kelgan: "Sport terminologiyasida o'zlashmalarning tez-tez ishlatilishi tufayli bu iboralar ekzotik ma'noga ega bo'lishdan to'xtadi. Ko'pgina yangi so'zlar va iboralarning manbai ingliz tilidir. Nafaqat sport atamalari, balki o'nlab ingliz tilidagi jargon va iboralar sport tilini sezilarli darajada kengaytirdi. Ularning aksariyati neologizm bo'lishni to'xtatdi va barchasi o'zbek tilining lug'atiga kirdi"⁷⁰. Bizning fikrimizcha, XIX asr o'rtalaridan XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda AQSHda sport uzluksiz rivojlanganligi tufayli soha taraqqiyoti kuzatildi. Garchi zamonaviy Olimpiya o'yinlari Yevropada qayta tiklangan bo'lsa ham, okean

⁷⁰ Гаффоров Н. Н. Спорт терминларининг лисоний тадқиқи: когнитив - прагматик ва лексикографик хусусиятлари. Фил. фанл. докт. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.. Т.: 2022. - Б. 134

ortidagi AQSHda barcha jahon urushlaridan nari bo'lish, ijtimoiy soha ko'rinishlaridan bo'lgan sport taraqqiyoti uchun yetarli sharoit yaratildi.

Sport atamalari ixtisoslikka oid qoidalarda shakllangan atamalardan tashqari murabbiy, mutaxassis, sportchilarning kundalik mashg'ulotlarda ishlatadigan iboralar orqali ham boyib boradi. Shu bilan birga muxlis va ishqibozlarning ham foydalanadigan iboralarining bunda o'rni bo'lakcha. "Zamonaviy sport tili sportchilar, sport ommaviy axborot vositalari va oddiy sport muxlislari tomonidan ishlatiladigan turli xil atamalarni o'z ichiga oladi. Har bir sport turining o'z termini bor - professional so'z va iboralar majmui mavjud. Sport tili turli xil ijtimoiy va yosh guruhlarining keng ommasi uchun tushunarli"⁷¹. Keng ommaga mo'ljallangan sport atamalari ham, ko'pchilik uchun tushunarli, ommabop bo'lishiga qaratiladi. Sport atamalari, tili va uslubi to'g'ri va aniq shakllanishi uchun bevosita katta hajmdagi auditoriya bilan ishlaydigan sport jurnalistikasining alohida o'rni bor. OAV orqali tarqatilgan iboralarining ixtisoslik bo'yicha savodli bo'lishi muxlis va ishqibozlarning sport savodxonligi oshishiga xizmat qiladi.

So'nggi yillari sport mavzusidagi ko'plab xabarlar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda. Shu bilan birga keng

⁷¹ Гаффоров Н. Н. Спорт терминларининг лисоний тадқиқи: когнитив - прагматик ва лексикографик хусусиятлари. Фил. фанл. докт. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.. Т.: 2022. – Б.137

jamoatchilik tomonidan sport atamalaridan noto'g'ri foydalanish hollari bo'yicha e'tirozlar ham ko'paymoqda. Sport federatsiyalari tomonidan o'zbek adabiy tilidan foydalanishda qo'pol xatoliklar uchramoqda. O'zbek tilida ham ma'lumot berish zarurati tufayli tarjima dasturlaridan foydalanish hollari ko'paygan. Bunda tarjimalar rus tilidan so'zma-so'z o'girilib, achinarli holatlarga duch kelinmoqda. Masalan, Jamoliddinxon Nurmuhamedovning ijtimoiy tarmog'ida O'zbekiston yengil atletika federatsiyasi tomonidan berilgan axborotdagi xatolikka ko'zi tushadi, bunga o'zining munosabatini bildiradi: "Yengil atletika federatsiyasi "medbrat" degan iborani "asal birodar" deb tarjima qilibdi. Avvalambor ayol kishi medsestra, ya'ni "asal opa" e, uzr, hamshira bo'ladi". (5-ilova) Bu holat sport tashkilotlari va markazlarida mediaga axborot joylashtirish bo'yicha o'zbek adabiy til me'yorlaridan xabardor bo'lgan xodimlar ishga jalb qilinishi darkorligini ko'rsatadi.

Mavzuga chuqurroq yondashish uchun federatsiyaning rasmiy saytiga murojaat qildik. Sayt <https://uz.uzathletics.uz/> ingliz tilidagi nom bilan atalgan. O'zbek tilidagi sahifasini ochdik. "Bosh sahifa Federatsiya Rahbariyat". Rahbariyat ruknida barcha ma'lumotlar rus tilida yuritilayotgan ekan. "Руководство Баходир Бахрамович Сидиков". "Председатель". va h.k. Federatsiya manzili ham rus tilida: "uzb@mf.worldathletics.org. Проспект И.Каримова д.98 А". (6-ilova) Sportga oid rekordlar ruknida esa ma'lumotlar yo'q. Ammo yozuvlar ham kiril, ham lotin yozuvida aralash va orfografik

xatolar bilan yozilganligini ko'rish mumkin. "Жахон рекордлари Dunyo yutuqlari. Юниорлар уртасида жахон рекордлари. Усмирлар ва Кизлар уртасида жахон рекордлари".(7-ilova) Mazkur misol sport atamalarini hatto federatsiya doirasida ham to'g'ri foydalanilmaslik, o'zbek tiliga bo'lgan munosabat sohaga doir markazlarda ham qoniqarli emasligidan dalolat beradi.

Ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik bilan aloqalarni yaxshilash hozirda barcha sport federatsiyalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Masalan, "yuniorlar" o'rniga "o'smirlar" yoki "sport ustaligiga nomzodlar" shaklida foydalanish mumkin. Shu bilan birga "usmirlar va kizlar" shaklidagi ibora ham sport yo'nalishiga to'g'ri kelmaydi. Bunda sport mutaxassislari sport ustaliliga nomzod bo'lgan yigit va qizlarni nazarda tutgan bo'lishi kerak, ya'ni sohadagi "yunior"larni. Ammo ibora g'aliz bo'lib qolgan. Chunki qizlar bu toifada ham o'smir, ham sport ustaligiga nomzod bo'lishadi. Shu o'rinda rasmiy saytda o'zbek tilidagi "O", "H", "Q" kabi harflarni o'z o'rnida qo'llanilishi zarurligini ta'kidlash kerak. Saytning o'zbek tilidagi nusxasiga qaraganda rus tilidagi shakli ancha to'liq, batafsil va qiziqarli yuritilishini ko'rish mumkin. Umuman olganda, sohaga oid tegishli idoralar yo'nalishlarini ommalashtirishni maqsad qilar ekanlar, albatta, rasmiy saytlarini auditoriyani o'ziga jalb qila oladigan, davlat tilida, savodli yuritishga alohida e'tibor berishlari zarur.

Sport atamalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha muhokamalarda asosan rus tilidagi atamalarni

o'zbek tiliga noto'g'ri o'g'irish holatlari bo'yicha e'tirozlar ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy tarmoqdagi jurnalist Orif Tolipovning @oriftolib manzili bo'yicha "Sablya emas, qilich" nomli maqolasida qilichbozlik sportiga oid atamadan o'zbek tilida noto'g'ri foydalanganlik holati tahlil qilinadi. "Bugun OAVda bir xabarga ko'zim tushdi, sarlavhasi: O'zbekistonlik sablyachilar Jahon kubogi bosqichida yuqori natijalarni qayd etdi. Iye, bu sablya degan ruscha so'z atama (<https://t.me/oriftolib/3642>) sifatida olinganmikan deb manba qaradim. Yo'q, olinmagan ekan. Odamlar tarjimasini topolmay, shunday o'g'irgan ekan. Qilichbozlik federatsiyasi saytida ham, o'zbekcha Vikipediyada ham yanglish tarjima varianti berilgan. Xo'sh, to'g'risi qanaqa bo'ladi? Milliy ensiklopediyaga ko'ra, qilichbozlikda musobaqalar rapira, qilich, shamshir (shpaga) sport qurollari vositasida o'tkaziladi. Ana shu sport qurollariga ko'ra qilichbozlik turlarga ajratiladi. Ruscha sablya so'zi bu o'rinda qilich deb o'g'irilgan. Shpaga so'ziga shamshir varianti tanlangan. Menimcha, sablya so'zini shamshir deb tarjima qilish kerak edi. Chunki (<https://t.me/oriftolib/2010>) hozirgi holatida qilichbozlikning qilich turi deb o'g'irishga to'g'ri keladi. Shpagani esa nayzaqilich deb o'zbekchalashtirsa yoki o'zini qoldirsa bo'lardi. Mabodo bu so'zlar atama sifatida olib bo'lingan desak, ensiklopediya variantidan foydalanavergan ma'qul. O'zbekchaga o'zlashmagan ruscha so'zni ishlatmaslik kerak. Sablyani olaveraylik deyilsa-chi? Unga hojat yo'q-da. Bu so'zni o'zbekchada qilich (<https://t.me/oriftolib/>

712]), shamshir soʻzlari ifodalaydi. Demak, qilichbozlik sportida uch shakldagi musobaqa oʻtkaziladi: rapira, qilich, shamshir. Yuqoridagi jumlani esa bunday tahrirlash mumkin: Oʻzbekistonlik qilichbozlar Jahon kubogi (<https://t.me/oriftolib/1643>) bosqichida yuqori natijalarni qayd etdi. Musobaqaning qilich yoʻnalishi haqidagi maʼlumot matnda berilaveradi”⁷². Ahamiyatlisi, mutaxassis mediada sport atamalaridan foydalanishda bir-biriga oʻxshash soʻzlarga duch kelganda oʻzbek tilidagi muqobil soʻzni topish masalasiga toʻgʻri yondashadi. Baʼzi atamalar tarjima qilinmaydi, masalan, rapira. Ammo “sablya” kabi rus tilidagi atamalardan voz kechib, oʻzbekcha soʻzlarni toʻgʻri tanlash mumkin.

Sport atamalarini toʻgʻri ishlatish va iboralarni qoʻllanilishi boʻyicha muhokamalarning yana birida, rus tilidagi iborani soʻzma-soʻz oʻzbek tiliga tarjima qilib ishlatilish borasida boʻlgan. Masalan, rus tilidagi materiallarda “действующий олимпийский чемпион” degan ibora ishlatiladi va gʻaliz eshitilmaydi. Oʻzbek tiliga bu ibora “harakatdagi(amaldagi) Olimpiada chempioni” shaklida qoʻllanilishi toʻgʻri emasligini jurnalistlar tanqid qilib, tahlilga tortishadi: “Parijda drama. Dzyudochimiz Diyora Keldiyorova yaponiyalik olimpiada va harakatdagi jahon chempioni, 5 yildan beri biror uchrashuvda yutqazmagan Uta Abeni musobaqadan shu tarzda chiqarib yubordi. Rosti, Diyora uchun qanchalik xursand boʻlgan boʻlgan

⁷² @oriftolib

bo'lsam, yaponiyalik sportchining holatiga shunchalik achindim. Uta Abe Olimpiadani kuzatayotgan barchani yig'latdi. @haqiqatdallyos. Ilyos Safarovda harakatdagi jahon chempioni deb beribdi. Действующий chempionni Amaldagi o'rniga. Ayni damlarda (28 iyul, soat 14 lar chamasida) "Sport" telekanalida dzyudoni sharhlayotgan sharhlovchimiz ancha tajribali. Ammo aynan sportga oid so'zlarni farqlamasligi chatoqda. Amaldagi Olimpiada chempioni degan iborani takror-takror ishlatyapti. U nima degani? Olimpiada chempioni nomi qaysi Olimpiadada bo'lgan bo'lsa shu nom bilan, ya'ni falon olimpiada chempioni degan nom bilan qoladi sportchida va shunday ataladi. Unda amaldagi, sobiq bo'lmaydi. Yana bu sharhlovchi yurtdoshimiz ishtirokidagi bahsdagi hakamni "xorijlik hakam" dedi. Nima, xalqaro bahsda bizning yurt sportchisi ishtirok etgan bahsda o'zimizning hakam bo'larmidi?"⁷³.

Televideniyeda mutaxassislar ko'p ishlatadigan "xorijlik hakam" iborasini qo'llanilishida mantiqsizlik mavjudligini jurnalist Chori Latipov ta'kidlaydi. Sport sharh'lovchilari aksariyat holatlarda sport turining doimiy yangilanayotgan qoidalarini o'rganishlariga to'g'ri keladi. Katta oqimdagi axborotni o'zlashtirish jarayonida undan o'z o'rnida foydalanish zarurati ham paydo bo'ladi. Bunday tig'iz paytda sharhlovchilar so'z etimologiyasini o'rgansh, chet tildagi atamalarga o'zbek tilidagi munosib muqobilini izlash uchun

⁷³ Chori Latipovning Fb dagi sahifasidan

fursat topishmaydi, ba'zan esa bunga ehtiyojni ham sezishmaydi. Hissiyotlarga berilib, sharhlash jarayonda bor so'z boyliklaridan foydalanishadi. Sharhlovchilar ovoz, intonatsiya kabi qo'shimcha vositalar orqali emotsiyalarini ifodalashadi va so'zlardan unumli foydalansh ikkinchi planda qoladi. Sharh jarayonidan nari bo'lgan ishqiboz jurnalistlar uchun sport atamalaridan noo'rin foydalanish yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun sport jurnalistlari, nafaqat o'zlari tanlagan sport yo'nalishlaridagi o'zgarishlarga doir ma'lumotlarni, balki sohaga doir atamalarni qo'llash bo'yicha malakalarini oshirib borishlari zarur.

Uchinchi bob bo'yicha shunday xulosalarga kelindi: jurnalistikaning ixtisoslashgan ko'rinishi bo'lmish sport jurnalistikasi o'z navbatida bir nechta tor sohalarga bo'linadi. Sport jurnalistining malakasi o'zi tanlagan yo'nalishni yaxshi o'zlashtirishini namoyon bo'ladi. Yillar davomida mahoratini oshirgan sport jurnalistlari muxbirlikdan ish boshlab, bo'lim boshlig'i, bosh muharrir, yetakchi mutaxassis bo'lib yetishadilar. Nafaqat kasbiy mahoratning shakllanishi, balki insoniy fazilatlarni takomillashuvi ham sport jurnalistining malakasining oshishiga zamin hozirlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarni rivojlanishi sport jurnalistiga qo'yiladigan talablarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Endilikda sport jurnalistlari konvergent tahririyatlarda faoliyat ko'rsatib, multimediaviy shaklda material tayyorlay olishlariga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni sport jurnalistlari

ham tanlagan sohani, ham barcha mumtoz jurnalistika ko'rinishlarini o'zlashtirishlariga to'g'ri kelmoqda.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati sport jurnalistlarining bir vaqtning o'zida ham internet saytlari, ham ijtimoiy tarmoq uchun material tayyorlashga majbur qiladi. Shu bilan birga auditoriya bilan o'zaro muloqotga kirishish interaktivlik xususiyati davr talab bo'lishga zamin hozirlamoqda. Virtual uchrashuvlar, onlayn press-konferensiyalar sport jurnalistining raqamli muhitdagi ish ko'lamini belgilamoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarning taraqqiyoti tahliliy materiallarni tayyorlash uchun qulay imkoniyatdir. Shu o'rinda sun'iy intellekt qulayliklari jurnalist ishini yana-da tezlashtirmoqda.

Zamonaviy sport jurnalistika olamida mamlakatimizda sport atamalaridan noto'g'ri foydalanish masalasi yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolardan biridir. Chunki yillar davomida deyarli barcha sport federatsiyalar, tashkilotlarda ish yuritish, atamalardan foydalanish rus tilida olib borilgan. Iboralar, frazeologik birikmalar o'zbek tiliga shunchaki so'zma-so'z tarjima qilingan. Ba'zan bu tarjimalarning mantiqsiz, matnga to'g'ri kelmasligi kuzatilmoqda. Sport atamalarining o'zbek tilidagi muqobili mavjudlari ham bor. Mazkur muammoning negizi sifatida sport markazlarining o'zida ham o'zbek tilidagi medialarga bee'tiborlik, yangi o'zbek alifbosidan noto'g'ri foydalanish, federatsiyalarning o'zbek tilidagi saytlarining savodxonlik holati

achinarli ekanligini ko'rish mumkin. Sport jurnalistlari sport atamalaridan o'rinli foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishlari davr talabiga aylangan.

XULOSA

“Sport jurnalistikasi zamonaviy trend sifatida” nomli tadqiqot doirasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Media biznes sharoitidagi yetakchi xususiyat bo'lgan ko'ngilochuvchi va marketologik jihatdan foyda keltirish xususiyati sport jurnalistikasining taraqqiyotini belgilovchi omilga aylangan. O'tgan asrda sport muayyan bir soha, ilmiy izlanish va nazariy yo'nalish sifatida tan olindi. Texnika taraqqiy etgan bugungi davr nafaqat jismonan sog'lom, balki imkoniyati cheklangan odamlarning sport bilan shug'ullanishi, turli musobaqalarda qatnashishlari uchun ham sharoit yaratadi.

2. Sport jurnalistikasida hissiy almashuv va eskeppizm holatlari vujudga keldi. Shu bilan birga sport jurnalistikasida xabar berish, tahlil qilish, ta'lim va tarbiya berish, targ'ibot va tashviqotni amalga oshirish kabi vazifalar ham mujassamligini ko'rish mumkin. Sportning rekreativlik, ya'ni ko'ngilochish vazifasi mavzuga qiziquvchilar sonini oshirmoqda. Odamlar vaqtni chog' o'tkazish, muammolaridan chalg'ish, sog'lom turmush tarziga rioya qilish uchun sportga oid materiallarni o'qishga qiziqishmoqda. Sport va jismoniy madaniyat har bir xalqning milliy qadriyati, urf-odatlarini shaklida rivojlangani ham bunga misol bo'lmoqda.

3. Yildan-yilga o'zbekistonlik atletlarning Olimpiya o'yinlaridagi natijalari yaxshilanmoqda. Bu esa mamlakatimizning jahon sportidagi nufuzini oshirmoqda. Sportning rivoji esa, yurtimizda sport

jurnalistikasining taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Endilikda nafaqat sportga ixtisoslashgan nashrlarda, balki markaziy medialarda ham sportga oid materiallar berib borilmoqda. Auditoriyaning sportga bo'lgan qiziqishi sohaning ommalashaib borayotganligidan dalolatdir.

4.O'tgan davr mobaynida yurtimiz radio va televideniyeseda sport sharhlovchiligining o'ziga xos maktabi shakllangan. Sportga ixtisoslashgan nashrlar, internet saytlari, ilmiy jurnallar faoliyat olib bormoqda. Sport mavzusi jurnalistikaning barcha yo'nalishlarida o'z aksini topganligi diqqatga sazovordir. Jahon miqyosida esa, sport nashrlari konvergent ko'rinishda modernizatsiya bo'lgan. Hozirda jahonning nufuzli nashrlari bosma shakllaridan tashqari internet sayt, ijtmoy tarmoqdagi sahifalarining faoliyatini ham yo'lga qo'yilgan. Ba'zi nashrlarning o'z tele- va radiokanallari ham mavjudligi sport jurnalistikasi taraqqiy etib kelayotgan yo'nalishlardan biriligini isbotlamoqda.

5. Mediabiznes sharoitida bolalar sport jurnalistikasi alohida e'tiborga muhtojligini ta'kidlash mumkin. Katta hajmdagi auditoriyani o'ziga jalb qila olmasa-da, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, kelajak avlodni sportga jalb qilinishida bolalar mavzusini sport nashrlarida ko'proq yoritilishi zarurligini aytib o'tish kerak. Olib borilgan tadqiqotlar sport mashg'ulotlari bolalar intellektini o'stiruvchi xususiyatining mavjudligi, sport barkamol avlodni voyaga yetkazishda katta

hissa qo'shishini isbotlaydi. Mamlakatimizning katta qismini yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, bolalar sporti mavzusi naqadar dolzarb bo'layotganligini ko'rish mumkin.

6. Sport jurnalistining mahorati o'z yo'nalishni yaxshi o'zlashtirishini nazarda tutadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarni rivojlanishi sport jurnalistiga qo'yiladigan talablarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Endilikda sport jurnalistlari konvergent tahririyatlarda faoliyat ko'rsatib, multimediamiy shaklda material tayyorlay olishlariga to'g'ri kelmoqda. Bunda ular ham maqola yoza olishlari, ham audio va video material tayyorlay bilishlariga kerakligini taqozo etadi. Hozirda zamonaviy saytlar ana shunday universal sport jurnalistlariga ehtiyojni sezishmoqda.

7. Raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati sport jurnalistlarining bir vaqtning o'zida ham internet saytlari, ham ijtimoiy tarmoq uchun material tayyorlashga, uchrashuvlar hamda press-konferensiyalarni onlayn shaklda o'tkazishga majbur qiladi. Sun'iy intellekt qulayliklari jurnalist ishini yana-da tezlashtirmoqda. Auditoriyada "nima uchun?" yoki "nima sababdan?" kabi savollarga javob beruvchi tahliliy materiallarga ehtyoji katta. Sport jurnalistlari tahlillarni isbotlab, turli axborot texnologiyalardan foydalangan holda ma'lumotlarni o'rganib, turli grafika, animatsiya shaklidagi vizual tayyorlangan materiallarni auditoriyaga taqdim etishlari kerak.

8. Zamonaviy sport jurnalistikasi olamida mamlakatimizda sport atamalaridan noto'g'ri

foydalanish masalasi yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolardan biridir. Ba'zi federatsiyalarning o'zbek tilidagi saytlarining savodxonlik holati achinarli ekanligini ko'rish mumkin. Sport jurnalistlari sport atamalaridan o'rinli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishlari davr talabiga aylangan. Ba'zi atamalar etimologiyasini, ularning o'zbek tilidagi muqobil variantlarini o'rganmay turib, mediada noo'rin so'z va iboralarning ishlatilishi sport jurnalistlari kasbiy kompetensiyalariga jiddiy e'tibor berishlari zarurligini ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va metodik ahamiyatga molik asarlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son (Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish yo'li orqali qabul qilingan).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

4. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // Yangi tahrirda. Toshkent. 2007.

5. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // Yangi tahrirda. Toshkent. 2015.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional

futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

II. Ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar va qo'llanmalar

8.Алексеев К.А., Ильченко С.Н. Спортивная журналистика: учебник для магистров. – М.: Издательство Юрайт, 2013.

9.Алексеев И.В. Теоретико-методологические аспекты исследования категории «Интернет-маркетинг» // Транспортное дело России. – 2014. №3.

10.Алексеев К.А., Ильченко С.Н. “Основы спортивной журналистики”: Учебное пособие для студентов вузов. – М.: Издательство “Аспект Пресс”, 2016. – 240 с

11.Боборажабов Э. Ўзбекистонда спорт сайтларининг пайдо бўлиши ва ривожланиш тенденциялари. Т.: GRAND KONDOR PRINT. 2024 – 120 б.

12.Boborajabov E.T. “O'zbekistonda sport saytlari: paydo bo'lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanish tendensiyalari”. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss..T.: 2024.- 137 б.

13.Гуреева Е. Спортивная терминология в ингвокогнитивном аспекте. Дисс.канд.фил.наук. Челябинск – 2007.

14. Демчук Н. В., Морозов А. С. Культурное наследие воспитания молодежи в Древней Элладe // Наука и инновации в XXI веке: актуальные вопросы, открытия и достижения:

сб. ст. победителей III Междунар. науч.-практ. конф.: в 2 ч. Ч. 1. Пенза, 2017.

15. Десюк Д.В. Языковая специфика спортивного телетекста. Знание. Понимание. Умение. – 2010. – Вып. 4. – 190 с

16. Донской Д. Роль и место спортивной журналистики в системе СМИ США. Дисс. к.ф.н. - М. : 2008

17. Дўстмуҳаммад Х., “Ахборот – мўъжиза, жозиба, фалсафа”. “Янги аср авлоди”, 2013

18. Дўстмуҳаммад Х. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарий методологик таҳлил. – Т.: Янги аср авлоди, 2007.

19. Дўстмуҳаммад Х., Тошпўлатова Н., Баҳриев К., Саидов Ф. Журналистика ҳуқуқи ва этикаси. II жилд. – Т.: НМИУ, 2019. – 240-б

20. Имомхўжаев А. Футбол-қувончим, дардим, фаҳрим. -Т.: «Шарқ», 1996

21. Имомхўжаев А. Мафтунингман футбол. -Т.: «Шарқ», 2004

22. Имомхўжаев А. Ўзбегимнинг Миржалоли. -Т.: «Шарқ», 2006

23. Исаков А. Е, Деговцев Н. Спортивная журналистика . Маркетинг, реклама и PR . Август -2022

24. Полосин Л. С. Спортивная журналистика. - М., 2009.

25. Каримов А. А. Рекреативлик – замонавий тележурналистиканинг глобал қонунияти сифатида: миллий ва халқаро тажриба. Фил. фан. докт. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Т.: – 2023.- 220 б.

26.Каримов А. Аудиовизуал журналистика (тележурналистика), – Т.: ЎзДЖТУ, -2012.

27. Каримов А.А. Спорт журналистикасида рекреативлик. – Т.: “ADABIYOT”. 2024. – 126 б.

28.Каримов А., Қосимова Н., Исмоилова К., Хамдамов Ю., Ортиқова Ю., Абдухолиқов И., Жўраев Х., Файзуллаева Х. Аудиовизуал журналистика. VI жилд. – Т.: НМИУ, 2019.– 432-б.

29. Karvonli Husan. O'zbek shaxmatining oltin avlodi – Т.: «Akademnashr», 2022. - 80 b

30. Мак Чесни Роберт. История спортивной журналистики в США. [http:// en. wikipedia. org/ wiki/ Robert W Mc Chesney](http://en.wikipedia.org/wiki/Robert_W_McChesney)

31.Муратова Н., Қосимова Н., Алимова Г., Дадахонов А., Илёсхонова А., Холматова С., Хакимова Н. Онлайн журналистика ва медида янги трендлар. VII жилд. – Т.:НМИУ,2019.– 488-б.

32.Мўминов Ф., Тошпўлатова Н. Журналистика социологияси ва психологияси. X жилд: – Т.: НМИУ, 2019. – 296-б.

33.Мўминова Ф., Каримов А., Тошпўлатова Н., Дўлтаева Д., Рашидова А. Медиа-маркетинг ва менежмент [Матн] IV жилд. – Т.:НМИУ, 2019.– 240- б.

34.Нурматов А. Тўхлиева Н. Шарҳлаш журналистикаси.Т.:“BAYOZ”,2013

35.Нурматов А., Дўстқораев Б., Мўминов Ф., Саидов Х., Тошпўлатова Н., Махсумова С. Журналистика назарияси, тарихи ва тараққиёти. I жилд. – Т.: НМИУ, 2019 – 584-б.

36.Опарина Е. В., Макарова П. В. Спортивная журналистика как инструмент формирования

позитивных ценностей у подростков // Наука и школа. 2022. № 6. С. 45–50. DOI: 10.31862/1819-463X-2022

37. Рўзиев Ф. Жўраева Х. Тележурналистга тавсиялар. –Т.: «SHARQ», 2013

38. Саидов Х., Тошпулатова Н., Нурматов А., Дўстқораев Б., Ашуров С., Тухлиева Н., Дултаева Д., Умарова Д., Эркабоева Ё. Босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари [Матн] V жилд. – Т.:НМИУ, 2019. – 512 б.

39. Тешабаева Д., Бакиева Г., Исроил М., Тошмухамедова Л., Нуритдинова М. Медиалингвистика ва таҳрир. III жилд. – Т.: НМИУ, 2019 – 552 б

40. Танака Х. Спортивная журналистика Японии: жанровое своеобразие и современные методы медиапроизводства. Труды БГТУ, 2022, серия 4, №1, С.73-77 <https://cyberleninka.ru/article/n/sportivnaya-zhurnalistsika-yaponii-zhanrovoe-svoeobrazie-i-sovremennyye-metody-mediaproizvodstva/viewer>

41. Шарков Ф. И., Силкин В. В.; Спортивная журналистика : учебник / под общ. ред. Ф. И. Шаркова. — Москва : Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2021.

42. Шарков Ф.И., Силкин В.В., Лайшев Р.А. Спортивная журналистика в системе современной медиакommunikации. Коммуникология. 2018. Том 6. №4.

43. Шмидт О.Ю. Проблематика, специфика формирования и развития тверской спортивной

журналистики: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук – Тверь.: 2018. – 21 с.

44.Эрназаров Қ.Т. умумий таҳрири остида. Репортёрлик фаолиятининг назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: ЎзМУ. -2002

45. Қосимова Н., Ҳидиров Қ., Сафаров А., Ортиқова Ю., Исомиддинова М., Дўсимбетова Н., Абдурахмонова М., Саидова М. Ихтисослашган журналистика. IX жилд. – Т.: НМИУ, 2019. – 784 б.

46. Ғаффоров Н. Н. Спорт терминларининг лисоний тадқиқи: когнитив-прагматик ва лексикографик хусусиятлари. Фил. фан. докт. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.. Т.: 2022. - 226 б.

III. Internet manbalar

47. <https://president.uz/uz/>

48. journal.fledu.uz

49. <https://olamsport.com>.

50. <https://cyberleninka.ru/>.

51. <https://kun.uz/>.

52. <https://yuz.uz/>.

53. <https://www.mtrk.uz/uz/tv/sport>.

54. <https://tribuna.uz/>.

55. <https://wikipedia.org>

56. https://www.marca.com/resultados.html?inicmp=TABAGEN01&s_kw=resultados&date=17-12-2024

57. <https://www.unesco.org/en/sport-and-anti-doping/sports-values-education>

58.<https://www.gazeta.ru/science/news/2024/12/11/24603146.shtml?updated>

59. <https://runningmag.sport-press.it/>

60.<https://newrunners.ru/mag/beg-ot-realnosti-chto-takoe-sportivnyj-eskapizm/?ysclid=m4cawacebv600657812>

61.<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AD%D1%81%D0%BA%D0%B0%D0%BF%D0%B8%D0%B7%D0%BC>

62.<https://24smi.org/celebrity/5347-kharuki-murakami.html>

63.<https://uz24.uz/uz/articles/olimpiya-7-17>

64.<https://kun.uz/kr/news/2024/08/11/parij-2024-yakuniy-jadval-ozbekiston-qahramonlari-va-avvalgi-olimpiadalar-dagi-natijalar>

65. www.olympic.org

66.www.olympic.org

67.www.databaseolympics.com

68.www.olympicmuseum.com

69.<https://www.sabah.com.tr/spor-haberleri?ysclid=m4r65l8s8p956559763>

70.www.the-uff.uz. "O'zbek sport jurnalistikasi asoschilaridan biri.

71.<https://uz.uzathletics.uz/>

72.<https://www.gazeta.uz/uz/2024/09/09/sport/>

73.<https://kun.uz/kr/news/2024/09/13/ozbekiston-paralimpiya-harakatining-oltin-avlodisiz-shavkat-mirziyoyev>


74.<https://olympics.com/en/news/paris-2024-first-games-to-achieve-full-gender-parity>

75.<https://www.sports.uz>,

- 76.<https://www.tribuna.uz>
- 77.<https://www.championat.asia>
- 78.sport.akipress
- 79.sport.kg,
- 80.tengrisport.kz
- 81.@oriftolib

ILOVALAR

1- ilova



2 - ilova



3 - ilova

Açık alanda **Saat 08:00**

SABAH SPORU

Komşunu Al Spora Gel

Lokman ÇAĞIRICI / Belediye Başkanı

Şeyh Şamil Parkı	Salı, Cumartesi	Mevlana Parkı	Salı, Cuma
Mustafa Kemal Parkı	Pazartesi, Perşembe	Plevne Parkı	Pazartesi, Cuma
Azerbaycan Dostluk Parkı	Pazartesi, Cuma	Fatih Sultan Mehmet Parkı	Salı, Cuma
Aile Parkı	Salı, Cumartesi	Hicret Parkı	Pazartesi, Perşembe
Yıldıztepe Parkı	Salı, Cumartesi		

0212 410 06 00 • www.bagcilar.bel.tr

4- ilova

ICI, C'EST GACHIS


Mbappé et les Bleus, le retour malgré tout

L'ÉQUIPE

LA LIGUE DES BRETONS

Supplément hebdomadaire

12 pages



Artikova Yulduz Akmalovna

**SPORT JURNALISTIKASI ZAMONAVIY
TREND SIFATIDA**

Monografiya

Muharrir Mehrixon Ortiqova
Sahifalovchi Behzod Haydarov

Bosishga ruxsat etildi: 17.02.2025-yil
Bichimi 60x84 ^{1/16}. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog'i 6.7. Adadi 100. Buyurtma № 45-02
Тел.: (99) 817 44 54

Guvohnoma reyestr № 219951
“Publishing High Future” OK nashriyotida chop etildi.
Toshkent sh., Uchtepa tumani, Ali Qushchi ko'chasi, 2A-uy.